

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

YUNUSOV ILXOMJON YUSUPOVICH

**BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING MEDIASAVODXONLIK
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

MONOGRAFIYA

ANDIJON-2025

Yunusov.I.Y. Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish

Monografiya – Andijon: ADTI, 2025 - 108 bet

Muallif:

Yunusov Ilxomjon Yusupovich – Andijon davlat tibbiyot institutining “Biologik fizika, informatika, tibbiy texnologiyalar kafedrası”ning katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

Taqrizchilar:

S.B.Atajanova – Andijon texnika institutining “Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri”, pedagogika fanlari falsafa doktori, (PhD) dotsent.

A.A.Ismanova – Andijon davlat tibbiyot institutining “Biologik fizika, informatika, tibbiy texnologiyalar kafedrası” mudiri, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor.

Kirish

Jaxon tibbiyot ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini raqamlashtirish, axborot muhitida mediata'lim maxsulotlarini joriy etishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan davr yangi ta'lim konsepsiyasida: "...zamonaviy dunyoda mediani ijtimoiy -madaniy va siyosiy nuqtai nazardan tushunish, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baholash qobiliyati rivojlangan mediasavodxon kadrlarni tayyorlash..." dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilib, ta'lim jarayonlarida mediata'limning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan samaradorligini oshirish, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, talabalarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish, miltimediali elektron majmualardan o'quv jarayonida keng foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarning mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirilishi xamda faoliyat sohalari bo'yicha talabalarga innovatsion ta'lim berish, kasbiy ko'nikma va malkalarini doimiy takomillashtirib borish, mediakontentlardan ta'lim jarayonida foydalangan xolda mediakompetensiyali zamonaviy mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida mediamatnli materiallar, kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishga mo'ljallangan elektron darsliklar, mediamahsulotlar yaratish jarayonlarini rivojlantirish, talabalarda mediamadaniyat va mediasavodxonlik ko'nikmalarini takomillashtirish va mavjud o'qitish texnologiyalarining meyoriy asosi yaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev: "Biz O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o'z qo'limizga olmas ekanmiz, bu ishlarni xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon

yaratib beramiz. Bunga mutlaqo qo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Buning uchun esa yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz, ularda medisavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishimiz va xar qanday yolg‘on axborotlarni oldini olishga o‘rgatishimiz kerak” -deya aniq vazifalar belgilab berdilar. Natijada tibbiyot sohasida bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyati kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-son “Tibbiyot va farmatsevtika ta‘limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

I BOB. BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§.Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik zarurati

Dunyoda kechayotgan globallashuv, tez rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar va siyosiy, iqtisodiy hamda mafkuraviy manfaatlar to‘qnashuvi medianing axborot-psixologik ta’sirini kuchaytirib, insonlar ongu shuuri uchun kurash jarayonining avj olishiga sabab bo‘lmoqda.

Yoshlarning mediaolamdagi shiddatli axborot oqimiga qiziqishlarining ortishi, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammosining dolzarblashuvi, axborotning tovar sifatidagi tijoriy funksiyalari kypayishi, axboriy muhitning ifloslanishi, unda turli nomaqbul axborot shakllarining paydo bylishi, mediaga qaramlik yoshlarning media bilan munosabatini tartibga solish uchun talabalarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishni taqazo etmoqda.

Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalari talabalarining o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim olishlarida, zamonaviy kasb-xunar egallashlarida va kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirishda, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushunishlarida innovatsion ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni xar tomonlama chuqur o‘zlashtirishlari zarur bo‘ladi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda media, mediata’lim hamda ta’lim jarayonlarida mediadan foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy bo‘lajak shifokorlarning ommaviy axborot vositalari bilan ishlash malakasini shakllantirish, ular orqali ta’lim mazmunini chuqur o‘zlashtirish, kasbiy salohiyatni rivojlantirish hamda turli media resurslardan samarali foydalanish shartlarini anglash muhim sanaladi. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar, ekran san’ati, kompyuter tomografiyasi, televideniye, reklama, interaktiv doskalar, kompyuter animatsiyasi va boshqa

vositalardan foydalanish tibbiy modellarni o'rganish hamda ulardan amaliy foydalanishga tayyorlikni shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Shu boisdan, bo'lajak shifokorlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning mediasavodxonlik kompetensiyalarini yuksaltirish zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy va texnik taraqqiyot talablariga mos tarzda bo'lajak shifokorlarning media sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish hamda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar orasida muhim o'rin tutadi.

Respublikamizda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta'lim, jumladan, oliy ta'lim sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, amalga oshirilgan islohotlar bugun o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, milliy kadrlarni tayyorlash va yosh avlodni barkamol va etuk qilib voyaga etkazish o'qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalaridan biridir. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da sifatli ta'lim xizmatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilangan. Bu borada oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega.

Axborot — bu olamni anglash, yangi bilimlarni egallash hamda tahliliy jarayonlarni amalga oshirishning eng muhim unsurlaridan biridir. Aslida, insoniyat tarixida axborotni atrof-muhitdan olish, uni o'zlashtirish, tizimlashtirish, saqlash va boshqalarga yetkazish qobiliyati sivilizatsiyaning shakllanishida asosiy omil bo'lgan. Bizga tanish bo'lgan zamonaviy medianing paydo bo'lishi esa axborot tarixi va insoniyat taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi.

So'nggi yillarda YUNESKO media va axboriy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Shunday tashabbuslardan biri — "Media va axboriy savodxonlik: o'qituvchilar malakasini oshirish dasturi"

nomli o‘quv qo‘llanmasidir. Ushbu materiallarni tayyorlashda ishtirok etgan xalqaro ekspertlar shuni alohida ta’kidlaganlar: *“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qayd etilishicha, har bir inson fikrlash va o‘z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega. Ushbu huquq, o‘z e’tiqodiga erkin amal qilish, shuningdek, har qanday shaklda hamda davlat chegaralaridan qat’i nazar, ma’lumot va g‘oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini ham o‘z ichiga oladi.”*

Media va axboriy savodxonlik insonlarga ushbu fundamental huquqni to‘liq amalga oshirish imkonini beradigan zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu prinsip 1982-yilda qabul qilingan **Grünvald deklaratsiyasida** belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda siyosiy va ta’lim tizimlari fuqarolarda kommunikatsiya jarayonlari mohiyatini tushunish hamda ularning ommaviy axborot vositalarida faol ishtirokini rag‘batlantirish zarurligi qayd etilgan.

Mazkur g‘oya 2005-yilda qabul qilingan **Aleksandriya deklaratsiyasida** yanada rivojlantirilib, unda media va axboriy savodxonlikni umrbod ta’lim olishning ajralmas asosi sifatida e’tirof etilgan. Ushbu hujjatda turli kasb egalari uchun “shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy va ta’limiy maqsadlarga erishish jarayonida axborotni samarali qidirish, tahlil qilish, baholash, undan foydalanish va yangi axborot yaratish” imkoniyatini ta’minlashda mediasavodxonlikning o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Medianing eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u insonlarga voqealar, hodisalar va ijtimoiy jarayonlar haqida keng qamrovli axborot beradi hamda ularning dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Avvalom bor media haqida gapirishdan oldin, axborot nima? Axborot turlari haqida to‘htalib o‘tamiz. Chunki media -axborotlarni vertual olamda tarqatuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot — bu bizni o‘rab turgan olam va unda kechayotgan turli jarayonlar haqidagi ma’lumotlar majmuasidir. U tirik mavjudotlar, elektron qurilmalar hamda turli axborot tizimlari tomonidan qabul qilinishi va qayta ishlanishi mumkin. “Axborot olami”, “axborot texnologiyalari”, “axborot maydoni” kabi tushunchalar bugungi kunda hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Axborot esa,

zamonaviy jamiyatda inson hayotining bevosita tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar axborot asosida yangi — **virtual muhit**ni yaratishga imkon berdi. Bu makonda barcha ma’lumotlar raqamli shaklda jamlanadi va qayta ishlanadi. Natijada insoniyat uchun ilgari tasavvur qilib bo‘lmaydigan imkoniyatlar paydo bo‘ldi: masalan, biz istalgan jahon ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklarni o‘qishimiz, dunyoning istalgan nuqtasidagi inson bilan lahzalar ichida muloqot qilishimiz va axborot almashishimiz mumkin. Bugungi kunda hatto kutubxonaga borish zarurati ham yo‘q — istalgan kitobni elektron qurilmalar orqali topish mumkin. Shuningdek, do‘konlarga chiqmasdan turib, internet-do‘konlar yordamida istalgan mahsulotni xarid qilish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, **axborot** — bu turli manbalardan olinadigan, tekshiriladigan, uzatiladigan va saqlanadigan ma’lumotlar majmuasidir. Hozirgi kunda bu tushunchaning yagona, barcha fanlar uchun umumiy ta’rifi mavjud emas. Chunki har bir ilm sohasi “axborot” atamasini o‘z nuqtai nazaridan izohlaydi. Masalan, informatika fanida “axborot” markaziy tushuncha bo‘lib, uni oddiyroq so‘zlar orqali aniq ifodalab bo‘lmaydi.

Inson axborotni atrof-muhitdan o‘z sezgi a’zolari yordamida, shuningdek, fikrlash, tahlil va mantiqiy xulosalar chiqarish jarayonida qabul qiladi. Shu sababli axborot turli shakl va mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Ularni qabul qilinish usuli, ifoda shakli va manbasiga ko‘ra bir necha turlarga ajratish mumkin.

1. **Grafik axborot** – har qanday chizmalar, grafiklar, fotosuratlar va rasmlar.
2. **Akustik axborot** – tabiiy muhitdan (masalan, dengiz shovqini, qushlar sayrashi) yoki sun’iy manbalardan (radio, musiqa, podkastlar va boshqalar) qabul qilinadigan axborot.

Axborotni qo‘llash imkoniyatlari juda ko‘p. Birgalikda tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, axborotning barcha imkoniyatlarini shartli ravishda ikkita guruhga

ajratish mumkin: birinchisi ijobiy va ijodiy maqsadlar uchun, ikkinchisi esa salbiy maqsadlar uchun foydalanish.

Ijobiy imkoniyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan misollar, masalan, bo‘lajak shifokorlar MRT, MSKT kabi murakkab texnikadan foydalanishning xavfsiz qoidalarini o‘rganishidir. Bu axborotni o‘rganib, o‘z bilimini oshirgan shifokor, kasallikka tashxis qo‘yishda, tomografik suratlarni tahlil qilishda ijodiy yondashuvni qo‘llay oladi.

Salbiy maqsadlar uchun axborotdan foydalanishning misollari yuqorida keltirilgan, lekin bundan tashqari, biz axborotning salbiy tomonlarini tez-tez uchratamiz, lekin ko‘pincha bu holatlarni anglamay qolishimiz mumkin.

Demak, bugungi kundagi zamonaviy media savodxonlik, internet va ijtimoiy tarmoq, inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu texnologiya foydalanuvchilarini shartli tarzda ikki toifaga bo‘lish mumkin. Birinchi toifadagi shaxslar internet va media olamining ijobiy jihatlarini samarali foydalanib, internet va axborot texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin deb hisoblaydi.

Ikkinchi toifa esa, axborot va ijtimoiy tarmoqlardan turli yolg‘on va tahdid kabi axborot tarqatishda foydalanib, maishiy masalalar doirasida o‘ralashib qolganlardir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lajak shifokorlar uchun eng zarur bo‘lgan asbob-pichoqni media orqali targ‘ib qilinmoqda, deylik. Birinchi toifa shaxslar pichoqni shifokor uchun naqadar ahamiyatli qurol ekanligini, ushbu qurol yordamida shifokor bemorni jarrohlik amaliyoti yordamida uni hayotga qaytarishini va kundalik turmushimizni shu pichoqsiz tasavvur qilib bo‘lmasligini tahlil qiladilar, fikr yuritadilar va ushbu qurol-pichoqning yana biz bilmagan ijobiy va foydali tomonlarini mediadan tanlab, ajratib olib, pichoq haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. Ikkinchi toifa shaxslar esa pichoq-bu yovuz maqsadlarni amalga oshirishda eng oson qurol sifatida qo‘llashni fikr qiladilar. Pichoq massasi kichkina bo‘lganligi sababli dushmanga ko‘rsatmasdan yon cho‘ntakda ham olib yurishga qulayligini, u o‘tkir tig‘li sovuq qurollar turkumiga kirganligi sababli dushmanga xujum qilishda eng qulay qurol ekanligini tahlil qiladilar, fikr yuritadilar va yana ushbu quroldan o‘z g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda yana qanday xususiyatlardan foydalanish

mumkinligini uylaydilar. Demak, media bilimlilar uchun bilim vositasi, kimlar uchun esa balo vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin ekan. SHuning uchun xam talabalarda axborotlarni saralash, tahlil qilish, ijobiy natijalarga yo‘naltirish kompetensiyasi muxim xisoblanadi. Jumladan, XX asrda xali internet rivojlanmagan vaqtda axborot taqchilligi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda, jamiyatda esa axborot oqimi ko‘paygani tufayli, ilmiy, tahliliy va mantiqiy fikrlash talab etuvchi axborotdan q‘ochish yuzaga keldi. Global axborot zamonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baxolash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishni talab etadi.

Bugungi kunda media vositalari — ya‘ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san‘atning turli yo‘nalishlari, madaniy manbalar hamda internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan turfa xabarlar inson tafakkuriga kuchli ta‘sir o‘tkazmoqda. Bu holat insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasiga sezilarli darajada o‘zgarish kiritmoqda.

Yuqorida tilga olingan media shakllarining amaliyotda qo‘llanilishi, shuningdek, mediata‘lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlarning asosiy maqsadi — axborot qanday yaratilishi, qay tarzda tarqatilishi va uning orqasida qanday maqsad yoki manfaatlar yotganini anglab yetishdan iboratdir. Bunda, ayniqsa, axborot oqimlarining tijorat, siyosat, iqtisod, ma‘naviyat va madaniyat sohalaridagi ta‘sir mexanizmlarini tushunish, ularni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Nega bo‘lajak shifokorlar mediasavodli bo‘lishi lozim? Hozirgi kunda mediasavodxonlik XXI asr yoshlari uchun zaruriy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Bu aynan o‘qish va yozish qobiliyati singari muhim malakadir. Chunki bugungi kunda insonlar media makonida yashab, turli axborot manbalaridan foydalanishga majbur. Shuning uchun har bir inson olgan ma‘lumotining foydali yoki salbiy ekanini o‘zi tahlil qilib, fikr yuritishi muhim hisoblanadi.

Demak, talabalar xam sifati past ma‘lumotlarni o‘qisalar, unda dunyo haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladilar. Ehtimol, ba‘zi firibgarlar talabalarda mediasavodxonlik shakllanmaganligi sababli ularni aldab ketishi mumkin. Shuning

uchun xam talabalarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masala kasb etadi.

Tadqiqotimiz mavzusidan kelib chiqib, bo‘lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini yoritishdan avval Media o‘zi nima? Mediasavodxonlik nima? Mediasavodxonlik kompetensiyasi nima? Nima uchun bo‘lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish muhim? kabi muhim savollarga to‘xtalib o‘tamiz.

Insoniyat yaratilgan ilk davrlardanoq asosiy faoliyatlaridan biri axborot almashinuvi bo‘lgan. Dastlab bu jarayon imo-ishoralar orqali amalga oshgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan nutq rivojlanishi natijasida og‘zaki muloqot shaklida amalga oshira boshlandi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, insoniyat o‘z tarixining boshidan beri media bilan uzviy aloqada bo‘lib kelmoqda.

Ushbu tadqiqotda biz media va mediasavodxonlik tushunchalari bilan tanishamiz. Shuni unutmaslik kerakki, “media” atamasini bir-ikki jumla bilan izohlash mushkul — u keng qamrovli va murakkab tushuncha hisoblanadi. Media qachon va qanday paydo bo‘lgani borasida turli xil qarashlar mavjud. Biroq umumiy tamoyillarga asoslanadigan bo‘lsak, insoniyat tarixida birinchi bor axborot uzatgan vosita aynan media sifatida qaralishi mumkin.

Qadimda Mediani paydo bo‘lishining tarixiy bosqichlari qo‘yidagidan iborat:

Birinchi bosqich. Ibtidoiy jamoa tuzimida odamlar birinchi tasvirlarni toshlarga yozuv yo surat misolida tushirishgan va ushbu toshdagi bitiklar va rasmlar bugun bizga tarixni o‘rganishda juda katta yordam berib kelmoqda. Toshlardagi bitiklar odamzot to hayvonlar terisiga yozishni yo qog‘ozni ixtiro qilguniga qadar davom etgan. Jamoa orasidan chiqqan vakillar tarixiy voqealarni, turli xil jamoaviy bayramlarni, tarixiy sanalarni, qabilasi joylashgan manzillarni bir-birlariga toshga bitiklar yozish orqali etkazishgan. Ushbu tarixiy bitiklar, xayvonlar terisiga yozilgan kitoblar ularning ayrimlari bizgacha etib kelgan va bugungi kunlarda dunyoning mashxur muzeylarida saqlanib kelmoqda.

Ikkinchi bosqich. Media sohasining keyingi rivojlanish bosqichi ko‘p yillar davomida shakllanib, uning taraqqiyotida muhim burilish yasadi hamda ushbu sohani

mutlaqo yangi pog‘onaga olib chiqdi. Bu bosqich asosan qadimgi Xitoyda qog‘oz ixtiro qilingan davr bilan bog‘liq. Hozirgi zamonda hayotni qog‘ozsiz tasavvur qilish qiyin — gazeta, jurnal, kitob kabi axborot manbalari aynan shu ixtiro orqali yuzaga kelgan. Darhaqiqat, insoniyat tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sifatida qog‘ozni ko‘rsatish mumkin. Qog‘oz yaratilgach, yozma manbalar, qo‘lyozmalar sezilarli darajada ko‘paydi va bilim almashinuvi jarayoni tezlashdi. Bu esa madaniyat va ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi.

Endi odamlar tarixiy sanalar, muxim bayramlar xaqilagi axborotlarni qog‘ozga yoza boshladilar. Podshohliklar davrida, xatto Temuriylar davrida xam xabarlar, axborotlar qog‘oz shaklida tarqatilgan. Jumladan, Amir Temur o‘z saltanatini idora etishda barcha voqea-xodisalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan etarli darajada boxabar bo‘lib turish masalasiga alohida e‘tibor qaratgan. Real xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra bilish, uning xavflilik darajasini aniqlash maqsadida buYuk Sohibqiron muntazam, uzluksiz ishlaydigan, o‘z davri darajasida axborot tizimini shakllantirishni bosh vazifa qilib qo‘ygan. “Har bir diyoy aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim. Har bir mamlakat ahvoli, sipohu raiyatning kayfiyatini, turish-turmushini, qilmish-qidirmishlarini, bular o‘rtalaridagi aloqalarni yozib menga bildirib turish uchun diyonatli, to‘g‘ri qalamli kishilardan voqeanavislar belgiladim”, deyiladi “Temur tuzuklari”da.

Uchinchi bosqich. Bu davr jurnalistika bilan aloqador, ya’ni jurnalistikaning birinchi ko‘rinishidir. Qadimda podshohlarning amru farmonlarini halqqa etkazib beradish vazifasini jarchilar bajargan. Qadimda har bir podshohlikda bir necha o‘nlab jarchilar faoliyat olib borishgan. Ularning asosiy vazifasi, o‘sha davr podshohlarining amr, farmon, qonun va e‘lonlarini baland ovozda odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda, baland ovozda axoliga etkazish bo‘lgan.

To‘rtinchi bosqich. Bu davrga kelib xalq orasida teatr tomoshalari ko‘yila boshlagan. Teatrlarni ham medianing bir bo‘lagiga ulashadi, chunki teatrdagi tomoshalar orqali ham axoli o‘ziga kerakli ma’lumotlarni olishgan va ma’daniy hordiq chiqarishgan.

Beshinchi bosqich. Bu davr o‘zini eng dastlabki ixtiro mashinali bilan mediani shakllanishiga ulkan xissa qo‘shgan. Birinchi bo‘lib Evropada nemis olimi Iogan Gutenberg tomonidan axborotlarni qog‘ozga chop etadigan chop mashinasini ixtiro qilingan. Endi qog‘ozga chop etilgan axborotlar kitob va gazetalar shakl jihatdan bugungi biz ko‘rib turgan holatga keltirilib, xalqqa etkazilgan. Bu ham media sohasida juda katta o‘zgarishlardan biri edi. Keyinchalik Chor Rossiyasida rus fizigi Aleksandr Stepanovich Popov tomonidan ixtiro qilingan radiopryomnik mediani yana ham Yuksak darajada rivojlanishiga sabab bo‘ldi va qadimgi jarchilar o‘rnini bosgan. Bu ixtiro xozirgi davrdagi radioning asosiga aylandi va bugun radio medianing ajralmas qismi bo‘lib qoldi.

Oltinchi bosqich. Bu davr O‘zbekistonni O‘rta Osiyogagina emas, balki dunyoga tanitgan buyuk ixtirosi-birinchi marotaba elektron teleko‘rsatuvlarni amalga oshirgan televideniyaning yaratilishi bilan mashhurdir. Elektron televideniya Boris Grabovskiy boshchiligidagi bir guruh sovet olimlari tomonidan ixtiro qilingan. Ular Toshkentda bir necha yil izlanishlari natijasida “Telefot” deb nomlangan apparat yordamida birinchi marotaba jonli xarakatlarni uzatadigan televideniyaning ixtiro qilishgan. Bu ixtirolari xozirgi kundagi barcha televizorlarning asosi bo‘lib qolgan. Televideniyaning paydo bo‘lishi, kompyuter va internet resurslarini rivojlanish. Medianing globallashuvi jarayoni tobora tezlashib, bugungi kunga kelib u deyarli har bir xonadonga kirib bordi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki hozirgi davrda qo‘lida mobil telefoni, uyida televizor yoki radio qabul qilgichi bo‘lmagan, hatto umrida bir marta bo‘lsa ham gazeta yoki jurnal sahifalarini varaqlamagan insonni topish deyarli imkonsizdir.

Media (inglizcha media, lotincha medium -vositachi)degan ma’noni anglatib, bu aloqa vositalari, axborotni uzatish usullari, shuningdek ular tomonidan shakllangan muhit (media makon) ni o‘z ichiga olgan keng tushunchadir. Media atamasini birinchi marta fanga Kanadadagi Toronto Universiteti xodimlari tomonidan amaliyotga kiritilgan. Shuning uchun xam Toronto Universiteti xodimlari media atamasi asoschilari xisoblanadi. Toronto Universiteti - Kanadadagi yirik oliy o‘quv yurtlaridan biri xisoblanadi. Oliy o‘quv yurtining tarixi 1827-yilda boshlangan. Universitetda sanoat texnologiyasi, san'at va fan, o‘rmon xo‘jaligi, tibbiyot, stomatologiya,

pedagogika, huquqshunoslik, farmakologiya kabi yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Xozirgi kunda Toronto Universitetida 50 mingdan ortiq talabalar ta‘lim oladilar. Keyinchalik bu atama lotin tilidan hosil bo‘lgan ko‘plik shakli o‘rta, "o‘rta" yoki "vositachi" deb tarjima qilingan.

Hozirgi vaqtda media — bu ma‘lum bir iste‘molchiga axborot xabarini uzatishga xizmat qiladigan texnologik vositalar va aloqa usullarining butun majmuasini o‘z ichiga olgan keng tushuncha hisoblanadi.

"Media" (artefaktlar aloqa vositasi sifatida) konsepsiyasini ishlab chiqish asoschilari orasida Toronto Universiteti olimlaridan Garold Innis va Marshall Makluan alohida o‘rin tutadilar. M. Makluan medianing ma‘naviy, psixologik va fiziologik xususiyatlarini o‘rganishga katta e‘tibor qaratdi, Innis esa uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va moddiy oqibatlari bilan shug‘ullangan. Nil Postman esa ommaviy axborotlarni "ko‘ngilochar" ta‘sirini tekshiradi. Muallifning xulosasiga ko‘ra, ommaviy axborotlar dam olish va o‘yin-kulgiga bo‘lgan ehtiyojni qondirishni birinchi o‘ringa qo‘yib, axborot sifatini fonga suradi. Uning fikriga ko‘ra, ommaviy axborotlar shaxs yoki ob‘ekt tasviri haqiqatning o‘zidan kam emas. Uning so‘zlariga ko‘ra, ushbu bosqichda texnologiyaning rivojlanishi tufayli hatto saylovchilar ham siyosatchining haqiqiy faoliyatiga emas, balki uning imidjiga ko‘proq e‘tibor berishadi. Tizim-faoliyat yondashuvi doirasida "media — makon" deganda tizimning muvozanati va ichki gomeostazini ta‘minlashda ham, uni engishda ham o‘z rolini bajaradigan ikkita-madaniy va ijtimoiy muhit mahsuli tushuniladi. Barcha mualliflar artefaktlarning aloqa vositasi sifatida ta‘siriga katta ahamiyat berishgan. Ular buni insonning fikrlarini shakllantiruvchi omil sifatida qabul qilishdi Nil Postmanniin ta‘kidlashicha, M. Makluanning Yuqori obro‘si uning g‘oyalarini tanqid qilishga to‘sqinlik qiladi va bu g‘oyalar jamiyatda qanday qabul qilinishiga jiddiy ta‘sir qiladi. Uning fikricha, "«Законы media: новая наука» («Laws of Media: The New Science») M. Makluanning eng yaxshi kitobiga aylandi, chunki unda dalillar bazasi aniq ko‘rsatilgan. M. Makluan, D. Curry, S. Finkelstein, D. Millerlar xam media bo‘yicha o‘zlarining katta xissalarini qo‘shganlar.

Bugungi kunda biz ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, gadjetlar va aloqa uchun boshqa "texnologiyalar" ga shunchalik chuqur singib ketdik-ki, jamiyat haqidagi deyarli har qanday suhbat ommaviy axborot vositalari mavzusiga tegadi. "Media" atamasi aloqa vositalari yoki ular bilan bog'liq har qanday narsaning belgisidir. Masalan, "multimedia" — bu turli xil aloqa kanallaridan (video + audio) foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan narsa va "media magnate" — ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kompaniyalar egasidir. Ya'ni, birinchi qarashda, media — bu ma'lumot yoki xabarlarini uzatishda ishlatiladigan, ishtirok etadigan vositalar, shakllar va texnikalar to'plamidir.

Shunday qilib, bizning nazarimizda, media — bu ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan turli vositalardan foydalanib, axborotni samarali ravishda qabul qilish, uzatish, tahlil etish, baholash, sharhlash, undan foydalana olish, shuningdek, yangidan yaratish va uni ommaga yetkazish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma, malaka hamda amaliy faoliyatlar majmuasidir.

Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to'g'ri baholash qobiliyati dolzarb bo'lib qolmoqda. Media savodxonligi, media ta'limi, media madaniyat, soxta va tashviqot axborotlariga qarshilik ko'rsatish — bu talabalardan mediasavodxonlik kompetensiyasini talab qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida "media" atamasi paydo bo'ldi. "Media" atamasi lotin tilidan (media, medium so'zidan) olinib, qo'lanma, vositachi ma'nolarini anglatadi.

Media – bu jamiyatda to'g'ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo'lib, insonlar bilan vaqtincha o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg'ituvchi makondir. "Media" atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llangan .

Yevropa Ittifoqi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda qayd etilishicha, mediata'lim (media education) — bu fuqarolarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ularni o'z fikrini asosli va mas'uliyat bilan ifoda eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidir. Ushbu yondashuv orqali mediasavodxonlik tushunchasini chuqurroq anglash va rivojlantirish nazarda tutiladi.

Mediata'lim talabalarga kerakli axborotni izlab topish, undan oqilona va samarali foydalanish, uni tahlil qilish, shuningdek, bu ma'lumotlar bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni aniqlash ko'nikmalarini o'rgatadi.

Mediasavodxonlik tushunchasiga to'xtalishdan oldin "Savodxonlik" o'zi nima? degan savolga aniqlik kiritamiz.

Savodlilik -bu insonning madaniy saviyasi kursatkichlaridan biri xisoblanib, insonning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq malakalariga egaligini anglatadigan tushunchadir. Savodxon inson oddiy matnlarni o'qiy olish yoki ularni o'qish va yoza olish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Savodxonlik muayyan soha bo'yicha bilimga egalik sifatida qaraladi va uning turli turlari mavjud: siyosiy savodxonlik, texnik savodxonlik, tibbiy savodxonlik, kompyuter savodxonlik, axborot savodxonlik, mediasavodxonlik kabi. Savodxonlik tushunchasining mazmuni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'zgarib turadi va bu o'zgarishlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy va ruhiy saviyasiga bog'liqdir. Har bir davrda savodxonlikning ahamiyati va talablari jamiyatning ehtiyojlariga qarab shakllanadi, shuning uchun u doimiy ravishda yangilanib turadi.


Savodxonlik haqida gap ketar ekan birinchi o'rinda, ko'p kitob o'qigan, savollarga tez javob bera oladigan, odobi va o'zining hulq atvori bilan boshqalarga o'rnak bo'ladigan odamni tushunamiz.

Savodxonlik haqida adabiyotlarda shunday fikrlar keltirilgan: ilgari savodxonlik insonning ma'lumoti, yozma va og'zaki nutqi, fikrlash qobiliyati va tafakkuri bilan bog'liq edi. Bu tushuncha odatda faqat an'anaviy o'qish-yozish ko'nikmalarini ifodalagan. Bugungi kunda esa savodxonlik yanada kengroq tushuncha sifatida qaraladi va u inson faoliyatining ko'plab yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, axborot, media va raqamli kommunikatsiya vositalari bilan bog'liq faoliyatlar ham savodxonlik doirasiga kiradi. Demak, zamonaviy savodxonlik nafaqat an'anaviy bilimlarni, balki raqamli texnologiyalarni va ularning tahlili hamda ishlatilishini ham o'z ichiga oladi.

Savodxonlik qachon boshlangan? Yoki biz bu tushunchaning ilk belgilarini aynan qaysi davrdan e'tiboran anglay boshladik? Bu kabi savollar tarixiy tafakkur


bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Agar o‘tmishga nazar tashlasak, inson savodxonligining dastlabki manbalari ota-bobolarimiz tomonidan aytilgan ertaklarga borib taqaladi. Aynan shu ertaklar orqali biz yaxshilik va yomonlik, oq va qorani ajrata olish, ya’ni muayyan darajada tafakkur qilishni o‘rganib kelganmiz. Vaqt o‘tishi bilan esa bu savodxonlik maktab ta’limi, oliy o‘quv yurtlaridagi bilimlar va hayotiy tajriba orqali yanada boyib bordi.

Savodxonlik haqida fikr yuritganimizda bugungi kunga kelib uning qamrovi keyganligini ko‘ramiz.



1.1-rasm

Aslida, bu so‘zlarning barchasi markaziy so‘zni to‘ldiradi. Ilgari savodxonlik tushunchasi asosan insonning bilim darajasi, yozma va og‘zaki nutq madaniyati, shuningdek, fikrlash qobiliyati va tafakkur doirasini anglatgan. Hozirgi davrda esa bu atama yanada keng ma’noga ega bo‘lib, u inson faoliyatining turli sohalarini — xususan, axborot, media hamda raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish jarayonlarini ham o‘z ichiga olmoqda. Bu esa ushbu tushunchaning kengayishiga olib kelgan.



1.2-rasm

Ushbu kategoriyalardan har biri o‘z chegarasiga, o‘zining farqli, ba‘zan kesishadigan, avvalgi jihatni to‘ldiruvchi xususiyatiga ega. Masalan, kompyuter savodxonligi (computer literacy) bu kompyuter texnikasidan foydalanish qobiliyati va informatika asoslarini bilishni anglatadi. Audiovizual savodxonlik (audiovisual literacy) va visual literacy (visual literacy) makon va vaqtga oid audiovizual voqelikni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini bildiradi. Bu audiovizual mediamatnni o‘ziga xos "o‘qish" qobiliyati, audiovizual texnikadan foydalana olish va uning asoslarini bilish bo‘lib, bular media kompetensiyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Axborot savodxonligi (information literacy) esa barcha sanab o‘tilgan tushunchalarni qamrab oladi va axborot bilan tanishish, uni tahlil qilish va sintez qilishni o‘z ichiga oladi. Barcha sanab o‘tilganlardan mediasavodxonlik (media literacy) tushunchasi ajralib turadi, chunki u media voqeligini tahlil qilish va sintez qilish, mediamatndan foydalanish va uni tushunish, shuningdek, mediamadaniyat asoslarini bilishni nazarda tutadi, ya’ni mediasavodxonlik natijasini anglatadi.

Mediasavodxonlik haqida so‘z ketganda ekspertlar shuni qayd etadiki, “ko‘nikmalarning an’anaviy to‘plami kengaymoqda... katta ma’lumotlardan xabardorlik, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, internetda qo‘llaniladigan algoritmlarni bilish, shuningdek, mediaga kirishish va undan chiqish o‘rtasidagi muvozanatga rioya qila olish yangi mediasavodxonlik komponentlari hisoblanadi”.

Globalashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi zamonda mediasavodxonlik XXI asr insonlari uchun eng muhim ko'nikmalardan biriga aylanmoqda. Chunki bugungi kunda odamlar doimiy ravishda media makonida yashaydilar va turli axborot manbalaridan faol foydalanmoqdalar. Shubhasiz, har bir shaxs iste'mol qilayotgan axborotning foydali yoki zararli tomonlarini mustaqil tahlil qilib baholay olishi lozim. Bunday salohiyat esa aynan mediasavodxonlik orqali shakllanadi.

Mediasavodxonlik — bu turli ommaviy axborot vositalarida yaratilgan kontentni tahlil qilish, baholash, ularni ongli ravishda qabul qilish va hatto o'zi ham yangi media mahsulotlarini yaratish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka hamda ko'nikmalar majmuasidir.

Kengroq ma'noda olganda, mediasavodxonlik insonlarga turli shakldagi media materiallarni anglash, tahlil qilish va yaratishga imkon beruvchi funksional ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar axborotni iste'mol qiluvchilarga turli ommaviy dasturlar va yangiliklarda yashiringan tashviqot, senzura yoki muayyan voqealarni biryoqlama yoritish holatlarini aniqlash, shuningdek, axborot vositalarining egalik shakli, moliyaviy manbalari kabi muhim tarkibiy jihatlarni tushunish imkonini beradi.

Boshqacha aytganda, mediasavodxonlik — bu ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan xabarlar, belgilar va vizual-kontentga tanqidiy yondasha olish, ya'ni tanqidiy fikrlashni media muhitiga tatbiq eta olish qobiliyatidir.

Media savodxonligi ko'pincha hayot uchun va global mediadunyo uchun ta'lim sifatida belgilanadi. Mediasavodxonlikning ta'lim resurslari — bu multimediyali kontentning dolzarb, ekspert bazali o'ziga xos xablaridir. YUNESKO ushbu yo'nalishdagi ko'p sonli loyihalar va dasturlarning tashabbuskori va muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi. Xalqaro darajada mediata'limga yo'l ochib bergan Gryunvald Deklaratsiyasi (1982) qabul qilingan paytdan boshlab, YUNESKO odamlar o'rtasida mediasavodxonlik sohasida kompetensiyalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda. Ushbu amaliy qadamlar "Parij dasturi yoki mediata'lim

bo'yicha 12 tavsiya" doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda jahonda mediasavodxonlikni mustaqil ravishda o'rganish uchun keng ko'lamli onlayn manbalar yaratilgan bo'lib, bu borada mutaxassislar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatishga va ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlovchi platformalar faoliyat yuritmoqda. Mediasavodxonlikni ta'lim tizimiga chuqur va barqaror tarzda integratsiya qilish maqsadida, talabalarni ushbu yo'nalishda tayyorlash uchun akademik dasturlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari orqali umumta'lim fanlari tarkibiga tegishli fan va modullarni kiritish rejalashtirilgan.

Bo'lajak shifokorlar axborotni borliq, jarayonlar, voqea-hodisalarning reprezentatsiyasi deb emas, aksi deb qaraydi. Ba'zan hatto uni yagona haqiqat deb qabul qiladi. Faqat tanqidiy tafakkur va ma'nolarni ajratib olish ko'nikmasi uning mohiyatini tushunishga, axborotni atrofdagi olam haqidagi ramziy — raqamli, audio, video, bosma tasavvur deb qabul qilishga yordam beradi. Ba'zan axborot hatto yagona haqiqat deb qabul qilinadi. Faqat tanqidiy tafakkur va ma'nolarni ajratib olish ko'nikmasi uning mohiyatini tushunishga, axborotni atrofdagi olam haqidagi ramziy — raqamli, audio, video va bosma tasavvurlar sifatida qabul qilishga yordam beradi.

1.2. § Talabalarda mediasavodxonlikni kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari

Insonni axborotlashgan jamiyat sharoitida yashashga axborot vositasida tayyorlash masalasi an'anaviy tarzda xalqaro hamjamiyat, ayniqsa xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. YUNESKO esa media va axborot savodxonligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi hamda uni "inklyuziv, ochiq, ishtirokchi va plyuralistik bilimlar jamiyatini shakllantirish uchun mustahkam poydevor" deb hisoblaydi.

Zamonaviy axborotga boy jamiyat hamda cheksiz axborot oqimi sharoitida bo'lajak tibbiyot xodimlarining bilim saviyasi va mediasavodxonlik darajasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mediasavodxonlik — bu axborotning qanday maqsadda, kim tomonidan va nima sababdan tarqatilayotganini anglash qobiliyatidir. Mediasavod

inson esa o'ziga quyidagi savollarni bera oladi: "Ushbu xabar kim tomonidan va qanday niyat bilan yaratilgan?", "Bu axborot men uchun haqiqatan zarurmi?" Mazkur savollarga asosli va tanqidiy javob topa olish esa ongli axborot iste'molini shakllantiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bunday savollarni nafaqat televizor ko'rayotganda, radio eshitayotganda yoki internetdan foydalanayotganda, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotgan har bir vaziyatda o'z vaqtida berish lozim.

Bugungi axboriy muhitni to'g'ri anglashda mediasavodxonlik muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari yosh avlodning ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Musiqa, televizion dasturlar, videoo'yinlar, bosma nashrlar va boshqa media vositalari insonning dunyoni qanday idrok etishiga bevosita ta'sir qiladi — va bu jarayon, odatda, bolalik davridan boshlanadi.

Shu bois, yoshlarning tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish uchun mediasavodxonlik ko'nikmalarini aynan bolalikdan shakllantirish zarur hisoblanadi. Bu ko'nikmalarga: axborot manbalariga ongli ravishda murojaat qilish, ularni tahlil qilish, baholash, va zarurat tug'ilganda o'z axborot mahsulotini yaratish kiradi. Aynan shu ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni "mediata'lim" deb yuritiladi.

UNESCO tomonidan mediasavodxonlik va mediata'lim XXI asrda madaniy va ma'rifiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur xalqaro tashkilot bu sohaga alohida e'tibor qaratadi, chunki mediata'lim shaxsning tanqidiy fikrlashi, axborotga nisbatan ongli yondashuvi hamda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Osiyoda media savodxonlik darajasi o'sib bormoqda va Osiyotinch okeani mintaqasida media savodxonlik bo'yicha bir nechta dasturlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekistonda 2021-2022-o'quv yilidan boshlab 10-11-sinf o'quvchilarining „Tarbiya“ darsligiga "Media savodxonlik" bo'limi kiritildi. Respublikaning tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining "Farmatsiya" va "Sanoatda farmatsiya" fakulteti talabalari uchun "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" faniga "Mediata'lim" bo'limi kiritildi. Bundan ko'zlangan maqsad:

- huquqiy demokratik jamiyatimizning to‘laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- axborot orqali inson ongini boshqarishga yo‘l qo‘ymaslik va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- insonning vizual obrazlar ta’siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas ma’lumotlarni “o‘qiy olish”;

Ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali berilayotgan matnli kommunikatsiyalarning mohiyatini tahlil qilish, shuningdek, *axborot qayerdan kelib, kim tomonidan va qanday maqsadlarda uzatilayotgani, kimning manfaatlarini aks ettirayotgani* kabi savollarga javob topish uchun zarurdir.

Bugungi kunda internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy hujumlar butun dunyo davlatlarining milliy xavfsizlik strategiyasining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, bu soha kiberxavfsizlik deb nomlanadi. Sababi, virtual va real dunyo birlashgani sababli, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida virtual makon orqali real haqiqat noto‘g‘ri talqin qilinmoqda. Shu bilan birga, turli salbiy kuchlar tomonidan, dastlab ijobiy ko‘rinadigan, ammo mohiyatan inson ongiga zarar yetkazuvchi axborot tarqalishi ko‘paymoqda. Jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi bunday jarayonlarning oldini olishda aholini mediasavodxon qilish zarurati tobora ortib bormoqda.

Hozirda media sohasini tahlil qilish natijasida tilimizga kirib kelayotgan “mediasavodxonlik”, “mediata’lim”, “medianing o‘rganilishi” kabi tushunchalar bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, olimlar ularning mohiyatan farqini aniqlashga harakat qilmoqdalar. Bizning fikrimizcha, mediasavodxonlik mediata’limning uzviy qismi bo‘lib, uning ko‘rinishlari va qo‘llanilish doirasi kengayib bormoqda. Hozirgi kunda media sohasida axborotni qabul qilish, saralash, tahlil qilish va baholash jarayonlarida mediasavodxonlik bilan birga mediata’lim, medianing o‘rganilishi va mediamadaniyat tushunchalari ham faol qo‘llanilmoqda. Shunday ekan, ular o‘rtasida farq bormi?

Mediasavodxonlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- media o‘quv dasturlariga integrallashgan va fanlararo asosda o‘rganilishi;
- “mediamavzu”ning aniq fan doirasida tahlil qilinishi;
- amaliy ishlar va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashuvni shakllantirish;
- media shakllari, texnologiyalari va axborot uzatish usullarini o‘rganish;
- media agentliklarining ijtimoiy, siyosiy va madaniy roli tahlili;
- talabalarni OAV bilan ishlash ko‘nikmalari bilan ta‘minlash;
- tadqiqot faoliyatini olib borish;
- medianing til va san‘at orqali auditoriyaga ta‘sirini o‘rganish.

Medianing o‘rganilishi (media studies) esa:

- mediani nazariy jihatdan tadqiq qilish;
- qiyosiy tahlil qilish;
- medianing konseptual tarkibini o‘rganish;
- mediamatnlarni tahlil qilish va ularning yaratilish metodikasini o‘rganish;
- ommaviy kommunikatsiya, kinosan‘at va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish;
- jahon OAVining bir-biriga o‘zaro ta‘sirini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Media savodxonlik (media literacy) esa mediata‘limning natijalariga tayangan holda quyidagilarga qaratilgan:

- medianing shaxs va jamiyat hayotiga ta‘sirini anglash;
- ommaviy kommunikatsiya jarayonlarini tushunish;
- mediamatnlarni o‘qish, anglash va tahlil etish;
- media kontekstini chuqur idrok etish;
- mediamatnlarni yaratish va baholash;
- ularni saralash va tanlab olish vazifalarini bajarish.

Mediasavodxonlik talabalarda mediani va savodxonlikni shakllantirib, ma‘naviy estetik va intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli talabalarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish myxim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ular hal etilmaganligicha qolmoqda. Ushbu muammolar ta'limni axborotlashtirish jarayoni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida mutaxassislar tayyorlash va pedagoglarning ushbu texnologiyalardan foydalanish malakasining yetishmasligi bilan bog'liq. Muammolardan biri — pedagoglarning ta'limni axborotlashtirishga bo'lgan munosabatidir. Axborotlashtirish sharoitida pedagogning roli yanada muhimlashadi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya vositalari bilan jihozlanmoqda, bu esa pedagoglardan o'z faoliyatiga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Yangi texnologiyalar o'quv jarayoniga joriy etilganda, o'qituvchi o'z vazifalaridan chetlatilmay, aksincha uning roli o'zgarib, faoliyati yanada murakkablashadi.

Ta'limda mediasavodxonlikni joriy etishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Talabalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining o'ni;
- Auditoriyani aloqa nazariyasi asoslari bilan tanishtirish;
- Ommaviy axborot vositalarini tushunish va qabul qilish qobiliyatini oshirish;
- Axborot vositalarini tahlil qilish, talqin etish, baholash hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- Talabalarning media-kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish.

Mediasavodxonlik usullari quyidagilarga bo'linadi:

- **Bilim manbalari bo'yicha:**

- Og‘zaki (ma’ruza, suhbat, munozara);
- Ko‘rgazmali (mediatekstlarning vizual namoyishlari);
- Amaliy (media materiallarida turli topshiriqlarni bajarish).
- **Kognitiv faoliyat darajasi bo‘yicha:**
 - Tushuntirish (o‘qituvchi tomonidan ommaviy axborot vositalari haqida aniq ma’lumot berish va uni o‘zlashtirish);
 - Reproduktiv (o‘quvchilarga turli mashqlar va topshiriqlar berish, ularni yechish usullarini o‘rgatish);
 - Muammoli (tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarni tahlil qilish);
 - Qisman qidirish yoki evristik (tadqiqot va ijodiy faoliyatni tashkil etish).

Shuningdek, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda ijodiy vazifalarga katta e’tibor qaratiladi.

T.N. Myasnikova o‘zining “Universitet talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish” nomli tadqiqotida mediasavodxonlikni shaxsning media bilan yakka tartibdagi muloqotga tayyorligini ifodalaydigan tushuncha sifatida ta’riflagan. U mediasavodxonlik ko‘rsatgichlarini quyidagicha izohlaydi:

- Media haqidagi an’anaviy va innovatsion bilimlar;
- Media iste’mol qilishda o‘z ifodasini topadigan mediaistemolchilik;
- Analitik va refleksiv malakalar, baholovchi argumentatsiya;
- Mediaraqobat – zamonaviy media muhitining o‘zgaruvchanligini hisobga olish;
- Ta’lim va kasbiy kontekstda mediamatnlarni yaratish va loyihalash.

Etakchi olim A. V. Fedorovning ta’kidlashicha, media kompetensiya — bu insonning motivatsiyasi, bilim darajasi, intellektual salohiyati va qobiliyatlarini, jumladan, motivatsion, kommunikativ, axborotiy, hissiy, interpretatsion-baholovchi, amaliy-operatsion hamda ijodiy faoliyat turlarini o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. Unga ko‘ra, bu qobiliyat ommaviy axborot vositalarini to‘g‘ri tanlash, ulardan samarali foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yangi media mahsulotlar yaratish

hamda jamiyatda kechayotgan murakkab media jarayonlarini anglab yetish imkonini beradi.

D.A. Mezentseva zamonaviy OAV orqali Wiki (Vikipediya) kabi platformalarda foydalanuvchilar birgalikda ma'lumot yaratish, saqlash va tahrirlash imkoniyatiga ega ekanini ta'kidlaydi. Wiki-saytlar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun umumiy ish joyi bo'lib, unda o'quv materiallari joylashtiriladi, uy vazifalari tekshiriladi va baholanadi.

S.S. Babadjonov esa "Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi" nomli dissertatsiyasida pedagog kadrlarning axborot mediamadaniyati nafaqat informatika va axborot texnologiyalari bilimlaridan iborat emasligini, balki rivojlangan axborotlashgan dunyoqarash, media tahlil, media kreativlik malakalarini ham o'z ichiga olishini ko'rsatdi. Bu esa o'qituvchilarning mediakompetentligini kasbiy faoliyat bilan bog'lab, media siyosatni amalga oshirish, o'quv dasturlarga media tushunchalarini kiritish hamda zamonaviy mediatexnologiyalardan foydalanish yo'nalishida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Media savodxonlik, media madaniyat va media tushunchalari yuzasidan turli olimlar tomonidan xilma-xil fikrlar ilgari surilgan. AQShda nashr etilgan *"Jamiyat haqidagi xalqaro ensiklopediya"*da keltirilishicha, "**media savodxonlik**" (**media literacy**) — bu insonning jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, mediamatnlarni anglay olishi, yaratishi, tahlil qilishi va baholay bilishi, shuningdek, zamonaviy medianing ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy mazmunini tushunish qobiliyatidir.

Umuman olganda, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, media savodxonlik — bu shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan har qanday ma'lumotni tanqidiy va tahliliy baholay olish, unga xolisona yondashish, shuningdek, axborotni saralashda ongli qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Bugungi kunda mediasavodxonlikning dolzarbligi shundaki, media tizimlaridan oqib kelayotgan axborotlar inson ongi, psixologiyasi va ma'naviyatiga bevosita ta'sir o'tkazmoqda. Shu bois, ushbu ta'sirning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qila olish, foydali axborotni tanlab olish hamda uni to'g'ri yo'naltirish ko'nikmalarini yosh avlod ongiga singdirish muhim vazifadir. Shu maqsadda

jamiyatda turli media manbalaridan oqib kelayotgan axborot oqimlariga nisbatan “media immunitet”, ya’ni tanqidiy fikrlash va ongli baholash asosidagi mediasavodxonlikni shakllantirish zarur.

Shu nuqtada muhim savol tug‘iladi: **“Mediasavodxonlikni qanday shakllantirish mumkin?”**

Mediasavodxonlik haqida so‘z ketganda ekspertlar shuni qayd etadiki, “ko‘nikmalarning an’anaviy to‘plami kengaymoqda... katta ma’lumotlardan xabardorlik, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, internetda qo‘llaniladigan algoritmlarni bilish, shuningdek, mediaga kirishish va undan chiqish o‘rtasidagi muvozanatga rioya qila olish yangi mediasavodxonlik komponentlari hisoblanadi”. Shu tariqa foydalanuvchining “online” yoki “offline” rejimini tavsiflovchi tushunchalar bugungi kunda insonlararo munosabatlarda va axborot almashinuvida eng muhim signalga aylandi.

Mediasavodxonlik – qaror qabul qilish va ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida axborotni olish, uni tushunish, baholash (munosabat bildirish), saqlash va taqdim etish uchun kerak bo‘lgan ko‘nikmalar yig‘indisidir.

Savol: Mediadan foydalanishda “savodli” bo‘lish tushunchasi nimani anglatadi? Ulardan foydalanish uchun qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lish lozim.



1.3-rasm

Axborot borasida savodxon insonlar tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qila olish, undan o'z fikrini bayon etishda foydalanish, jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlardan xabardor bo'lish talab qilinadi.

Bo'lajak shifokorlarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich o'z-o'zini tahlil qilish asosida shakllantirish mexanizmi quyidagidan iborat bo'ladi:

1. Axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. Bu holatda talabalar ommaviy axborot oqimidan o'z kasbiy faoliyatiga mos keladigan axborotni tanlab oladilar. Ular qaysi axborot muayyan muammoni hal qilishda yordam berishi mumkinligini tahlil qilishadi.

2. Axborot manbalarini aniqlash. Bu jarayonda talabalar o'zlariga zarur axborotni qaysi manbalardan olishlarini aniqlaydilar (internet resurslari, elektron kitoblar, televideniya va boshqalar). Manbalarni tanlab bo'lgach, ular axborotni manbalar turiga qarab birlamchi, ikkilamchi yoki uchlamchi manbalarga ajratadilar.

3. Axborot manzilini aniqlash va izlash. Bo'lajak shifokor o'ziga kerakli ma'lumotni qaysi manzildan olganligini aniqlaydi va axborotni qaysi manzildan izlagan ma'qul? Yordam olish uchun kimga murojaat qilish kerak? kabi fikrlar asosida axborot manbalarini tanlay va izlay boshlaydi.

4. Axborot sifatini tahlil qilish. Axborotning ishonchliligi va haqqoniyligini aniqlash. Buning uchun talabalar yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Ayniqsa, bo'lajak shifokorlar jamiyatda va ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan demokratik jarayonlardan xabardor bo'lishlari kerak.

Qaysi manbalardan olingan axborotlar xaqiqatga yaqin, qaysi manbalardan olingan axborot esa yolg'onga o'xshaydi, ya'ni feyk xabarlar. Olingan ushbu axborotlarni tahlil qiladi, saralaydi, qaysi axborot sifati xaqiqatga yaqin ekanligi to'g'risida fikr qiladi.

5. Axborotni saralash. Talabalar bunda bir nechta axborot manbalaridan olingan axborotni samarali tashkil qilishlari kerak bo'ladi. Odatda axborotni tarqatayotgan manbalar xar doim xam to'g'ri axborot yoki ma'lumotni tarqatmaydilar. Agar axborot tarqatuvchi manba o'zini yomon niyatini amalga oshirmoqchi bo'lsa, u xolda talabalarning o'smirlik davridan o'spirinlik davriga o'tish oralig'ida ularda shakllangan "Men"i, mediaolamga bo'lgan qiziqishlari, orzu-xavaslar og'ushida

virtual olamda sayr qilishlarini xisobga olgan xolda tarqatayotgan axboroti talabalarda qiziqish uyg'otish uchun axborotning psixologik ta'siridan foydalanadilar. Masalan: Xurmatli talabalar!telefoningizga kelgan SMS xabardan so'ng darhol telefon raqamingiz, yashash manzilingiz, qaysi oliy o'quv yurtida tahsil olishingiz va o'zingiz xaqingizda batafsil ma'lumotni kiriting. Siz tomoningizdan kiritilgan o'z xaqingizda kelgan ma'lumotlar qabul qilinganini telefoningizga kelgan maxsus parol orqali bilib oling va ushbu xabarni o'z o'rtoqlaringizga xam tarqating. Ushbu kanalga 100 ta odam qo'shgan talaba "Dunyoga sayohat" turistik kompaniyasining maxsus yo'llanmasiga ega bo'lib, 15 kunlik safar Sizni kutmoqda", -degan axborot tarqatadilar. Chet elga sayoxat qilishni orzu qilgan va tengdoshlari orasida "brend"ga ega bo'lishni xoxlagan talabalar tarhol ushbu xabarni xech ikkilanmasdan, tahlil qilmasdan, orzular og'ushida qabul qilib, faol ishtirokchiga aylanadilar. Natija esa asta-sekin talabalar oliy ta'lim muassasasi xisobxonasiga kirib: "Meni plastik kartamdan pul echib olindi. Iltimos, aniqlab bersangiz" kabi murojaatlar bilan yugurib yurishaveradi.

Shuning uchun xam bu bosqichda talabalarda axborotni saralash ko'nikmasini rivojlantirish muxim xisoblanadi.

6. Odob-axloq me'yorlariga rioya qilish.Talabalar foydalanayotgan axborot manbalari bilan mualliflik huquqlarini buzmagani xolda, o'zaro hurmat asosida muloqat qiladilar.

7. Yangi bilimlar yaratish va ulashish. Bo'lajak shifokorlarda olingan axborot va uni tarqatgan vositalar, ya'ni media yordamida axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirganliklarini, o'z bilimlarini kengaytirish va yangi bilimlar asosida malakalarini rivojlantirganliklarini tushunish va anglash ko'nikmalari bo'lishi kerak.

Nima uchun mediaga murojaat qilganligi, qanday ijobiy natijalarga erishganligi va olgan axborotlari asosida yangi bilimlar olganligini xis qilishlari kerak bo'ladi. Olgan yangi bilimlarini amaliyotga yoki talabalarga etkazish, uzatish, xabardor qilish ko'nikmasi shakllanadi.

Axborot manbalari 3 toifaga bo'linadi:

Birlamchi manbalar – bu original manbalar bo‘lib, ular axborotni izohlamaydi. Bu hisobotlar, original asarlar, qulyozmalar, fotosuratlar, hujjatlar, intervyu bo‘lishi mumkin.

Ikkilamchi manbalar – axborotni etkazib beruvchilar maydoni. Bunda axborot o‘zgarishi, tahlil qilinishi yoki umulashtirishi mumkin. Bu manba doim ham xolis axborotni mujassam etmaydi. Ikkilamchi manba muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Uchlamchi manbalar - o‘zida birlamchi va ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o‘zida mujassamlashgan manbalardir. Masalan: referat, xronologik jadvallar.

Yuqorida keltirilgan ommaviy axborot vositalari o‘zaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar bo‘lib, ular orqali kishilar bir-biri bilan so‘zlashib, turli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo‘lishmoqda. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, o‘z faoliyatlarini amalga oshirib, ma’lumot orttirishmoqda, bilim olishmoqda, tajriba almashilmoqda, savdo kabi tijorat, reklama ishlarini yo‘lga qo‘yishmoqda. Bu albatta har bir sohada aniq ko‘zga tashlanmoqda. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida talabalarimizning mediasavodxonligini shakllantirish, ularning media bilan muloqatini takomillashtirish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Hozirgi kunda media ta’limini har bir ta’lim muassasasining o‘quv dasturiga integratsiya qilish, maktab o‘quvchilariga ta’lim jarayonida uning asoslarini interaktiv usullar va turli o‘yinlar orqali tushuntirish muhimdir. Bu yosh avlodga axborotning tezkor oqimi ichida zarur ma’lumotlarni ajratib olish, ularga tanqidiy yondashish va baholash imkonini beradi. Natijada, bu jarayon yoshlarning kelajakdagi fuqarolik faoliyatini mustahkamlash, global voqea-hodisalarni ob’ektiv baholay olish va ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy xulosa shuki, biz hammamiz media olamida yashaymiz va har kuni media savodxonligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelamiz. Yoshlarga sharoit qiyin bo‘lsa ham, o‘zini qanday tutish va o‘z-o‘zini himoya qilishni o‘rgatish juda muhimdir.

1.3. § Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlanganlik darajalari, mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mamlakatimizda zamon talablariga mos, yuqori intellektual salohiyatga ega, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislarni tayyorlash uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan, ya'ni mediadan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'lim jarayonida media — internet, televideniya, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'zining samarasini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mediasavodxonlik talabalarni mustaqil fikr yuritishga, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasi qanchalik mukammal bo'lsa, ularning dunyoqarashi va intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi. Demak, bo'lajak shifokorlar mediasavodxonlik kompetensiyalarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda samarali qo'llashlari muhimdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining globallashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita mediata'lim bilan chambarchas bog'liqdir.


Mediata'lim barcha ta'lim sohalarini sifat jihatdan yanada yuqori darajaga ko'tarishga, axborot madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni, o'quvchi o'quv jarayonida nazariy bilim olish bilan birga, materiallarni zamonaviy texnologiyalar vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yangilik va ilg'or usullar talabalar qiziqishini uyg'otadi va ularning o'sha mavzularni puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi. Manbalarda qayd etilishicha, YUNESKO qoshidagi kino va televideniya bo'yicha xalqaro kengash 1973 yilda video ta'limga quyidagicha ta'rif bergan: "Mediasavodxonlik deganda pedagogika nazariyasi va amaliyotida ommaviy kommunikatsiya vositalarini o'rganish uchun nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tushuniladi."

Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonligi to'g'risida gap ketar ekan, bir savol tug'iladi: bu har bir alohida kishining media-realligini anglatadimi yoki medianing roli o'zining birinchi darajali ahamiyatini saqlab qoladimi? Boshqacha aytganda, bo'lajak

shifokorlar mediasavodxonlik kompetensiyasiga ega bo'lish orqali talabalar ommaviy axborot vositalaridan himoyaladimi yoki axborotni olish, tayyorlash va tarqatishda talabalarning hamkori bo'ladimi? Ushbu holatda mediasavodli talabaga xos bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Tanqidiy fikrlash — bu axborot va bilimlarni iste'mol qilish jarayoniga oid kategoriya hisoblanadi. Bu sodir bo'layotgan voqealar va hodisalarga tahliliy yondashish, ma'lumotlarni taqqoslash, shubhalanish va savollar berish qobiliyati demakdir. Tanqidiy fikrlash mediamatnlarni o'xshash mavzular va voqealar bilan bog'lashni ham o'z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlash natijasida shaxs mustaqil xulosalar chiqarish, baholash, sharhlash va olingan natijalarni turli vaziyatlar hamda muammolarga mos ravishda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa axborotni faqat iste'molchi sifatida qabul qilishdan ko'ra, faol va ongli auditoriya sifatida munosabatda bo'lishni ta'minlaydi. Tanqidiy fikrlash axborot beruvchilarning manipulyatsiyalariga yo'l qo'ymaydi, shuningdek, oqilona gumonsirash va tahlil qilishni rag'batlantiradi.




1.4-rasm

Mediaga tegishli barcha narsalarni mediamatn kabi tushunchadan alohida ko'rib bo'lmaydi. Bu — mediasavodxonlikni shakllantirishning asosiy vositasi. Mediamatn

bu kontekstdagi tushuncha sifatida tibbiy matn, PR-matn, publitsistik matn, gazeta, tele va radio dasturlari, reklama, internet-OAV materiallari, ijtimoiy tarmoqlar va blog postlarini o‘z ichiga oluvchi ommaviy kommunikatsiya mahsuli sifatida tahlil qilinadi. Mediamatnning asosiy xususiyatlari orasida ommaviylik (nafaqat media mahsulotlarini yaratish, balki ularni iste‘mol qilish jarayonida ham), integratsiyalashuv va shaffoflik mavjudligi ko‘zda tutiladi. Shu asosda, media iste‘moli insonning OAV bilan ongli munosabatlarini shakllantirishni bildiradi va natijada mediasavodxonlik rivojlanadi. Ushbu jarayon davomida inson axborot bilan faol aloqaga kiradi va unga ta‘sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, mediasavodxonlik ko‘nikmalarini egallash jarayonida — axborotni qabul qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholashni o‘rganish orqali shaxs, xususan bo‘lajak shifokorlar, nafaqat yangi bilimlarga ega bo‘ladi, balki o‘z professional faoliyati hamda hayotining boshqa sohalarida samarali bilim olish va qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Bo‘lajak shifokorlar tibbiyotga doir axborotni izlash, tizimlashtirish va undan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlarining kengayishi bilan yanada samarali va maqsadga muvofiq ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.



1.5-rasm

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida bo'lajak shifokorlar mavjud bilim va tajribalariga suyanib qolmay, balki yangi ma'lumot va faktlarning ta'siri ostida o'z qarashlarini qayta baholash va moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu juda muhim jihatdir, chunki biz iste'molchi tomonidan axborot bloki haqida so'zlamayapmiz, balki mavjud ma'lumotlarni anglash va qayta ko'rib chiqishni ta'kidlayapmiz. Bu jarayon auditoriyaning qarashlari va nuqtai nazarini o'zgartirishga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, mohiyatan farq qiluvchi ikki turli yo'nalishni ajratish zarur: mediata'lim (media education) va mediani o'rganish (media studies). Media masalalarini boshqa fanlarning o'quv dasturlari va rejalariga kiritish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ommaviy kommunikatsiya vositalarining madaniy ahamiyatini ochib berish hamda turmush sifatini yaxshilash maqsadida media bilan samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirish — bularning barchasi mediata'lim sohasiga taalluqlidir. Shu bilan birga, nazariy va konseptual jihatlar mediani chuqur o'rganish va tahlil qilishga oid sohalarga tegishli hisoblanadi.

Umuman olganda, mediasavodxonlik kompetensiyalarini egallashda quyidagi bilimlarni o'zlashtirish zarur: axborotni izlash, uni tahlil qilish, to'g'ri baholash va ishlab chiqarish. Ushbu ko'nikmalar insonning media bilan o'zaro hamkorligini yaxshilab qolmasdan, muammolarni anglash, tanqidiy fikrlash va ularni samarali hal qilishga, shuningdek, hayotiy vaziyatlarni hal etishga ko'maklashadi.

Media bilan hamkorlik qilish davomida hozirgi zamonaviy bo'lajak shifokorlar doimiy ravishda axborotga jalb qilinadi va u bilan bo'lishadi, yangi onlayn-savodxonlikka kirishadi. Bu o'rinda so'z hatto o'ziga xos raqamli etiket haqida bormoqda. Axborot makonida harakatlana olish layoqati zarur ko'nikmaga aylanmoqda. Mediasavodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lgan talaba mediamatnlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlariga ega bo'ladi, ulardagi ijtimoiy -madaniy va siyosiy kontekstlarni tushuna oladi. Mediasavodxonlik quyidagi ko'nikmalardan iborat bo'ladi: mediamatnlar mazmuni va ularning ta'sirini tushunish, ularni saralash; mediamatnlarda keltirilgan hissiy va asoslangan axborotlarni ajrata olish; media matnlar haqida tanqidiy mulohaza Yurita olish; media janrlarini farqlash.

SHunday qilib, mediasavodxonlik har bir talabada mediamahsulotlar va axborotlar bilan ishlashda ijodiy yondashuv, muloqot qilish ko‘nikmasi, tanqidiy fikrlash, axborotlar orqali uzatilayotgan asosiy maqsadlarni va yashirin g‘oyalarni aniqlash, mediamahsulotlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash, axborotlarni filtrlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bizning maxsus tadqiqotimiz doirasida bo‘lajak shifokorlarning asosiy ko‘nikmalarini axborot manbaalari bilan o‘zaro faoliyat olib borishga, axborotni qayta ishlash va taqdim etishning to‘g‘riligi, axborotni izlash, uni tahlil qilish, to‘g‘ri baho bera olish va ishlab chiqarish, virtual muloqotning o‘ziga xos xususiyatlariga qaratish zarur. Bunda bo‘lajak shifokorlar tibbiy axborotlarni qidirishda shakllanishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalarga to‘xtalib o‘tamiz. Bizning tajriba- sinov ishimizda o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash, Internet resurslari va ularning imkoniyatlarini muhokama qilish orqali amalga oshirilgan tadbirlar va loyihalarni amalga oshirish samaradorligini tahlil qilishda refleksiyaning tashkil etish ushbu meyorlarni interiorizatsiyalashning zarur elementidir. Bo‘lajak shifokorlar uchun odatiy shu bilan birga oddiy ko‘nikmalarga ehtiyoj bor. Mediasavodxonlikni qanday shakllantirish mumkin? Buning uchun dastlab odatiy ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi bosqich. Avvalom bor bo‘lajak shifokorlar axborot yoki ma’lumotlarni elementar tekshirish zarur bo‘ladi. Masalan, avvalo, bo‘lajak shifokorlar axborot manbaini tekshirishni tavsiya etiladi. Ya’ni, agar talaba tibbiyot sohasidagi biror yangilik, xabar yoki veb-sayt yoki ilovaga duch kelsa, avvalo so‘rash kerak: manba kim? Buni kim chop etmoqda? Hatto uzoq vaqtdan beri ishonchli deb kelayotgan tibbiy manba bo‘lsa ham, asosiy manbani aniqlashga harakat qilish zarur. Chunki uydirma, o‘ylab topilgan yangiliklar tarqalishi ham mumkin. Bunday holatlar kam emas. Yoki bu ishonchsiz, shubhali akkaunt bo‘lishi mumkin. Ana shunday akkauntlarni aniqlashni o‘rganish juda muhim. Masalan, g‘alati ismlar, avatarning yo‘qligi, fotosuratlarining noaniqligi, xabarlarining ko‘p marta qayta ulashilishi — bular shubhali belgilar hisoblanadi. Bunday akkauntlar odatda kam fotosurat bilan cheklanadi va do‘stlarining akkauntlarida ham ularning

fotosuratlari mavjud bo'lmashligi mumkin. Shu sababli, masalaga prinsipial yondashib, har doim asosiy manbani topishga intilish kerak.

Ikkinchi bosqich. Bu bosqichda bo'lajak shifokorlar ma'lumotni kim tarqatganiga e'tibor berinsh muxim xisoblanadi. Bu ba'zi xollarda qandaydir g'alati akkaunt yoki sayt bo'lib chiqishi mumkin. Masalan, bo'lajak shifokorlar lazer nurlari yordamida davolashning samarali usuli-laproskopik jarroxlik amaliyoti xaqida axborot qidirishayotganda bu axborotni tarqatayotgan odam o'zi jarroh va laproskopik jarohlik amaliyotini bevomita o'zi amaliyotga qo'llagan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa ushbu mavzu bo'yicha umuman biror narsa qidirishga harakat qilib qshirish kerak. Biz odatda talabalar bilan bu haqda suhbatlashamiz. Ha, ular ijtimoiy tarmoqlarni juda yaxshi bilishadi, ular bu kabi tarmoqlarda post yozishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin, ammo negadir ular hali ham Google va yandeks borligini unutishmoqda. Shu ma'lumotdan nusxa olib uni internetdagi qidiruv tizimiga qo'yishning o'zi kifoya. Qidirish mexanizmi ushbu ma'lumotlar dastlab joylashtirilgan saytlarning ro'yxatini topadi.

Uchinchi bosqich. Bo'lajak shifokorlarda har bir axborotga nisbatan shubhali va tanqidiy munosabatni rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu yerda gap tanqidiy fikrlash haqida bormoqda, u salbiy ma'noda emas, balki sog'lom skeptitsizmni anglatadi: "Nima uchun men bu ma'lumotni yozgan odamga ishonishim kerak? Balki uni tekshirib ko'rish lozimdir." Tanqidiy fikrlash jarayonida bo'lajak shifokorlar mavjud bilim va tajribalariga suyanib qolmay, yangi faktlar va axborot asosida o'z qarashlarini qayta baholashga qodir bo'ladi. Ushbu jihat alohida e'tibor talab qiladi. Bu yerda biz faqat axborot iste'molchisi nuqtai nazaridan gapirmayapmiz, balki mavjud ma'lumotlarni anglash, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish jarayonini ta'kidlaymiz.

Bu jarayon auditoriyaning qarashlari va nuqtai nazarini o'zgartirishga olib kelishi mumkin. O'rinda media iste'molchining axborot voqeligini to'ldiruvchi qo'shimcha kanal sifatida ko'riladi, ya'ni mediamahsulotlarni tahlil qilish va ularga tanqidiy yondoshuv jarayonida odamlar axborotni qayta baholashni o'rganadilar.

Umuman olganda, bo‘lajak shifokorlar talaba sifatida mediasavodxonlik bo‘yicha quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

1. Telefon va kompyuterdan foydalanish:

- Qurilmalarning tarixi va ularning foydali hamda zararli jihatlarini bilish.
- Telefonning ishlash prinsiplari va undan samarali foydalanish usullarini o‘rganish.

2. Internet va ijtimoiy tarmoq bilan ishlash:

- Internetning mohiyati, xabarnoma, ijtimoiy tarmoq hamda telefon suhbatlarida qo‘llaniladigan til birliklari va ularning imlosi haqida bilish.
- Ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlik qoidalarini rioya qilish, ehtiyotkorlik va ogohlik.

3. Axborot xavfsizligi:

- Elektron axborotlarni tanlash, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.
- Telefon va kompyuterlarda xavfsizlik, axborot uzatishda ehtiyotkorlikni ta‘minlash.

4. Media ko‘nikmalari va tanqidiy fikrlash:

- Rost va yolg‘on axborotlarni farqlash, soxta axborotlardan himoyalash, ularning huquqiy oqibatlarini haqida bilish.
- Yolg‘on axborotlarning maqsadini anglash, tanqidiy tahlil qilish va axborot urushiga qarshi kurashish.

5. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot odobi:

- Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot odobini shakllantirish, noo‘rin chiqishlar va munozarali vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun ehtiyotkorlik.

6. Zamonaviy texnologiyalar va media vositalaridan to‘g‘ri foydalanish:

- Raqamli olam va raqamli media vositalaridan samarali foydalanish, texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini egallash.
- Dasturchilik kasbi haqida ma‘lumot olish va sohaga oid til birliklarini shakllantirish.

7. Soxta axborot va shov-shuvlar:

- Ijtimoiy tarmoqlarda soxta axborotlardan himoyalaniş, shov-shuv ortidan quvmaslik.
- Pul topishning zamonaviy yo‘llari, blogerlik, onlayn marketing kabi zamonaviy tendensiyalarni tushunish va ulardan foydalanish.

8. Muammolarni hal qilish va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitet hosil qilish:

- Soxta axborotlarni tahlil qilish, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish.
- Media-makonda axborot olish va tahlil qilish, soxta xabarlardan himoyalaniş va ularning salbiy ta’siridan himoya qilish.

Bo‘lajak shifokorlar bu ko‘nikmalarni egallash orqali nafaqat o‘z kasbiy faoliyatlarini yanada takomillashtiradilar, balki zamonaviy texnologiyalar va media vositalari yordamida axborot olish, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlariga o‘rgatiladi. Bu esa ularga dunyoqarashlarini kengaytirishga, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

-Virtual messenjerlar va ulardan turli ekstremistik oqimlarning foydalanishi;

-O‘zbekistonda axborot xurujlarining oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar havfida bilish;

-Internetda saqlanayotgan axborot manbaalarining xavfsizligi muammolari, kiberxavfsizlik haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, mediasavodxonlikni rivojlantirish zarur.

Bo‘lajak shifokorlarda rivojlantirilishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalarga to‘xtalamiz.

Tanqidiy tahlil ko‘nikmalari: Bu ko‘nikmalar bo‘yicha bo‘lajak shifokorlar turli tahliliy vositalardan foydalanib, media kontentini chuqur tahlil qilish va uning ahamiyatini tushunish qobiliyatini rivojlantiradilar. Ular media vositalari orqali olingan axborotni turli aspektlardan tahlil qilib, haqiqiy va soxta axborotni farqlash, uning manbasini aniqlash va muhimligini baholashda malakali bo‘lishadi. Rang-barang mediakontent va janrlarni o‘rganish orqali bu ko‘nikmalar yanada

takomillashadi, chunki har bir media turi o'ziga xos metodologiyalar va uslublarga ega, bu esa shifokorlarni turli xil axborot vositalarini tahlil qilishda yuqori malakaga ega qilishga yordam beradi.

1. **Interfaollik ko'nikmalari:** Bu ko'nikma media vositalarida muloqot qilish va turli media rollarni bajarish orqali namoyon bo'ladi. Bo'lajak shifokorlar media vositalarida o'z fikr va qarashlarini samarali ifoda etish, turli platformalarda va kontekstlarda o'zaro aloqada bo'lish ko'nikmalarini egallashadi. Interfaollik shifokorlarning fikrlarini ochiq va aniq ifoda etishga, shuningdek, muhokama va fikr almashishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi. Bu ko'nikmalarni ta'lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin, masalan, talabalar tibbiyot mavzularida interfaol darslar, forumlar yoki muhokama guruhlarida faol ishtirok etishlari mumkin.

2. **Estetik va kreativ ko'nikmalar:** Bu ko'nikma bo'lajak shifokorlarda media kontentni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ular tibbiyot sohasida axborot taqdimoti, vizual materiallarni yaratish va media orqali ma'lumotlarni to'g'ri taqdim etish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Media kontentni yaratish orqali talabalar estetik va kreativ ko'nikmalarini shakllantiradilar, chunki yaxshi ishlab chiqilgan media materiallar shifokorlarning maqsadli auditoriyaga samarali yetkazilishiga yordam beradi. Shifokorlar tibbiyot mavzularini media orqali taqdim etishda vizual va estetik yondashuvlarni qo'llash orqali eng samarali axborot taqdimotini yaratadilar.

Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish bo'lajak shifokorlarga zamonaviy ta'lim va tibbiy axborotlarni samarali tarzda o'rganish, baholash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvlar orqali ularni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

3. **Xavfsizlik ko'nikmalari.** Bo'lajak shifokorlarda bu ko'nikma murakkab vaziyatlardan chiqish va ularni oldini olish qobiliyatida namoyon buladi. Virtual makondan xavfsiz foydalanish, shaxsiy makonni himoya qilish hamda zararli kontent va muloqotdan voz kechishni nazarda tutadi.

Tajriba-sinov ishining maqsadi bo'lajak shifokorlarning mediasaodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda o'lchov mezonlarini belgilashga ko'plab yondashuvlar mavjud. Bizning qarashimizga ko'ra,

eng samarali usul bilim va ko'nikmalarni egallash darajasini yuqori bosqichga ko'tarish orqali nisbiy va etarli darajadagi ishonchli xarakteristikani (tavsifni) o'lchashdir. (L.S.Vigotskiy ,V.V.Davidov, A.N.Leontev, A.Y.Nain, V.A.Slastenin va boshqalar). Shu fikr asosida quyida keltirilgan mezonlarga muvofiq mediasavodxonlik kompetensiyasini shakllantirishning uchta darajasini (past, o'rta, yuqori) aniqladik.

Tadqiqotimiz doirasidan kelib chiqib, yuqorida keltirilgan ko'nikmalarga muvofiq tarzda bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan ularda quyidagicha bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligiga ishonch hosil qildik:

1. Yuqori daraja –respondentlar media haqidagi tushunchalarga ega bo'lib, mediakontentni ijodiy tarzda aniqlash, yaratish va talqin qilish qobiliyatlariga ega. Ular media vositalaridan foydalanib turli xil media kontentni anglash va uning ahamiyatini tushunish imkoniyatiga ega. Shuningdek, interfaollik ko'nikmalari yordamida mediaga nisbatan o'z fikr va qarashlarini ravon ifoda etishga tayyorliklari mavjud. Murakkab vaziyatlardan chiqish va ularni oldini olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari, vaqtni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasining shakllanganligi bilan birga, ular mediasavodxonlik darajasining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi.

2. O'rta daraja – respondentlarning media haqidagi asosiy tushunchalarga ega bo'lishi, mediakontentni ijodiy tarzda aniqlash, yaratish va talqin qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, media vositalaridan foydalangan holda turli xil media kontentni talqin qilish va uning ahamiyatini tushunishlari, lekin interfaollik ko'nikmalari orqali mediaga nisbatan o'z fikr va qarashlarini ifoda etish qobiliyatlari yetarlicha shakllanmaganligi, murakkab vaziyatlardan chiqish va ularni oldini olish ko'nikmasining sustligi, vaqtni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasining past darajada bo'lishi, mediasavodxonlik darajasining o'rta ekanligini ko'rsatadi.

3. Quyi daraja – respondentlar media haqida asosiy tushunchaga ega bo'lishiga qaramay, mediakontentni ijodiy tarzda aniqlash, yaratish va talqin qilish qobiliyatlari yetishmaydi. Shuningdek, ular media vositalaridan foydalanib turli media kontentni to'liq anglash va uning ahamiyatini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, interfaollik ko'nikmalari orqali mediaga nisbatan o'z fikr va qarashlarini ifoda etish

qobiliyatlari shakllanmaganligi, murakkab vaziyatlardan chiqish va ularni oldini olish ko'nikmasining sustligi, vaqtni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasining past darajada bo'lishi, mediasavodxonlik darajasining past ekanligi bilan belgilanadi.

Tajriba-sinov ishlarimiz davomida mediasavodxonlik kompetensiyasining shakllanish darajasini baholash uchun, biz uni baholash mezonlarini aniqladik.

Motivatsion-qadriyat mezonini axborot faoliyati va o'zaro faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sabablarining (rag'batlari, motivlarining) shakllanganlik darajasini aks ettiradi. U sodir bo'layotgan media hodisalari va jarayonlarining mohiyatini belgilab, jamiyatda axborot tarqatish qonunlari va qonuniyatlarini, axborotning shaxsga ta'sirini bilishga imkon beradi. Shu bilan birga, axborotning rolini nazariy jihatdan ta'lim va madaniyat kontekstida tushunish imkonini yaratadi. Bu mezon bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarining shakllanish darajasini aks ettiradi. Bo'lajak shifokorning mediasavodxonlik kompetensiyasi ijtimoiy zaruriy anglash darajasi sifatida, shaxsning ijtimoiylashuvi va jamiyatda turli funksiyalarni bajarishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi. Mediasavodxonlik kompetensiyalarining rivojlanish jarayonida shakllanadigan savodxonlik, shaxsni o'rab turgan axborot muhitida uning umumiy va maxsus orientatsiyasini (yo'nalishini) ta'minlovchi media tushunchalarining faol tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Kognitiv mezon axborot va axborot faoliyatining ijtimoiy mohiyatini, ularning dialogikligini, shaxsning o'zi, o'zining kuchli va zaif tomonlari haqidagi bilim darajasini, ulardan foydalanish va kompensatsiya qilish usullarini, axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy bilimlarning ma'lum bir miqdorini o'zlashtirganlik va fikrlashning axborot uslubining shakllanganlik darajasini bilish darajasi orqali ifodalanadi. Bu mezon, shaxsning axborot muhitida faoliyat yuritish qobiliyatini va ularning axborotni qayta ishlashdagi fikrlash jarayonlarini qanday rivojlantirganligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu mezon, axborot texnologiyalari va bilimlarni amalda qo'llashni o'rganishning sifatini va axborot jarayonida to'g'ri qarorlar qabul qilishni ta'minlashdagi muhim rolini aks ettiradi.

Fikrlashning (tafakkurning) axborot uslubi axborotning sifat tomonini baholash,

axborot to'plamidan ishonchli ma'lumotlarni tanlab olish, ularni mavjud axborotlar bilan taqqoslay olish qobiliyatida; tanqidiy qayta fikrlab chiqish (tushunish, ko'rib chiqish), zanjirning etishmayotgan bo'g'inlarini yig'ish va kengaytirish (ochish), muqobil variantlarni baholashda oqilona, axloqiy-etik va estetik mezonlarini hisobga olingan ma'lumotlarni to'g'ri talqin qila olishda namoyon bo'ladi. Axborotni tahlil-sintez jihatdan qayta ishlash metodlarini o'zlashtirganlik talabalarning arining fikrlash axborot uslubining muhim ko'rsatkichidir.

Kognitiv axborot faoliyati va muloqotning usullari hamda vositalarini o'zlashtirganlik darajasi, zamonaviy jamiyatning axborot madaniyati sohasidagi bilimlar darajasi, axborot bilan ishlashda salomatlikni asraydigan texnologiyalarni o'zlashtirganlik va ulardan foydalanish darajasi kabi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkichlar, shaxsning axborotni samarali qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatishdagi qobiliyatini hamda o'z salomatligini asrash uchun zarur texnologiyalarni qanday qo'llashini ko'rsatadi. Bu mezonlar, kognitiv rivojlanish va axborot muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlashga yordam beradi.

Axborot faoliyati usullari va vositalarini o'zlashtirganlik darajasi axborot faoliyati jarayonining o'zi bilan ifodalanadi (xarakterlanadi) va axborot manbalari haqidagi bilimlar va zarur axborotni izlashda ulardan foydalanish malakalari asosida shakllanadi.

Ushbu ko'rsatkich — kompyuter texnologiyalaridan moslashuvchan va ongli foydalanish malakasi, axborot makonida o'z maqsad va xatti-harakatlarini mustaqil tanlay olish qobiliyatidir. Bu, shuningdek, axborot faoliyati hodisalari va mahsulotlarini baholashda yuqori darajadagi kompyuter savodxonligini ifodalaydi. Jarayon davomida mavjud axborot manbalari (internet, televizor, radio, audio-video yozuvlar, telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqalar)dan samarali foydalanish, mediavositlardan zarur axborotni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash va xavfsizligini ta'minlash talab etiladi.


Bundan tashqari, mediamadaniyatga — tibbiy media matnlarini tahlil qilish, baholash va yaratish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga —

rioya qilish muhimdir. Bo‘lajak shifokorlar kundalik faoliyatida kasallik tarixi, kompyuter tomografiyasi natijalari, kasallik simptomlari, elektron poliklinika ma’lumotlari, telemeditsina orqali xorijiy hamkasblar bilan konsilium o‘tkazish, videokonferensiyalar uchun tezislar yozish kabi hujjatlar bilan ishlashni bilishi va amalda qo‘llay olishi zarur.

Kognitiv (hatti-harakat, xulq-atvor) mezon xulq-atvorning axborot faoliyati va o‘zaro faoliyat meyorlari va qoidalariga muvofiqlik darajasi, o‘z axborot faoliyatining maqsadini tanlashda va unga erishishda onglilik va mas’uliyat hissi darajasi, o‘z axborot faoliyati maqsadlariga erishishda faollik va mustaqillik darajasi, axborot hodisalari va jarayonlarini baholash darajasi orqali ifodalanadi. Bu ko‘rsatkichlar yordamida har bir insonning jamiyatda sodir bo‘layotgan axborotlashish (informatizatsiya) jarayonlariga nisbatan munosabatlari tizimidagi ehtiyojlari, ularni o‘z harakatlari bilan himoya qilish va tasdiqlash ehtiyojida amalga oshadi. Aksiologik xarakterdagi axborot faoliyati, mulohaza qilish (refleksiya) va o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish jarayonida baholash bilimlari va orientatsiyalar (hatti-harakat yo‘nalishlari) asosida e’tiqodlar tizimi va qadriyat ustanovkalarida (oldindan belgilangan hatti-harakatlar, maqsadlar va vazifalar) ifodalanadi. Shu bilan birga, individual xulq-atvor meyorlari va faoliyat metodlari tizimi shakllanadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari (video, mobil telefonlar, CD, DVD, kompyuter, internet) orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan "tanqidiy munosabatda bo‘lish" deganda, biror narsani tanqid qilishni emas, balki bizga taqdim etilayotgan axborotni tanqidiy tahlil qilishni, ushbu axborotning haqqoniyligini aniqlashni, unda yashirin ma’noda berilayotgan manipulyativ elementlarni topishni tushunishimiz kerak.

Komponentlar bir birlari bilan dialektik birlikda bo‘lib, o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiradi. Motivatsion-qadriyat, kognitiv va instrumental-faoliyatli komponentlar shaxsning asosiy sohalarini aks ettiradi, kognitiv komponent esa shaxsning shakllangan axborot madaniyatining tashqi ifodasi sifatida tushuniladi.

Bo‘lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantiruvchi ushbu mezonlar asosida bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.



1.6-rasm.Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish modeli

Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish modeli mazmun-mohiyati o'z ichiga o'quv jarayonini, darsdan tashqari mustaqil ishlarni, tibbiy ma'lumotlarni qidirish orqali bilimlarni oshirishni, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni, shuningdek, talabalarda jamoatchilik nazorati tizimini yo'lga qo'yishni oladi. Bu vazifalar ta'lim muassasasining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'limda faoliyatga asoslangan yondashuvni, amaliy yo'naltirilgan interfaol o'qitish metodlarini qo'llashni ko'zda tutadi. Ushbu kompetensiya natijasi sifatida tushuniladi.

Mazkur model jarayoni doirasida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda mediaolam bilan muloqot qila olishi, madaniyatlilik sifatlarining rivojlanishi, o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi orqali tajriba-sinov bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishni namoyon etdi.

II.BOB. BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

2.1. § Talabalarining mediasavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish

Bugungi kundagi fan-texnika taraqqiyoti, axborotning keskin ortib borishi bilan bog‘liq globallashtirilgan davrda ta‘lim-tarbiya sohasida ilg‘or tajribalar, innovatsion yondashuvlar va yangiliklarni joriy etishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bu esa pedagoglardan darslik va o‘quv qo‘llanmalaridagi berilgan materiallarni qiziqarli qilib etkazib berish barobarida, talabalarga motivatsiya beradigan, fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradigan, talabalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatadigan ma‘lumot-lardan samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Chunki bugungi kundagi talabaning atrof-olamga munosabati, fikrlashi, dunyoqarashi, jamiyatdagi o‘rnini topishi, umuman shaxs sifatida shakllanishida ta‘sir qiladigan tashqi omillar shu qadar ko‘pki, ularning ichidan kerakli ma‘lumotlarni ajratib olish, mavjud axborotlar bazasidan samarali foydalanish masalasi global muammoga aylanmoqda. Ushbu muammoning birgina echimi esa talabalarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish xisoblanadi.

“Kompetensiya” va “Kompetentlik” tushunchalari ilmiy adabiyotlarga nisbatan yangi kirib kelgan atamalar hisoblanadi. Angliyalik olim D. Xayms tomonidan “kompetentlik” tushunchasi ilgari surilgan bo‘lsa, amerikalik lingvist N. Xomskiy o‘zining “Sintaksis nazariyasi aspektlari” asarida kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqni shunday ta‘riflaydi: “Kompetensiya – bu insonning o‘z tilini bilishi, gapirishi va eshitishi, ya‘ni til bilimining nazariy qismi; kompetentlik esa – tilni real holatlarda qo‘llay olish qobiliyatidir.” Shu bilan birga, kompetensiya insonning qandaydir faoliyatni bajarish qobiliyati sifatida ham talqin qilinadi.

Kompetensiya atamasi dastlab ishbilarmonlik sohasiga kirib kelib, unda kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan bog‘liq bo‘lib ishlatilgan. Keyinchalik, ushbu tushuncha ta‘lim sohasida ham keng qo‘llanila boshlandi. Muloqot jarayonida

kompetensiya va uning kategoriyalari ilmiy-metodik jihatdan ishlab chiqila boshladi. Shu jarayonda kompetentlik tushunchasiga “tayyor bo‘lmoq”, “layoqat” kabi ma’nomalar berilib, uning psixologik sifatlari — “javobgarlik”, “ishonch bilan harakat qilish” kabi jihatlar aniqlangan.

Ko‘plab olimlar va mutaxassislar kompetensiya va kompetentlik mavzusida o‘z fikrlarini bildirishgan. Masalan, J. Raven “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” nomli asarida kompetentlik ko‘plab mustaqil bo‘lgan komponentlardan tashkil topganini, ularning bir qismi kognitiv, boshqalari esa his-tuyg‘ular bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Bu komponentlar birgalikda insonning o‘zini samarali boshqarishiga xizmat qiladi. XXI asr ta’limi uchun Evropa kengashining J. Delor tomonidan ilgari surilgan “Ta’lim — yashirin xazina” konsepsiyasida ta’lim to‘rtta asosiy ustunga tayangan: bilishni o‘rganish, bajarishni o‘rganish, birgalikda yashashni o‘rganish va yashashni o‘rganish. Delor bajarishni o‘rganish orqali nafaqat kasbiy malaka, balki guruhlarda samarali ishlash va murakkab vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, “kompetentlik” termini ko‘pincha “malakalar bazasi” sinonimi sifatida ham ishlatiladi. B. Oskarson fikricha, kompetentlik keng qamrovli bo‘lib, kasbiy xislatlarga qo‘shimcha ravishda jamoada samarali ishlash, rejalashtirish, muammolarni echish, ijodiy yondashuv, peshqadamlik, tadbirkorlik, tashkilotchilik va kommunikativ ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Kompetentlik tushunchasining ta’lim kontekstida qo‘llanilishi bo‘yicha ham keng ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, A. K. Markova mehnat psixologiyasi nuqtai nazaridan kasbiy kompetentlikni alohida predmet sifatida o‘rgangan, o‘qituvchilar kompetentligiga esa L. A. Petrovskaya, N. V. Kuzmina va L. P. Alekseev kabi olimlar e’tibor qaratgan.

Shuningdek, YUNESKO hujjatlarida ta’limdan kutiladigan natijalar sifatida bir qancha tayanch kompetensiyalar aniqlanib, ular orqali ta’limni isloh qilish va talabalar muvaffaqiyatini oshirish masalalari ko‘tarilgan. Bern shahrida Evropa kengashi tomonidan o‘tkazilgan simpoziumda ham tayanch kompetensiyalarni

belgilash orqali ta'lim va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish muhimligi ta'kidlangan.

V. Xutmaxer o'z ma'ruzalarida kompetensiya tushunchasi ko'nikma, kompetentlik, qobiliyat va mahorat kabi tushunchalar bilan bir qatorda ishlatilishini qayd etar ekan, uning mazmuni hali to'liq ochib berilmaganligini ta'kidlaydi. U kompetensiyani "bilamanki, nima..." emas, balki "bilamanki, qanday..." degan ma'noda tushunish kerakligini aytadi. Shuningdek, V. Xutmaxer Evropa kengashi tomonidan qabul qilingan va "Evropa yoshlari ega bo'lishi kerak bo'lgan" tayanch kompetensiyalarni ham tushuntiradi.

Biz tadqiqotimizda bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda tayanch kompetensiyalar etib B.Oskarson tomonidan taklif etilgan bo'lajak shifokorlarning maxsus kasbiy xislatlariga qo'shimcha ravishda rivojlanib boradigan tayanch kompetensiyalar: jamoada samarali xamkorlikda ishlash, axbrotlar bilan ishlash, muammolarni echish, ijod qilish, tadbirkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni belgilab oldik. Bugungi axborot asridagi talaba, kechagidan o'zining qo'yayotgan talablari, dunyoqarashi, yangilikka bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi bilan keskin farq qiladi. Zero, bu davr o'ziga yarasha zaruriy zamonaviy talablarni, ya'ni barcha sohalarda raqobatbardoshlikni taqozo etadi. Raqobatbardosh komil inson tarbiyasi esa davlat tomonidan qo'yilayotgan DTS talablari. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv, talabalarda o'qishga, u yoki bu fanga qiziqishlari, istaklarini, ya'ni motivatsiyasini uyg'otish orqali amalga oshiriladi .

Bo'lajak shifokorlarda "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fanidan global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo'yicha qidirishni talabalarga etkazishda, dastlab ularning darslarga bo'lgan o'quv motivatsiyasini oshirish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kundagi ta'limga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri ham talabalarga ular olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda shartli ravishda 6 ta tayanch faniga oid

kompetensiyalar tanlab olingan. Mazkur kompetensiyalarni har bir darsda doimiy ravishda shakllantirib borish talab etiladi. Buning samarali omillari sifatida o'qituvchining har darsga ijodiy yondashuvi, fan o'qituvchisining yuqori kompetentligi hamda talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini — ya'ni qiziqish, xohish, istak va ixlosni oshirish zarurati alohida ta'kidlanadi.

1. Jamoada samarali xamkorlikda ishlash kompetensiyani shakllantirish metodi.

Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo'yicha qidirish" mavzusida bo'lajak shifokorlar global tarmoq haqida umumiy tushunchalar, uning mahalliy va lokal tarmoqlardan farqli jihatlarini eshitish, gapirish, tinglash orqali o'z fikrini og'zaki aniq va tushunarli bayon qila olishlari, global tarmoqning media olamida tutgan o'rni va ahamiyati, internet saytlarida global tarmoq bilan ishlovchi domenlarni bir -biri bilan aloqa almashinish, birini fikrini biri to'ldirish orqali ularning jamoaviy ishlashni tashkil qilishadi. Global tarmoqning boshqa tarmoqlar bilan aloqadorligini, mavzuga oid terminlarning boshqa tillarda nomlanishini bilishi va o'z bilimiga asoslangan holda, boshqalar fikrini hurmat qilgan holda qat'iy fikrga ega bo'lish, turli muammoli vaziyatlarda o'z bilimi, ko'nikma va malakalariga tayangan holda, har bir tarmoq, sayt, domenlar haqida tushunchalar asosida qaror qabul qila olish orqali bo'lajak shifokorlarda jamoada samarali ishlash, ya'ni hamkorlikda ishlash kompetensiyasi shakllanadi.

2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish metodi.

Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo'yicha qidirish" mavzusini o'rganish jarayonida tibbiy va biologik axborot manbalarini topish, tanlash hamda ulardan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, global tarmoqdan foydalanish qoidalari, kompyuter tarmoqlari va ularni boshqarish, internet asoslari, xususan, internetning inson hayotidagi ahamiyati va kundalik turmushdagi qo'llanilishini tahlil qilish orqali mazkur kompetensiya yanada rivojlanadi. Masalan, "Kompyuter tarmoqlari

haqida umumiy tushuncha bo'lib, quyidagi turlari mavjud: maxsus kommunikatsion asbob-uskunalar va dasturiy ta'minotlar yordamida bir-biri bilan o'zaro axborot almashinish imkoniyatiga ega tugunlar (uzellar) majmuasidir" kabi ma'lumotlar beriladi, hamda talabalarga yangi axborotlarni eslash va izlab topish vazifasi beriladi.

Masalan : Kompyuter tarmoqlarini tasniflash usullaridan:

1. Axborotlarni uzatish texnologiyasiga qarab; 2. (Kompyuter tarmoqlarini axborotlarni uzatish xususiyatiga qarab, tasniflashni davom ettiring) degan vazifa beriladi. Talabalar o'zlari yangi axborotni izlab topadilar va davom etadilar:

2. Uzellar o'rtasidagi kommutatsiya turiga qarab;
3. Axborotni uzatish tezligiga qarab;
4. Ierarxik tashkil topishiga qarab;
5. Axborotlarni uzatish muhitiga qarab;
6. Xizmat qo'rsatish doirasiga qarab.

Xar bir to'g'ri ma'lumotni topgan talaba rag'batlantiriladi. Dars jarayonini bunday tashkil qilinishida bo'lajak shifokorlarda axborotlar bilan ishlash, axborot manbasini to'g'ri topish, saralash, axborotni to'g'ri qidirish kompetensiyasi shakllanadi.

3. Ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirish metodi

Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik ma'lumotlarni mavzular bo'yicha qidirish" mavzusida talabalar yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida umumta'lim maktabidagi oldingi bilimlari hamda media va internet resurslaridan olingan ma'lumotlarga tayangan holda bilim darajalarini oshiradilar. Bo'lajak talabalar har kuni internet tarmoqlarida ma'lumot qidirish, axborotni uzatish texnologiyalari, qidiruv metodlari va keng ko'lamli axborotni yetkazish usullari bilan bog'liq ilgari o'rgangan tajribalari va bilimlarini amalda qo'llaydilar. Shu jarayonda ular masalalarni mustaqil ravishda tahlil qilish va intellektual yondashuvni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

4. Muammolarni echish kompetensiyasini shakllantirish metodi

“Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo‘yicha qidirish” mavzusi bo‘yicha muammo talabalar ixtiyoriga xavola qilinadi. Bu jarayonda talabalarga global tarmoqdan samarali foydalanish, tibbiy va biologik axborotlarni to‘g‘ri izlash, tanlash va tahlil qilish vazifasi yuklanadi. Ular internet manbalaridan foydalanib, tibbiyot sohasidagi eng so‘nggi ilmiy ma‘lumotlarni izlash, to‘g‘ri tanlash va ularni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Shuningdek, talabalar uchun axborotlarni izlash, filtrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaollik va amaliy topshiriqlar tashkil etiladi. Bu o‘z navbatida, ularning mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu vaziyatda bo‘lajak shifokorlar global tarmoqda axborot qidirishning afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr yuritadilar. Axborot qidirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolardan chiqish yo‘llari xususida fikr bildiradilar. Masalan: Axborotlarni uzutish bir rangli tarmoq(одноранговый сеть) va ajratilgan server (С выделенным сервером) da amalga oshiriladi. Bir rangli lokal tarmoqda barcha kompyuterlar bir xil mavqega ega. Tarmoqdagi ixtiyoriy kompyuterga qo‘shimcha qurilma ulash mumkin. Masalan: printer. Bir rangli tarmoqning kamchiligi unda server xizmati mavjud emasligi, 10 dan ortiq ishchi stansiyalar bilan ishlashga samarali natija bermasligi, ishchi stansiyalarning dasturiy ta‘minotini o‘zgartirish va yangilash qiyinligi, axborotlarning kuchsiz ximoyasi kabi kamchiliklari ushbu tarmoq bilan ishlashda muammo tug‘diradi.

Ajratilgan server (С выделенным сервером)da kompyuterda kuchli protsessor, katta operativ xotira va vinchester o‘rnatilgan bo‘ladi. Shuningdek, barcha tarmoq foydalanuvchilari uchun dasturiy ta‘minotlarning asosiy qismi va ma‘lumotlar



bo‘ladi. Bundan tashqari axborotlarni yuqori tezlikda qayta ishlash, boshqaruvning osonligi, axbrotlarning ishonchli ximoya sistemasiga ega ekanligi bilan foydalanishga qulaydir. Lekin bu tarmoq orqali axborotlarni qidirish va axborotlarni uzatishda u ajratilgan server sababli tarmoqdan foydalanish o‘ta qimmat turadi. Bu esa talabalar uchun muammo tug‘diradi.

2.1-rasm

Bo‘lajak shifokorlar bu vaziyatda muammodan chiqish yo‘lini xal etish uchun echim izlaydilar: Demak, qidirilayotgan axborotni xajmi, ommaviyligi qarab qaysi xolatlarda bir rangli tarmoqdan, qaysi xolatlarda ajratilgan serverdan foydalanish mumkinligi haqida fikr yuritib, bu muammodan echim topadilar. Shunday qilib bo‘lajak shifokorlarda mummolardan chiqish kompetensiyasi shakllanishiga erishiladi.

5. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodi

“Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo‘yicha qidirish” mavzusida bo‘lajak shifokorlar global tarmoqda qidirish kerak bo‘lgan tibbiy ma’lumotlar haqida, biologik axborotlarning asosiy xossalari, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini eshitish, gapirish orqali o‘z fikrini og‘zaki aniq va tushunarli bayon qila olishlari, tibbiy va biologik axborotlarning tabiatdagi va inson organizmidagi ahamiyati, tashxislash va davolashda tutgan o‘rnini yozish orqali ularning yozma nutqi shakllanadi, tibbiy va biologik axborotlarning fanlar bilan aloqadorligini, mavzuga oid tibbiy va biologik terminlarning boshqa tillarda nomlanishini bilishi va o‘z bilimiga asoslangan holda, boshqalar fikrini hurmat qilgan holda qat’iy fikrga ega bo‘lish, turli muammoli vaziyatlarda, o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalariga tayangan holda, har bir tibbiy va biologik hodisa, tushuncha va qonuniyatlar asosida qaror qabul qila olishi orqali bo‘lajak shifokorlarda ushbu kompetensiya shakllanadi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak shifokorlarda kommunikativ kompetensiyada: og‘zaki va yozma nutqini mukammal oshira borish; tuzilgan savollarga yozma va og‘zaki javob yoza olish; o‘z fikrini aniq va tiniq bayon eta olish; qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash va ulardan foydalanib test va savollar tuza olish;

guruhlarda ishlay olish, o'z fikrini himoya qilish, ishontira olish; muammolarni hal qilishda o'zini o'zi boshqara olish, ona tilidan tashqari, horijiy tillarni ham o'zgartirishi lozim. Bo'lajak shifokorlarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun: axborot bilan muntazam ishlash; matn ustida ishlash ko'nikmasi; mavzudan foydalanib savollarga javob topish; amaliy topshiriqlarni bajara olish; internet tarmog'idan foydalanish xaqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari zarur.

6. Tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish metodi.

“Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo'yicha izlash” mavzusida bo'lajak shifokorlar tibbiy va biologik ma'lumotlarni turli veb-saytlar, tarmoqlar va kanallardan topishga majbur bo'ladilar.

Bunday xollarda bo'lajak shifokorlar foydalanayotgan tarmoqqa kirish narxi, qidirilayotgan axborotning qimmatiga va xavfsizlik nuqtai nazardan ximoyalangan pulli saytlardan foydalanishda tadbirkorlik kompetensiyasi zarur bo'ladi. Qidirilayotgan axborot xajmi, axborotni uzatish, internet tarmog'idan foydalanish uchun xam trafiklar ma'lum narxlar talab qiladi. Demak, bo'lajak shifokorlar axborotni ahamiyati, tezkorligi, mahalliy yoki xalqaro ahamiyatga ega ekanligi, qidirilayotgan ma'lumot rus, ingliz, o'zbek tilida kerakligini xisobga olgan xolda qidiruv tizimlarini o'zlari tanlaydilar. Ikkinchi tomondan, bu vaziyatda moliyaviy tadbirkorlikdan tashqari, vaqt nuqtai nazardan xam tadbirkorlik ko'nikmasi zarur. Qidiruv tizimlari xaqida mustaxkam bilimga ega talaba kerakli axborotni 10 minutda 6 ta topa olsa, bilimi o'rtaroq talab esa 10 minutda 2 ta axborot izlab topishi mumkin. Talaba tadbirkor bo'lishi mumkinmi? Degan savol tug'ilishi tabiiy. Buyuk olimlar tarixiga qarasak, ularda tadbirkorlik ko'nikmasi borligi tufayli xam buyuk bo'lishgan ekan. Tadbirkorlik bu erda qaysi ma'noda ishlatiladi? Bu vaziyatda talaba vaqtdan unumli foydalanish nuqtai nazaridan tadbirkorlikni ko'rish mumkin ekan. Demak, bir soat ichida 1 ta natijaga emas, bir soat ichida 5 ta natijaga erishish. Vaqtdan, resurslardan, mediadan foydalanib, kam vaqt sarflab, ko'p axborotga ega bo'lish demakdir. Masalan, ayrim talabalar

soatlab internet tarmoqlarida vaqtini bekor sarflaydilar. Tibbiy yoki kerakli bilimga emas, balki ko‘proq ko‘ngilochar ma’lumotlar, ijtimoiy tarmoqlarda tanishuvlar bilan vaqtlarini o‘tkazadilar. Tadqiqotimiz doirasida 2023 yil 14 oktyabrda “Davolash ishi” fakulteti talabalaridan “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazdik. “Siz shu bir hafta davomida ijtimoiy tarmoqda, mediaolamda qaysi axborot eng ko‘p shov-shuv bo‘ldi, deb o‘ylaysiz? degan savolga 78,3 foiz talaba “Sergeli tumanidagi omborxonada yuz bergan portlash” deb javob bergan bo‘lsa, 9,3 foiz talaba “Xitoyning Xanchjou shahrida bo‘lib o‘tgan 19-Osiyo o‘yinlari bo‘lib o‘tmoqda” degan javobni berishgan. 12,4 foiz talaba esa ““Antistrimin” yod preparatining nojo‘ya ta’sirlari tufayli bolalar o‘rtasida sodir bo‘lgan zaharlanish” degan javobni berganlar. Bundan ko‘rinadiki, talabalar ko‘p vaqtini bilim olishga emas, qiziqarli xabarlar bilan tanishishga sarflaydilar. Ilm tadbirkorligida bo‘lajak shifokor ko‘p vaqt sarflab, kasbiy faoliyatiga tegishli bo‘lmagan axborot bilan shug‘ullanishdan ko‘ra, kam vaqt ichida natijaga erishishlari mumkin. Bu vaziyatda bo‘lajak shifokorlarda tadbirkorlik kompetensiyalari shakllanadi.

Internet o‘smirlar hayotida alohida o‘rin tutadi. Internet orqali video ko‘rish, o‘yin o‘ynash, ayniqsa, o‘g‘il bolalarga qiziqarli. Ular, shuningdek, ta’lim jarayoni uchun muhim axborotlarni ham izlashadi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlar har kuni internetda minimum 3 soat vaqt o‘tkazishadi. Internetga kirish vositasi shaxsiy smartfon. Ular kiradigan bazalar ichida ta’limiy, ko‘ngilochar va havaskorlik guruhlari mavjud. Bolalar va o‘smirlarning internet bilan o‘tkazadigan vaqtining asosiy qismini YouTube egallaydi. Bu videoresursning bolalar va o‘smirlar qiziqishiga moslasha olishi, unda tavsiya etiladigan videolar qismi borligi qiziqishni yanada oshiradi. Ular orasida auditoriya e’tiborini tortishda blogerlar katta o‘rin tutadi. Ayniqsa, «prikollar», «chellenjlar», «byuti» (qizlar uchun), videoo‘yinlar va sayohatlar qiziqarli. Filmlar, seriallar faol tomosha qilinadi, o‘g‘il bolalarni ko‘proq o‘yinli mavzular qiziqtiradi. Bosma ommaviy axborot vositalarining ham bolalar uchun mo‘ljallangan kontenti faol ishlab turibdi. O‘zbekistonda yoshlar aholining katta qismini tashkil etishi,

ularning mediamahsulotlarni faol iste'mol qilayotganligi media, axborot bilan munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratishni taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi qonuni bolalarning axborot bilan munosabati, media iste'molini tartibga soladi.

Talabalarga tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda darslarga qo'yiladigan talablar

Mediasavodxonlik kompetensiyasi butun oliy ta'limning amaliy tavsifining kuchayishini taqozo etadi. Bunda o'qituvchi ham o'z ishini o'zgartirishiga to'g'ri keladi. Bosh vazifa talabalarga mustaqil ravishda bilimlarni oshirishga o'rgatishni, tashabbus ko'rsatishni, jamoada yashash va o'qish ko'nikmalari shakllanishi kerak. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda jamiyatga ma'lumotli, axloqli, yangiliklarga qiziqadigan insonlar zarur. U quyidagi xislatlarga ega bo'lishi zarur: o'z xatti-harakatlarini tahlil qila bilishi; barcha harakatlarining oqibatlarini tahlil qila oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan bo'lishi zarur; tezkor ishlashi; hamkorlikda ishlay olishi; mamlakatning taqdiri, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan gullab yashnashi uchun javobgarlikni his etishni tarbiyalash lozim.

Mediasavodxonlik kompetensiyachini rivojlantirishga asoslangan standart talabida talabalarni atrof-olamni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishdan, foydali axborotlarni izlash, hayotda qo'llash uchun o'z tayyorgarligini kuchaytirish lozim. SHunga ko'ra, zamonaviy darsga tayyorlanishi va uni o'tkazishda o'qituvchi va talaba faoliyati o'zgaradi. Ma'lumki, ko'p tarqalgan dars turi aralash dars, uni zamonaviy talabalar nuqtai-nazaridan o'zgarishlari mohiyatini ochaylik.

Darsga qo'yiladigan didaktik-metodik talablar.

1-jadval

Darsga qo'yiladigan didaktik talablar	An'anaviy dars	Zamonaviy dars
Dars mazmunini e'lon qilish	O'qituvchi tomonidan aytiladi	Talabalar tomonidan shakllantiriladi
Maqsad vazifalarini aytish	Talabalar nimani o'rganishlari o'qituvchi tomoni-	Talabalar nimani bilishlari va nimani bilmasliklarini

	dan shakllantiriladi va aytiladi	anglagan holda o'zlari shakllantiradi
Rejalashtirish	O'qituvchi talabalarga maqsadga erishishlari uchun qanday ishni bajarishlari kerak ekanligini aytadi	Ko'zlangan maqsadga erishish metodlarini talabalar tomoni-dan rejalashtiriladi
Talabalarning amaliy faoliyati	O'qituvchi rahbarligida talabalar tomonidan bajariladi	Talabalar belgilangan reja asosida o'quv faoliyatini amalga oshiradilar
Nazoratni amalga oshirish	O'qituvchi va talabalar tomonidan bajariladigan amaliy ishlarni nazorat qiladi	Nazoratni talabalar amalga oshiradilar (o'z-o'zini va o'zaro nazorat qiladilar)
Talabalarni baholash	O'qituvchi talabalarni dars davomida baholaydi	Talaba o'zi va o'rtog'ining faoliyatini baholaydi
Darsni yakunlash	O'qituvchi talabalardan nimalarni eslab qolganini so'raydi	O'zaro savol-javob asosida

Yuqorida keltirilgan ikki xil dars turlarini tahlil qilganda, ularning bir-biridan farqi asosan o'qituvchi va talabalar faoliyatining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Talabalar imkon qadar mustaqil ravishda o'qishlari lozim. O'qituvchi esa talabani yo'naltirib, materiallar taqdim etishi zarur, bu orqali tizimli va maqsadli faoliyat amalga oshiriladi. O'qituvchi dars jarayonini boshqarib, talabani rag'batlantirishi va ilhomlantirishi kerak, shunda o'qish jarayoni samarali bo'ladi.

O'qituvchi zamonaviy tipdagi darsni tayyorlash uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak. Maqsad va vazifalarni aniqlab olish. O'quv material-larini mazmunini ajratib olish. O'qitish metodikasini tanlash. Nazorat metodlarini aniqlash.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan didaktik talablar:

Jihozlangan fan xonasida dars o'tish; darsning mavzusini, maqsad-vazifalarini belgilab, talabaning faoliyatini rejalashtirishi kerak; dars muammoli va rivojlantiruvchi bo'lib, o'qituvchi talaba hamkorlikda ishlashi lozim; muammoli va izlanuvchan vaziyatlarni tashkil qilib talaba faoliyatini faollashtiradi; talabaning o'zini xulosa chiqarishga odatlantirish.

Tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish uchun quyidagi ta'lim texno-logiyasini tanlash mumkin. Talabalarda tayanch kompetensiyani shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlashda o'quv fani o'qituvchisi taqvim-mavzu uchun tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Agar talaba dars jarayonida eshitib, uni tushunib olgan bo'lsa, bu yaxshi. Bunday bo'lmagan bo'lsa-chi? Talaba ma'ruza, laboratoriyalarni nafaol holatda qabul qilsa, u rivojlana olmaydi. SHaxsiy harakat kelajakda talabaning mustaqil-ligining shakllanishiga asos bo'la oladi . Demak, ta'limiy vazifa talaba harakatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish lozim. Bunda talaba o'qituvchi yordamida o'z predmetini topadi, ularni tadqiq etadi, turli o'quv faoliyatini shakllantiradi. Agar talaba intellektual qobiliyatli bo'lsa, yangi sharoitlarda dadil qadam bilan oldinga intilsa, u o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi.

2.2. § Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish

Axborot asrida fan va texnika sohalarining rivojlanishi nihoyatda yuqori darajaga ko'tarildi. Shunga mos ravishda barcha sohalar ham tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz biror soha faoliyatini tasavvur qilish deyarli imkonsiz. Ayniqsa, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda bu texnologiyalar muhim omilga aylanmoqda. Elektron aloqa vositalari, internet va sun'iy yo'ldoshlar aynan ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan tezlikda rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmonga muvofiq, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, turli tarmoqlar va sohalarda — xususan, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tibbiyot sohasida xalqaro andozalarga mos keng miqyosdagi o'zgarishlar, jumladan, elektron poliklinikalar, telemeditsina, onlayn ko'ruvlar va videokonferensiyalar orqali tibbiy ma'lumotlarni qidirish, bo'lajak shifokorlardan mediasavodxonlik kompetensiyasini talab qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish ta'lim metodlarining samaradorligini oshiradi, talabalar mehnat faoliyatining mazmunan yangilanishiga va ularning kasbiy mahoratini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu holat pedagogik tizimlarning tarkibiy tuzilmasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda ta'lim jarayonini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda yangi vazifalarni yuzaga keltiradi.

Hozirgi davrda fanlarni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter texnologiyalari talabalarni shaxsga yo'naltirilgan holda rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Talabalar bu texnologiyalardan nafaqat metodik materiallar tayyorlashda, balki tibbiyotga oid axborotlarni izlash va tahlil qilishda ham samarali foydalanmoqdalar.

Shuningdek, videokonferensiya texnologiyasi asosidagi masofaviy o'qitish usuli yuqori sifatli kanal va maxsus qurilmalarni talab qilgani sababli, boshqa masofaviy o'qitish usullariga nisbatan moliyaviy jihatdan ko'proq mablag' talab etadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ta'lim tizimida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, **masofaviy ta'lim texnologiyalari** yosh avlodning shaxsiy kompyuter va mobil qurilmalardan erkin foydalanish ko'nikmalariga, shuningdek, har bir ta'lim muassasasining internetga ulanish darajasi hamda foydalanuvchilarning tarmoqdagi ma'lumotlardan samarali foydalanish madaniyatiga bevosita bog'liqdir.

Mazkur mavzuni tahlil qilish jarayonida, avvalo, masofaviy ta'lim bo'yicha **xalqaro tajriba** va **asosiy didaktik tushunchalarni** ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda tez-tez qo'llanadigan "elektron o'qitish", "masofaviy ta'lim texnologiyalari", "mediata'lim" kabi tushunchalar o'rtasida

muayyan o‘xshashliklar mavjud bo‘lishiga qaramay, ular orasida mazmuniy farqlar ham mavjud. Shu bois, quyidagi savollar dolzarb hisoblanadi:

- Bu tushunchalar bir-birini to‘liq almashtira oladimi?
- Ularni umumlashtirib, yagona modelga keltirish mumkinmi?
- Har biri qanday pedagogik maqsadlarni ko‘zlaydi?

“Masofaviy o‘qitish” atamasi ilk bor 1892-yilda AQShning Viskonsin shtati Universiteti tomonidan sirtqi (korrespondentlik) ta‘lim shaklida qo‘llanilgan. Ushbu davrda “masofaviy” deganda o‘qituvchi va o‘quvchi geografik jihatdan turlicha makonda bo‘lsa-da, ta‘lim jarayonini o‘quv materiallari asosida tashkil qilish tushunilgan. Shu sababli bu model “korrespondentlik ta‘limi”, “uyda o‘qish” kabi nomlar bilan ham yuritilgan.

XX asr oxirlariga kelib, texnologik taraqqiyot ta‘lim shakllarini sezilarli darajada o‘zgartirib yubordi. Internet texnologiyalarining rivojlanishi va global kompyuter tarmoqlari orqali ta‘lim berish imkoniyatlari kengaygani sari, masofaviy ta‘lim yangi bosqichga ko‘tarildi.

Masofaviy ta‘limga oid xalqaro qarashlar turlicha bo‘lishiga qaramasdan, ularning asosiy mohiyati quyidagicha umumlashtiriladi:

Amerika Masofaviy O‘qitish Assosiasiyasi mutaxassislariga ko‘ra, masofaviy o‘qitish — bu ta‘lim oluvchi va o‘qituvchining turli geografik hududlarda bo‘lgan holda, elektron vositalar, internet resurslari va nashr qilingan o‘quv materiallari orqali ta‘lim jarayonini tashkil qilishdir.

Ushbu ta‘rifdan kelib chiqib, masofaviy ta‘lim quyidagi asosiy belgilarga ega:

- **Masofa** – ishtirokchilar o‘rtasida geografik uzoqlik mavjud;
- **Vositalilik** – ta‘lim jarayoni texnologik vositalar yordamida amalga oshiriladi;
- **Moslashuvchanlik** – o‘quvchi o‘ziga qulay vaqtda ta‘lim olishi mumkin;
- **Interfaollik** – yangi vositalar orqali o‘qituvchi bilan muloqot davom etadi.

Masofaviy o‘qitish konsepsiyasiga oid nazariy qarashlar turli mamlakat olimlari tomonidan chuqur o‘rganilib, uning asosiy belgilarini ochib berishga harakat qilingan. Xorijlik mutaxassislar “**distance education**” tushunchasini talqin etishda bu ta’lim shaklining ikki muhim jihatini alohida ta’kidlaydilar:

1. O‘quv materiallarining nashr shaklida yoki video/audiosifatida taqdim etilishi,
2. Zamonaviy texnika vositalari orqali masofaviy muloqot va aloqa jarayonining tashkil etilishi.

Ushbu ikki asosiy belgi masofaviy ta’limning o‘ziga xosligini belgilab beradi va uni an’anaviy ta’limdan farqlaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi (tyutor) va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar bevosita emas, balki media va texnologik vositalar orqali amalga oshiriladi.

MDH olimlarining yondashuvlari

Masofaviy ta’lim tushunchasi bo‘yicha MDH davlatlari olimlari ham bir qator ilmiy-analitik izlanishlar olib borgan. Jumladan:

- E.S. Polat masofaviy ta’limni – tyutor va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamda o‘quvchilarning o‘zaro o‘zaro faoliyati masofaviy tarzda, maxsus internet texnologiyalari yoki interfaol vositalar orqali amalga oshiriladigan o‘quv jarayoni deb ta’riflaydi. U, shuningdek, masofaviy ta’limning barcha tarkibiy qismlari: maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl va vositalarini o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi.
- A.A. Andreev esa mavjud ta’riflarni umumlashtirib, masofaviy o‘qitishni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik media vositalar orqali amalga oshiriladigan, makon va vaqt bo‘yicha invariant, maxsus didaktik tizimda kechadigan interfaol o‘quv jarayoni sifatida izohlaydi.
- V.P. Tixomirov va hamkorlari masofaviy o‘qitishni – tyutor va o‘quvchi turli joylarda joylashgan bo‘lib, keys-texnologiyalar, televizion texnologiyalar va internet tarmog‘i imkoniyatlari asosida ta’lim berish shakli deb baholaydilar.

- M.V. Moiseyeva o‘z izlanishlarida masofaviy ta’limni sirtqi ta’limning yangi shakli sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, bu shaklda kompyuter telekommunikatsiyalari, ommaviy axborot vositalari (media)ning faol qo‘llanilishi, shuningdek, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasida faol axborot almashinuvi ko‘zda tutiladi.

Umumlashtirilgan yondashuv

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, masofaviy o‘qitish – bu:

O‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalar) masofadan turib, tyutor bilan o‘quvchi o‘rtasida media va internet texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan, interfaollik, avtonomlik va texnologik vositalardan foydalanish tamoyillariga asoslangan ta’lim shaklidir.

Bu ta’rifda asosiy urg‘u quyidagilarga qaratiladi:

- **Interfaollik** – ishtirokchilar o‘rtasidagi ikki tomonlama muloqotning mavjudligi;
- **Texnologik vositalar** – internet, platformalar (LMS: Moodle, Google Classroom, va h.k.), video konferensiya vositalari (Zoom, MS Teams);
- **Didaktik yaxlitlik** – an’anaviy ta’limning barcha tarkibiy elementlari saqlab qolinadi, faqat format o‘zgaradi;
- **Makonga va zamonga bog‘liq emaslik** – o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqalar real vaqt (synchronous) yoki kechiktirilgan vaqt (asynchronous) rejimida kechishi mumkin.

Masofaviy ta’lim kunduzgi o‘quv muassasalarida o‘qiy olmagan yoki boshqa shahar va mamlakatlarda tahsil olish imkoniga ega bo‘lmagan shaxslar uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Talaba uyda bo‘lgani sababli, o‘qish vaqtini va tezligini o‘zi belgilaydi. Shu bilan birga, u mustaqil ravishda bilim olishi mumkin, lekin istalgan vaqtda Internet orqali o‘qituvchidan yordam oladi. Masofaviy ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, o‘qituvchi onlayn rejimida bilim berishi mumkin va talaba veb-chat, IRC, ICQ, interaktiv televidenie, veb-telefoniya, Telnet kabi vositalar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qiladi.

Shuningdek, asenkron usul ham mavjud bo‘lib, bunda talaba topshiriqlarni bajaradi, materiallarni bosma shaklda yoki disk, CD, audio va video kassetalarda, veb-forumlar, veb-sahifalar va Usenet yangiliklarida o‘rganadi. Sirtqi ta’limdan farqi shundaki, sirtqi ta’limda barcha talabalar uchun umumiy dars rejasi, imtihon va diplom olish muddati belgilangan bo‘ladi, individual yondashuv esa mavjud emas. Shu bilan birga, barcha kasb va bilimlarni masofaviy o‘qish orqali olish mumkin emas. Masalan, ijodiy faoliyat turlarini (musiqa asbobi chalish, qo‘shiq aytish, rasm chizish, raqs tushish) mustaqil ravishda o‘rganish qiyin.

Masofaviy ta’lim zamonaviy va nisbatan arzon usul sifatida rivojlanmoqda. U korporativ, universitet yoki shaxsiy shaklda tashkil etilishi mumkin. Masofaviy ta’lim orqali bo‘lajak shifokor keng auditoriyaga bilim berishi yoki o‘rganishi mumkin. Internetning rivojlanishi bilan masofaviy ta’lim tobora ommalashmoqda. Endi talaba tibbiy ma’lumot olish uchun kutubxonaga borish shart emas, u barcha materiallarni elektron pochta yoki universitet veb-saytidan olishi mumkin.

Masofaviy ta’limning afzalliklari — ish va o‘qishni birlashtirish imkoniyati, bo‘sh vaqtni samarali ishlatish; kamchiligi esa kursdagi ma’ruzalarining faqat qisman bilim berishi (taxminan 25%) bo‘lishi.

Elektron ta’lim — bu axborot va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro faoliyatni ta’minlashdir. U elektron axborot-ta’lim muhitida ta’limning barcha jarayonlarini o‘z ichiga oladi va mediasavodxonlik ko‘nikmalarini talab qiladi. Elektron ta’lim uchun virtual muhit yaratish zarur bo‘lib, bu ta’lim resurslariga kirish va pedagoglar bilan faoliyatni tashkil qilish imkonini beradi.

Media texnologiyalari asosida o‘qitish — bu multimedia va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida yangi zamonaviy ta’lim usuli. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi media vositalarini yaratdi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar masofaviy ta’lim, ommaviy axborot vositalari, Internet

tizimlari (ERP, CRM) kabi sohalarda qo'llanilmoqda. Multimedia texnologiyalari foydalanuvchi bilan samarali muloqotga yordam beradi, an'anaviy o'qitish usullarini zamonaviy vositalar bilan almashtiradi. Interfaol doskalar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Talabalar ma'lumot bilan faolroq muloqot qilishlari mumkin, bu esa o'quv materialini chuqur tushunishga yordam beradi. Zamonaviy multimedia texnologiyalarining muhim tarkibiy qismlaridan biri-bu vizual texnologiyalar sohasidagi yangiliklardir. Virtual axborotning rivojlanishi axborot bilan o'zaro ta'sir qilish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Virtual ta'lim texnologiyalari foydalanuvchilarga virtual olamlarga sho'ng'ish, o'rganish, o'yin-kulgi va virtual sayohat uchun noyob tajribalar yaratish imkonini beradi. Zamonaviy multimedia texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirdi, talabalar uchun samarali va chuqur o'rganish imkoniyatlarini yaratdi. Bu texnologiyalar ta'limni yangi bosqichga olib chiqdi va o'quv jarayonini fundamental tarzda o'zgartirdi.

Multimedia vositalari — bu apparat va dasturlar majmui bo'lib, ular insonga turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalar yordamida kompyuter bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Multimedia texnologiyalarining afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqaylik:

- Turli xil ko'rinishdagi katta hajmdagi axborotlarni bitta diskda saqlash imkoni mavjud (bir nechta bobli matnlar, minglab yuqori sifatli tasvirlar, bir necha soatlik filmlar va roliklar, tovushli axborotlar);
- Ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularning eng qiziqarli va kerakli qismlarini kattalashtirish imkoniyati;
- Grafiklar, tasvirlar va rasmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning ko'rsatkichlarini hisoblash, ilmiy yoki o'rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlov berish imkoniyati;

- Tasvir yoki tasvirni yoritishda foydalanilgan matn hamda boshqa axborotlardan kalit soʻzlar yoki kerakli qismlarni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;
- Statik yoki dinamik tasvirlarga mos musiqa va boshqa audio materiallarini olib borish imkoniyati;
- "Stop-kadr" (kadrni toʻxtatish) funksiyasidan foydalanib videoyozuv lavhalarini tahlil qilish;
- Global Internet tarmogʻiga ulanish va uning resurslaridan hamda foydalanuvchilaridan foydalanish imkoniyati;
- Grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborotlar va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy dasturlar bilan ishlash imkoniyati.

Yuqorida sanab oʻtilgan afzalliklar va xususiyatlardan tashqari, multimedia tizimlari tasvirlarni yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda koʻrish, tanlangan joylarni saqlab qolish va belgilab qoʻyish imkoniyatlarini taqdim etadi. Multimedia texnologiyalarining paydo boʻlishi axborot texnologiyalarining rivojlanishiga, ilmfan, taʼlim, savdo (biznes) va tibbiyot sohalarida keng qoʻllanilishiga turtki boʻldi.

Boʻlajak shifokorlarda asosan bemorga tashxis qoʻyish apparatlarini (MRT, MSKT, kompyuter tomografiyalarini) tahlil qilishda multimedia vositalari asosida oʻqitish katta ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalarining multimedia vositalari boʻlajak shifokorlarning kasbiy faoliyatida foydalanishning quyidagi eng muhim jihatlari alohida eʼtiborga loyiqdir:

- **Differensial va individual oʻqitish jarayonini tashkil qilish:** Multimedia vositalari yordamida har bir talabaga individual yondashuvni taʼminlash mumkin, bu esa oʻquv jarayonini samarali va interaktiv tarzda olib borish imkoniyatini yaratadi.
- **Oʻqish jarayonini baholash, teskari aloqa bogʻlashi:** Multimedia texnologiyalari oʻquvchilarning faoliyatini baholash, ularning qobiliyatlarini kuzatish va teskari aloqa olishda samarali ishlatiladi.

- **O‘zini-o‘zi nazorat qilish va tuzatib borish:** Talabalar o‘z o‘rganish jarayonini nazorat qilish va kerak bo‘lganda to‘g‘rilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- **O‘rganilayotgan bemor organini keng namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko‘rsatishi:** Multimedia vositalari yordamida bemor organlarining tuzilishi, ularning ishlash jarayonlari va kasalliklarining rivojlanish dinamikasi real va interaktiv tarzda namoyish etiladi.

- **Bemor organlarini tekshirishda va namoyish etishda animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi texnologiyalardan foydalanish:** Animatsiya va boshqa grafik vositalar yordamida bemor organlarining tizimli va aniq tasvirlarini yaratish imkoniyati, o‘quvchilarga murakkab jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi.

- **Kasallik tarixi haqida bilimlarni o‘zlashtirish uchun strategik ko‘nikmalar hosil qilish:** Multimedia texnologiyalari yordamida talabalar kasalliklarning tarixini o‘rganishda samarali metodlarni qo‘llashlari mumkin, bu esa ularning kasbiy ko‘nikmalarini oshiradi.

Multimedia vositalarining amaliy tomoni bo‘yicha, ularni bo‘lajak shifokorlarning davolash ishlarida qo‘llash va kelgusida davolash jarayoni uchun ma’lumotlar bazasini yaratish hamda animatsion taqdimotlar qilish katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonini yanada samarali qiladi.

Multimedia texnologiyalari bo‘lajak shifokorlarning kasbiy rivojlanishida samarali foydalanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridir. Ularning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- **Kasalliklarning xilma-xil turlari:** Multimedia texnologiyalari an’anaviy (matn, statistik jadvallar, dinamikalar va boshqalar) va original (nutq, musiqa, videofilmlar, animatsiya va boshqalar) materiallarni bir dasturiy mahsulotda integratsiyalash imkonini beradi. Bu integratsiya axborotni turli qurilmalarda ro‘yxatdan o‘tkazish va aks ettirishni osonlashtiradi.

- **Statik va dinamik axborot:** Matn va grafikadan farqli ravishda, audio va video signallar faqat vaqtinchalik ko‘rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni qayta ishlash uchun maxsus tezkor protsessorlar va katta sig‘imli tashqi xotira kerak.

- **“Shifokor-kompyuter” interaktiv muloqoti:** Bu texnologiya shifokorga kasalliklar haqida keng va aniq ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi, bu esa bemorlarni sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlash va kasalliklarni erta aniqlashda yordam beradi.

- **Multimedia vositalari asosida tashxis qo‘yish:** Bemor haqidagi kadrlarni qayta tayyorlash va aniq tashxis qo‘yish hozirgi kunda tibbiyotning dolzarb masalasiga aylangan. Kasalliklarni erta aniqlash va operativ davolashni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun multimedia texnologiyalari katta rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, multimedia texnologiyalari bo‘lajak shifokorlar uchun zamonaviy o‘qitish va davolash usullarini taqdim etishda muhim vosita hisoblanadi, bu esa tibbiyot sohasidagi kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Lekin afsuski, bu boradagi ishlar samarasi kutilgan natijani bermayapti. Bemorlarga noto‘g‘ri tashxis qo‘yish oqibatida kasalliklar erta aniqlanib, davochoralari erta qo‘llanilmaganligi oqibatida bemorlar orasida o‘lim ko‘rsatkichlari keskin oshib ketmoqda. Bo‘lajak shifokorlar kasbiy faoliyatida mediadan to‘g‘ri va ijobiy foydalanishlari uchun esa mediasavodxonlik kompetensiyalari rivojlangan bo‘lishligi eng muxim omillardan biri xisoblanadi.

Masofadan o‘qitish bu Internet tarmog‘i orqali sizga qulay bo‘lgan vaqtda o‘qishdir. Masofadan o‘qitishning tarkibiy belgilari: o‘qituvchi, talaba, kommunikatsiyadir.

Masofadan o‘qitish uslubiy materiallari o‘quv jarayonini yanada samarali qilish uchun turli xil vositalardan foydalanishni ta'minlaydi. Ushbu materiallar o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi, ayniqsa media texnologiyalari asosida o‘qitishda. Masofaviy o‘qitish va elektron ta’lim uchun quyidagi uslubiy materiallar mavjud:

- **Darsliklar:** An'anaviy darsliklar, masofadan o'qitishda ham muhim vosita bo'lib, o'quvchilarga asosiy bilimlarni taqdim etadi.
- **Audio va video darsliklar:** Audio va video materiallar, o'quvchilarni vizual va eshitish orqali o'rgatishga yordam beradi, bu esa o'rganish samaradorligini oshiradi.
- **Onlayn darslar (Internet sahifalari):** Internetda joylashtirilgan darslar va materiallar talabalar uchun mustaqil o'qish imkoniyatini yaratadi.
- **Elektron kutubxonalar:** Kitoblar va ilmiy maqolalar, talabalar tomonidan elektron kutubxonalarda o'qilishi mumkin, bu o'quvchilarga kengroq ma'lumot olishga yordam beradi.
- **Testlar:** Onlayn testlar talabalar tomonidan o'qilgan materiallarni baholash va o'rganishni mustahkamlash uchun ishlatiladi.
- **Multimedia elektron darsliklar:** Bu darsliklar turli multimediya vositalaridan (video, audio, grafika) foydalangan holda taqdim etiladi, bu esa o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, media texnologiyalari asosida o'qitish talabalarni o'qitish jarayonini ikki barobar samarali va vaqtni tejashga imkon beradi. Media texnologiyalari yordamida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin. Olingan bilimlar esa xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar talabalar materiallarni ko'rish orqali o'rganishsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% ga oshadi. Agar materiallar audio, video va grafik ko'rinishlarida berilsa, bu o'rganilgan materiallarni xotirada saqlash imkoniyatini 75% ga oshiradi.

Media texnologiyalar asosida bo'lajak shifokorlarni o'qitishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish:** Talabalar o'rganilayotgan materiallarni yanada samarali va chuqurroq o'zlashtiradi.
- **Yangi ta'lim sohalari bilan yaqindan tanishish:** Media texnologiyalar talabalarni yangi o'qish sohalariga kirishishga va ular bilan yanada faol aloqa qilishga undaydi.

- **Vaqtни tejjash:** O‘qish jarayonining samarali tashkil etilishi, vaqtни tejjash imkonini beradi.
- **Bilimlarni uzoq vaqt saqlash:** Olingan bilimlar xotirada uzoq vaqt saqlanib, amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Masofaviy ta‘lim texnologiyalari, elektron o‘qitish, va media texnologiyalar tushunchalari bir xil narsani bildiradigan emas va ular alohida-alohida qo‘llanilishi mumkin. Masofaviy ta‘lim texnologiyalari elektron o‘qitishning ajralmas qismi sifatida zarur hisoblanadi. Elektron o‘qitishni amalga oshirishda masofaviy ta‘lim texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Masofaviy ta‘lim esa media texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, o‘qitishning zamonaviy axborot-kommunikatsion usullari bir-birini takomillashtirishga imkon beradigan texnologiyalarni tashkil qiladi. Demak, o‘qitishning barcha usullarida mediasavodxonlik kompetensiyasi zarur bo‘ladi.

Tadqiqotlarimizga asoslanib, **mediasavodxonlik** bo‘lajak shifokorlarni mustaqil fikr yuritishga, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga, axborotni olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini o‘rgatadi. Ta‘lim jarayonida mediasavodxonlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bo‘lajak shifokorlarning **dunyoqarashi** va **intellektual salohiyati** shunchalik rivojlanadi. Bu talablar to‘g‘ridan-to‘g‘ri **mediata‘lim** bilan chambarchas bog‘liqdir.

Soha mutaxassislari masofaviy o‘qitishning xususiyatlari bo‘yicha turlicha fikr bildirsa-da, deyarli barcha mualliflar uning asosiy jihatlarini quyidagicha ta‘riflaydi: moslashuvchanlik, modullilik, qulaylik, iqtisodiy samaradorlik, tezkor aloqa, qamrovning kengligi, texnologik yondashuv, ijtimoiy tenglik, tyutorning yangicha roli va sifat nazorati.

1. **Moslashuvchanlik** – o‘quv jarayonini vaqt, joy va ta‘lim muddatiga moslashtirish imkoniyati. Masofaviy ta‘limda talabalar ma‘ruza yoki seminar mashg‘ulotlarida qatnashishga majbur emas, ular o‘zlariga qulay vaqtda va joyda ishlay oladilar.

2. **Modullilik** – ta’lim mazmuni modullar orqali taqdim etilib, talabaga shaxsiy bilim olish ehtiyojlariga mos individual ta’lim yo‘nalishini tanlash imkonini beradi.
3. **Qulaylik** – talabaning yashash joyi yoki iqtisodiy holatiga bog‘liq bo‘lmagan ta’lim olish imkoniyati.
4. **Iqtisodiy samaradorlik** – ta’lim muassasalari va talabalar xarajatlarini kamaytiradi (masalan, yo‘l, turar joy, kommunal to‘lovlar), bu an’anaviy ta’limga nisbatan taxminan 50-60 % tejashni ta’minlaydi.
5. **Tezkor aloqa** – tyutor va talabalar o‘rtasida tezkor muloqot va fikr almashish imkoniyati mavjud.
6. **Qamrovning kengligi** – xona yoki auditoriyaga bog‘liq bo‘lmagan holda istalgan sonli talaba masofaviy ta’lim orqali o‘qiy oladi.
7. **Texnologik yondashuv** – o‘quv jarayonida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.
8. **Ijtimoiy tenglik** – sog‘liq, ijtimoiy yoki iqtisodiy holatidan qat’i nazar, barcha talabalarga bir xil sharoit va imkoniyatlar yaratiladi.
9. **Internasionallik** – ta’limiy maqsadlarni amalga oshirishda jahon tajribasi va bilimlarni tez va qulay tarzda eksport-import qilish imkoniyati.
10. **Tyutorning yangicha roli** – tyutor talabalar mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida maslahatchi va ustoz sifatida xizmat qiladi.
11. **Ta’lim sifatining o‘ziga xos nazorati** – masofaviy ta’limda nazorat masofaviy imtihonlar, suhbatlar, amaliy, kurs va loyiha ishlari, komp’yuterli test tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Tibbiy jarayonlarni masofaviy o‘qitishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo‘llanilishi bevosita media texnologiyalarga bog‘liqdir. SHundan kelib chiqib, tahlil qiladigan bo‘lsak, media - bu vositaning qisqa shakli - keng auditoriya bilan muloqot qilish uchun foydalaniladigan vosita. Zamonaviy dunyoda turli xil ommaviy axborot vositalariga duch kelamiz. Biz

ularning har birini, ularning afzalliklari va kamchiliklarini, shuningdek, tibbiyotda sogʻlom raqobat muhitida oʻzining tibbiy xizmat koʻrsatish xizmatini yuqori darajaga koʻtarish uchun turli ommaviy axborot vositalarining kuchidan qanday foydalanishi mumkinligini muhokama qilamiz.

1. Reklama ommaviy axborot vositalari. Reklama - bu mahsulot, xizmat yoki gʻoyani sotish uchun homiylik qilingan, shaxsiy boʻlmagan xabarlariga yoʻnaltirilgan potentsial auditoriya bilan marketing aloqasi usuli. Bu erda reklama beruvchilar uning mazmunini platformada koʻrsatish uchun maʼlum miqdorni toʻlashlari kerak. Bu miqdor foydalaniladigan vosita turiga, potentsial auditoriya hajmiga va maqsadli auditoriyaga bogʻliq. Reklama vositalari gazeta, jurnallar, televizor, radio, tashqi reklama, elektron pochta, qidiruv tizimi marketingi (SEM), ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va veb-saytlarni oʻz ichiga oladi. Reklamalar odatda yangi dori vositalari yoki tibbiy xizmatlar toʻgʻrisida brendni tanitish maqsadida chiqariladi, va raqamli marketingda esa, ular oʻz qiziqishlarini bildirgan auditoriyani mahsulot yoki xizmatni sotib olish uchun onlayn platformalarga yoʻnaltirishi mumkin.

2. Ommaviy axborot vositalari. Radioeshittirish vositalari audio yoki video kontentni elektron ommaviy aloqa vositasi orqali tarqoq auditoriyaga tarqatishning barcha turlarini qamrab oladi. Ommaviy axborot vositalarining mashhur usullaridan baʼzilari radio eshittirishdir, bu orqali oʻz gʻoyalari, mahsulotlari yoki xizmatlarni radio kanallari, masalan, Mirchi radiosi va boshqa koʻplab radiokanallar orqali translyatsiya qilish mumkin. Bunga qoʻshimcha ravishda, televizion eshittirishlar ham ommaviy axborot vositalarining bir qismi sifatida ishlatiladi. Veb-translyatsiya esa Internet radiosi, jonli efirlar yoki internet televizorlari orqali amalga oshiriladigan eshittirish vositalariga kiradi.

3. Raqamli media – bu mobil telefonlar, shaxsiy kompyuterlar yoki noutbuklar kabi raqamli elektron qurilmalarda yaratilgan, tomoshabinlar uchun tarqatilishi va oʻzgartirilishi mumkin boʻlgan elektron ommaviy axborot vositalaridir. Bu turdagi media orqali axborot tez tarqalib, interaktiv tarzda oʻzaro aloqani taʼminlaydi.

Raqamli ommaviy axborot vositalarining so‘nggi pandemiyasi tufayli foydalanuvchilarning o‘sishi va ijtimoiy tarmoqlardagi o‘rtacha vaqt juda yuqori darajaga ko‘tarildi. Raqamli media maqsadli odamlarga osongina erishishligi, Facebook va Google tomonidan ishlab chiqilgan aniq odamlarni nishonga olish uchun yaxshiroq algoritm mavdudligi, Ijtimoiy aloqani kuchaytirisi, ko‘proq jalb qilish va istalgan vaqtda istalgan joydan ishga tushirish mumkinligi bilan afzalliklarga egadir.

4. Interaktiv media — bu foydalanuvchi harakatlariga javob beradigan, matn, harakatlanuvchi tasvir, animatsiya, video, audio yoki o‘yinlar kabi kontentni taqdim etish orqali kompyuter tizimlarida ko‘rsatiladigan media turidir. Bunday media foydalanuvchiga o‘zaro aloqada bo‘lish imkonini berib, kontentni boshqarish yoki taqdim etish usulini moslashtirishga imkon yaratadi.

5. Ijtimoiy media. Ijtimoiy media - bu foydalanuvchilar, masalan, bo‘lajak shifokorlar bir-birlari bilan tibbiy yangiliklar va ma’lumotlar almashishadigan interaktiv platformalardir. Ular o‘zlarining xamkasblari, oilalari va do‘stlari orasida so‘zlarni va xabarlarni baham ko‘rishadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi e‘lonlar va reklamalar aniq aniqlik bilan yo‘naltirilishi mumkin. Facebook, Snapchat, Twitter va boshqa ko‘plab odamlar xatti-harakatlari, qiziqishlari va demografiyasiga asoslangan holda nishonlash uchun ajoyib algoritmlarni ishlab chiqdilar.

Media texnologiyalaridan foydalanishning asosiy vazifasi – talabalar uchun muhim prinsiplarni tushunishni osonlashtirish, oddiy yo‘nalishdagi media axborot tili bilan tanishtirish, ularning badiiy didini rivojlantirish, mediamatnlarni qabul qilish va o‘rganish, shuningdek, ularni malakali tarzda tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Axborot sohasidagi globallashuv yangi dunyoqarash shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy bilimlarning takomillashishi bilan axborotlarni to‘g‘ri va samarali tarzda ishlatish muammosi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini va ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullarini nazorat qilish juda murakkablashdi. Shu bois, xatoliklar va chalkashliklardan saqlanish uchun mukammal tizim zarurdir. Bu

tizim, o‘z navbatida, axborot tarqatuvchilarining va iste‘molchilarning bilim darajasi va saviyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, bu masala mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ayrim mutaxassislar axborotni to‘g‘ri shakllantirish va tizimli ravishda tartibga solish yo‘llarini izlamoqdalar. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim amaliyotida bunday izlanishlar o‘tgan asrning 70-yillarida boshlangan va bu pedagogika fanida o‘ziga xos yo‘nalish — mediata‘limning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

Tadqiqot jarayonida masofaviy ta‘limning xususiyatlari haqida respondentlarning fikrlari o‘rganildi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, pandemiya munosabati bilan ta‘lim muassasalarida ommaviy ravishda masofaviy ta‘limga o‘tish jarayonida 80% pedagoglar texnik va psixologik muammolarga duch kelgan, 70% pedagoglar esa yuklamalarning ortishi sababli shikoyat qilganlar.

Eng ko‘p qayd etilgan muammolardan biri sifatida olis hududlarda yashovchi ko‘pchilik talabalar internet tezligi pastligi, elektr uzilishlari sababli masofaviy ta‘lim tizimidan samarali foydalana olmayotganliklarini ma‘lum qilishgan. Shuningdek, barchaning axborot texnologiyalari bilan ta‘minlanmaganligi yoki onlayn o‘qitish dasturlaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega emasliklari ham qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan.

So‘rovnomada ishtirok etgan 74 foiz pedagoglar masofaviy ta‘limga o‘tish ularda ishchi yuklamalarning keskin oshib ketganligini, 26 foizi esa an‘anaviy ta‘lim tizimidan masofaviy ta‘lim tizimiga o‘tish ishlarini etarli darajada muvaffaqiyatli

tashkil etilmaganligini qayd etishgan. 60 foiz pedagoglar bu jarayon qoniqarli va faqatgina 14 foizi yaxshi tashkillashtirilganligini e‘tirof etishgan.

Deyarli sinaluvchilarning yarmi, ya‘ni 47 foizi masofaviy ta‘limni yanada sifatli bo‘lishini ta‘minlash uchun qo‘shimcha pedagogik, uslubiy yordam zarurligi, pedagoglarni bu boradagi malakalarini oshirish kerakligini, bu borada ularning bilim va ko‘nikmalari etarli emasligini aytib o‘tishgan.

U.SH.Begimqulovning “Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti” nomli doktorlik dissertasiyasida

zamonaviy masofaviy kurslar yaratishning muhimligi haqida quyidagi fikrlar yuritilgan :

“Zamonaviy masofaviy kurslar yaratishning konseptual pedagogik asoslarining muhimligini quyidagicha bayon etish mumkin:

1. O‘quv jarayonining markazida tinglovchining mustaqil bilim olish faoliyati (o‘qish, o‘qitish emas) turadi.
2. Tinglovchi bilimlarni mustaqil egallashi, turli axborot manbalari bilan ishlash va ulardan foydalanish malakasiga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi.
3. Bilimlarni mustaqil egallash passiv xarakterga ega bo‘lmasligi, aksincha tinglovchi faol bilish faoliyatiga jalb qilinishi kerak.
4. Tinglovchilarni kompyuter tarmoqlari orqali o‘qitish yangi pedagogik texnologiyalarni talab etadi. Bunday pedagogik texnologiyalarga hamkorlikda o‘qish, loyihalar metodi, muammoli o‘qitish metodlarini keltirish mumkin.
5. Masofaviy o‘qitish tinglovchining o‘qituvchi bilan faol muloqotidan tashqari boshqa tinglovchilar bilan ham muloqotini nazarda tutadi.
6. Nazorat tizimi doimiy xarakterga ega bo‘lishi va tezkor teskari aloqaga, testdan o‘tkazish avtomatik tizimi asoslangan bo‘lishi kerak.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari adabiyotlarda (A. A. Andreev, A. A. V. Xutorskaya va hk.) keng miqyosda yoritilganligiga qaramay ushbu manbaalarni

o‘rganish jarayonida onlayn ta’limning samaradorligi haqidagi tizimli fikrlarni uchratmadik. Lekin, keng masshtabli empirik tadqiqotlar mavjud bo‘lmasa-da, ushbu masalaga bir qator olimlarning (S. Bartley, P. Brusilovsky, R. Singh, S.Sussman, T. V. Tulupova, S. P. Kuchinskaya, V. V. Gryaznova) ilmiy ishlarida alohida urg‘u berishga harakat qilingan. Ular masofaviy ta’limning yuqori talabchanligi, shuningdek elektron ta’limning moslashuvchan tizimini yaratish istiqbollari asosiy urg‘u berishadi. Ma’lumki, ana’naviy va masofaviy ta’lim

ishtirokchilari o'zlarini turlicha his etadilar. Eng avvalo, bu odatdagi sinf-dars tizimi mavjud bo'lmagan hollarda yaqqol namoyon bo'ladi.

2.3. § Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish

Bugungi kunda talabalar mediadan juda keng va faol foydalanmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlarda uyali telefonlari orqali suratlar yuboradi, turli yangiliklarga munosabat bildiradi va doimiy ravishda virtual makonda muloqot qilishadi. Agar kattalar ish va dam olish vaqtini ajratishga majbur bo'lsa, talabalar onlayn va offlayn faoliyatlari o'rtasida chegara qo'yish zaruratini sezmaydi. Global tarmoqdan yosh avlod vakillari dunyoning turli mintaqalarida yashaydigan insonlar bilan muloqot qilish uchun foydalanadilar. Ular vizual va kommunikativ madaniyatning yangi avlod vakillari hisoblanadi.

Mediasavodxonlikni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- I. Mediakompetentlikni keltirib chiqaradigan o'quv topshiriqlari bilan tanishish.
- II. Mediadagi muammolarni hal etish yo'llarini belgilash;
- III. Axborot manbaidagi o'quv materialini o'rganish, tahlil qilish va undagi asosiy g'oyani ajratish;
- IV. Muammolarni hal etish bo'yicha mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakillantirish; median multimedia vositalar yordamida dalillash; axborotni to'g'riligini tekshirib ko'rish; o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazoratni amalga oshirish.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham o'rganilayotgan fanga bo'lgan qiziqishni oshirish talabalarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin ekan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha maxsus tuzilgan dastur joriy qilingandan keyin o'qituvchi o'quv faoliyatining mazmunini yoki uslublarni tekshirish, talabalar bilan teskari aloqa o'rnatishga qodir bo'lishi lozim. Albatta, talabalar medialar bilan ishlashi jarayonida ziddiyatli axborotga

ham duch keladi. Bunday holatlarda muallifda turli manbalardan axborotni izlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi va bu yangi axborotni talabalarning o‘zida mavjud bilimlar asosida baholash hamda tegishli nuqtai nazarni shakllantirishga zamin yaratadi. Media savodxonlikning bir nechta ta‘rifi mavjud. Biz “Media savodxonlikning asosiy jihati sifatida mediamuhitga tahliliy yondashuv, ya’ni uni tanqidiy qabul qilish va media vositasida o‘zini ifoda etish”, degan ta‘rifga tayanamiz. Bu ma’noda bo‘lajak shifokorlarda media savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi:

1. funksional va pragmatik metodlar. U yoki bu axborotning amaliy foydaliligini ko‘rish, eshitish, tasavvur etish, tushunish va namoyish etishni bildiradi;

2. tanqidiy tahlil metodlari turli tahliliy vositalardan foydalangan holda turfa mediakontentni adekvat tarzda talqin eta olish, mediamatnni baholashni bildiradi. Ushbu ko‘nikmalar rang-barang mediakontent va janrlar vositasida yaxshiroq rivojlanadi;

3. estetik va kreativ ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metodlar mediamatnni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin qilish qobiliyatini bildiradi. Talaba mazkur ko‘nikmalarni o‘zida media-resurslar yaratish orqali shakllantirishi mumkin.

4. interfaol metodlar media orqali muloqot qilish va turli media-rollarni bajarib ko‘rish qobiliyatini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘nikmalarni ta’lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin. Interfaol metodlar o‘z fikri va ko‘rsatmalarini ifoda etishga tayyorligini ko‘rsatadi.

5. tanqidiy fikrlash metodlari murakkab vaziyatlardan chiqish va ularga duch kelmaslik qobiliyatini namoyon etadi. Virtual makonda xavfsizlikka rioya qilishning muhim ko‘nikmalaridan hususiy makonni himoyalash hamda kerak bo‘lmagan kontent va muloqotdan voz kechishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak shifokorlar mediasavodxonlik kompetensiyasiga ega bo‘lishlari uchun quyidagi mediako‘nikmalarni rivojlantirish zarur:

- o‘z bilimlarini muntazam yangilab borish;
- axborotlarni topish, to‘plash va tahlil qilish;
- axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatish;
- muammolarni aniqlash va hal etish;
- mustaqil qarorlar qabul qilish;
- ijtimoiy va kasbiy hamkorlik qilish;
- ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Shuningdek, shifokor:

- olgan bilimlarini amaliy ishda qo‘llay olishi;
- kundalik hayotda ishlatiladigan texnologiyalardan xabardor bo‘lishi;
- muammolarni chuqur tahlil qilishi va bilimlarini oshirib borishi;
- jamoa bilan samarali hamkorlik qilishi;
- kerak bo‘lganda tez va aniq qarorlar qabul qilishi;
- yangi g‘oyalar yaratishda va muammolarni hal qilishda texnologiyalardan foydalana olishi kerak.

Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mediadarslarda quyidagilarni o‘rgatish muhim:

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio, telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqa vositalar) samarali foydalanish;
- mediavositalardan zarur axborotlarni topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash va xavfsizligini ta‘minlash;
- ma‘lumotlar bazasini yaratish, ularni tanlash va tahlil qilish;
- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlashni (masalan, tabriknomalar yozish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘z ma‘lumotlarini qayd etish) bilish va amaliyotda qo‘llash.

Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv orqali talabalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan vaziyatlarda bilim, ko‘nikma va malakalarni

samarali qo'llashga o'rgatish mumkin. Bo'lajak shifokorlar kasbiy fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lish bilan birga, o'z fikrini tushuntira olish, boshqalarni tinglash va tushunish, bahs-munozara qilish, kundalik hayotdagi muammolarni hal etishda axborotlarni izlab topish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. Bu borada, ayniqsa, shakllanuvchi ko'nikmalarni mediadarslar orqali amalga oshirish, amaliy natijalarni aniq ko'rsatadi. Mediadars interfaol, talabaga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lim jarayonida samaradorlikka erishishda katta muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Mediadarslar talabani shaxsiy fikr yuritish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, axborot olish, uni qayta ishlash, sintez qilish va shaxsiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Mediadarslarning metodik imkoniyatlari va afzalliklari qanday?

Birinchidan, o'quv jarayonida talabalar bir vaqtning o'zida o'qituvchidan nazariy bilimlarni olish va zamonaviy texnologiyalar yordamida materiallarni vizual tarzda ko'rish imkoniga ega bo'ladi. O'quv ob'ektlari va voqealarni modellashtirish, ularni test shaklida avtomatik ko'rsatish, tasvirlash mumkin.

Ikkinchidan, kompyuter texnikasi yordamida o'quv faoliyatini tashkil qilish imkoniyati yaratiladi, talabalar o'quv materiallarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Uchinchidan, talabalar yakka tartibda ishlash orqali qiziqish va ijodiy ishlarini rivojlantira oladi.

To'rtinchidan, multimedia texnologiyalari talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Beshinchidan, ko'rgazmali ta'sir yordamida talabalarda fikrlash, motorik va verbal kommunikatsiya ko'nikmalari shakllanadi.

Oltinchidan, axborot bilan ishlash (axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va tartibga solish), axborot mazmunini tushunish va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shu orqali axborotni qabul qilish madaniyati shakllanadi.

Tadqiqotimizda bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodlar vazifasiga ko‘ra quyidagicha tasniflandi:

1. **Mediabilim metodlari** – talabalarning media haqidagi klassik va innovatsion axborot qismlarini o‘rganish va tahlil qilish (axborotni izlash, qabul qilish, tushunish va tahlil qilish).
2. **Mediaistemolchilik metodlari** – mediadan repseptiv foydalanish orqali talabalarning o‘z ifodasini topishini rivojlantirish (axborotni baholash, saralash).
3. **Mediatanqid metodlari** – talabalarning analitik, reflektiv va baholash qobiliyatini shakllantirish (axborotni qayta ishlash, uzatish).
4. **Mediakommunikativ va tadbirkorlik metodlari** – zamonaviy media muhitining o‘zgaruvchanligi va yangiliklarini hisobga olish malakasini rivojlantirish.
5. **Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash metodlari** – talabalarning kreativ malakalarini rivojlantirish, mediamatnlarni loyihalash, mustaqil fikr yuritish.

Talabalarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodlar mediateknologiyalardan foydalangan xolda mediadars jarayonlarida bosqichma-bosqich qo‘llash orqali takomillashtirildi.

Birinchi bosqich. Dastlabki ushbu bosqichda axborotni izlash, qabul qilish, tushunish va taxlil qilish metodi qo‘llaniladi. Avvalom bor bo‘lajak shifokorlar axborot yoki ma’lumotlarni elementar tekshirish zarur bo‘ladi. Masalan, bo‘lajak shifokorlarga avvalo axborot manbalarini tekshirishni o‘rganish tavsiya etiladi. Agar talaba biror tibbiy yangilik, xabar yoki veb-sayt yoki ilovaga duch kelsa, quyidagi savollarni berishi kerak: manba kim? Kim tomonidan e’lon qilingan? Hatto agar xabar ishonchli tibbiy manbadan kelgan bo‘lsa ham, asosiy manbani aniqlashga harakat qilish zarur. Chunki ba’zida bu yangiliklar o‘ylab topilgan yoki uydirma sayt orqali tarqatilgan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi bosqich(axborotni baholash, saralash metodi). Bu bosqichda bo‘lajak shifokorlar ma’lumotni kim tarqatganiga e’tibor berish muxim xisoblanadi. Bu ba’zi xollarda qandaydir g‘alati akkaunt yoki sayt bo‘lib chiqishi mumkin. Masalan, bo‘lajak shifokorlar lazer nurlari yordamida davolashning samarali usuli-laproskopik jarroxlik amaliyoti xaqida axborot qidirishayotganda bu axborotni tarqatayotgan odam o‘zi jarroh va laproskopik jarohlik amaliyotini bevosita o‘zi amaliyotga qo‘llagan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa ushbu

mavzu bo'yicha umuman biror narsa qidirishga harakat qilib qshirish kerak. Biz odatda talabalar bilan bu haqda suhbatlashamiz. Ha, ular ijtimoiy tarmoqlarni juda yaxshi bilishadi, ular bu kabi tarmoqlarda post yozishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin, ammo negadir ular hali ham Google va Yandeks borligini unutishmoqda. Shu ma'lumotdan nusxa olib uni internetdagi qidiruv tizimiga qo'yishning o'zi kifoya. Qidirish mexanizmi ushbu ma'lumotlar dastlab joylashtirilgan saytlarning ro'yxatini topadi.

Uchinchi bosqich(axborotni qayta ishlash, uzatish metodi). Bo'lajak shifokorlarda xar bir axborotga shubhali munosabatni rivojlantirishni tavsiya qilamiz. Bu tanqidiy fikrlashdir. Tanqidiy salbiy ma'noda emas, balki sog'lom skeptitsizm. Nima uchun men bu narsani yozgan odamga ishonishim kerak? Balki tekshirib ko'rish kerakdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida bo'lajak shifokorlar mavjud bilimlari va tajribasiga tayanib qolmaydi, balki yangi faktlar va axborotlarning ta'siri ostida o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishga qodir bo'ladilar. Bu, albatta, diqqatga sazovor jihat bo'lib, alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Biz, ya'ni, iste'molchi tomonidan axborot bloki haqida gapirmayapmiz, balki mavjud ma'lumotlarni tushunish, ularni qayta ko'rib chiqish jarayonining sodir bo'layotganiga urg'u beramiz. Buning natijasida, auditoriyaning qarashlari va nuqtai nazari o'zgarishi mumkin. Shunday qilib, media iste'molchini axborot voqeligini to'ldiruvchi qo'shimcha kanal sifatida ko'rib chiqish muhimdir.

To'rtinchi bosqich(mediakommunikativlik, tadbirkorlik metodi). "Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo'yicha qidirish" mavzusida bo'lajak shifokorlar global tarmoqda qidirish kerak bo'lgan tibbiy ma'lumotlar haqida, biologik axborotlarning asosiy xossalari, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini eshitish, gapirish orqali o'z fikrini og'zaki aniq va tushunarli bayon qila olishlari, tibbiy va biologik axborotlarning tabiatdagi va inson organizmidagi ahamiyati, tashxislash va davolashda tutgan o'rnini yozish orqali ularning yozma nutqi shakllanadi, tibbiy va biologik axborotlarning fanlar bilan aloqadorligini, mavzuga oid tibbiy va biologik terminlarning boshqa tillarda nomlanishini bilishi va o'z bilimiga asoslangan holda, boshqalar fikrini hurmat

qilgan holda qat'iy fikrga ega bo'lish, turli muammoli vaziyatlarda, o'z bilimi, ko'nikma va malakalariga tayangan holda, har bir tibbiy va biologik hodisa, tushuncha va qonuniyatlar asosida qaror qabul qila olishi orqali bo'lajak shifokorlarda ushbu kompetensiya shakllanadi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarda kommunikativ kompetensiyada: og'zaki va yozma nutqini mukammal oshira borish; tuzilgan savollarga yozma va og'zaki javob yoza olish; o'z fikrini aniq va tiniq bayon eta olish; qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash va ulardan foydalanib test va savollar tuza olish; guruhlarda ishlay olish, o'z fikrini himoya qilish, ishontira olish; muammolarni hal qilishda o'zini o'zi boshqara olish, ona tilidan tashqari, horijiy tillarni ham o'zgartirishi lozim . Bo'lajak shifokorlarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun: axborot bilan muntazam ishlash; matn ustida ishlash ko'nikmasi; mavzudan foydalanib savollarga javob topish; amaliy topshiriqlarni bajara olish; internet tarmog'idan foydalanish xaqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari zarur.

Beshinchi bosqich(ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikr yuritish metodi). Tanqidiy fikrlash metodi — bu adolatli, foydalanuvchi va media o'rtasidagi munosabatlar, asosiy muammolarni aniqlash va shakllantirishda ishtirok etish, maslahatlash, maqsadlarni boshqarish, muammolarni shakllantirish va taraqqiyot uchun ko'p jonli usullardan foydalaniladigan tahliliy metoddir. Ushbu metodlar yangi axborotlar, fikrlarni amalga oshirish, muammolarni tarqatish va talabalar ichidagi muammolarni shakllantirishda kerakli muloqotlarni tashkil qilishda qo'llaniladi. Bu uchun tanqidiy fikrlash metodlari talabalarni aniq muammolarni yoki taqqoslash ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish, shaxsiy fikrlarni media muhitda muloqot qilish va tarqatish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda ular talabalarni aniq va muhim tahlil qilishga majbur qiladi. “Global tarmoqda ishlashni tashkil etish va tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo'yicha qidirish ” mavzusida talabalar yangi mavzuni o'zlashtirishlari uchun umumta'lim maktabida olgan bilimlari, mediaolamda o'qib, ijod qiladilar va o'rgangan ma'lumotlariga asosan bilimlarini takomillashtiradilar. Bo'lajak talabalar xar kuni internet tarmoqlaridan foydalanishda ma'lumotlarni qidirish haqida, ma'lumotlarni uzatish

texnologiyalari, ma'lumotlarni qidirish uslublari, keng qamrovli ma'lumotlarni uzatish texnologiyalari haqida hayoti davomida o'qib-o'rgangan, xar kuni qo'llayotgan bilim, tajribasiga tayangan holda, masala echimiga mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari shakllantiriladi .

Mediadarslarning maqsadi va pedagogik yondashuvi.

Mediadarslarning asosiy maqsadi – talabalar tibbiyot bilan bog'liq asosiy qonun-qoidalarni tushunishlari, media axborotlari tilini oddiy yo'nalishlarda o'rganishlari, shuningdek, ularning badiiy va intellektual rivojlanishiga hissa qo'shishdir. Ushbu darslar talabalarga tibbiyotga oid mediatekstlarni malakali tahlil qilish, tushunish va qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik strategiya esa diagnostik mediamatnlarni tahlil qilish va ularni davolash asosida baholashga qaratilgan.

Mediadarslarda markaziy o'rin talabalar shaxsiga berilgan bo'lib, ularning qiziqishlari va xohish-istaklari hisobga olinadi. Shu bilan birga, talabalarga olingan axborotlarga tanqidiy yondashish va fikrlarini asoslab ifodalash ko'nikmalari o'rgatiladi. Tadqiqotlar va ekspert fikrlariga ko'ra, mediadarslar nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, talabalarni kreativ va tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Shu sababli, talabalar uchun maxsus media bilimlari kurslarini tashkil etish va mediasavodxonlikning asosiy tushunchalari hamda texnologiyalar sohalarini o'rganish muhim hisoblanadi.

Mediadarslar asosan amaliy mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi, chunki talabalar uchun amaliy mashg'ulotlar va loyihalar tashkil etish, ularni o'z fikr va tajribalari bilan ishlab chiqishga ilhomlantirishda muhim rol o'ynaydi. Amaliy mashg'ulotlar va loyihalar orqali talabalar media ko'nikmalarini amaliy ravishda o'rganish, mediya mahsulotlarini yaratish va taklif qilish orqali o'z rivojlanishlarini ta'minlaydi.

Talabalar mediadarslarda media texnologiyalari bilan ishlashni o'rganadilar. Kompyuterlar, smartfonlar, dasturlar va montaj dasturlari kabi media texnologiyalari bilan ishlash orqali talabalar mediasavodxonliklarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishda darsni quyudagicha tashkil qildik:

a) butun auditoria o'quv predmeti darajasida o'quv jarayonini tashkillashtirish (o'quv jarayoni grafigi, sirtqi tashhis, yakuniy nazorat);

b) Mediamuhitda talabalarni faollashtirish va ularning ishini muvofiqlashtirish, ish o'rinlarini joylashtirish, yo'riqnoma berish, mediavositali tarmoqni boshqarish kabi vazifalar o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu talabalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va ular orasida samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi.

c) Talabalarni individual kuzatish, individual yordam ko'rsatish va talabalar bilan «insoniy» munosabatlar o'rnatish ham muhim ahamiyatga ega. Kompyuter yordamida individual o'qitish jarayonida ko'rish va eshitish obrazlari orqali o'quvchilarga moslashtirilgan materiallar taqdim etiladi, bu esa o'qitishning yuqori samaradorligiga erishishni ta'minlaydi.

d) Axborot muhiti tarkibiy qismlarini tayyorlash, ularni ma'lum bir o'quv fani mazmuni bilan bog'lash talabalar uchun o'qish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va interaktiv qiladi. Bu metod talabalarni o'quv materiallari bilan bog'liq bo'lgan aniq axborotlarni taqdim etish orqali o'quv faoliyatini yaxshilashni ko'zda tutadi.

Xususan, multimediya texnologiyalaridan foydalanib interfaol darslarni o'tkazish yaxshi samara beradi.

Mediadarslarda bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalandik:

1. **Media o'qish va tahlil qilish metodi.** Media o'qish va tahlil qilish talabalarning medialogiya ko'nikmalarini o'rganish va rivojlantirishning asosiy qismidir. Bu metod talabalarga media xabarlarini, jurnallarni, kitoblarni o'qish va ulardan olingan ma'lumotlarni nazariy va amaliy ravishda tahlil qilish orqali

ma'lumotlarni to'g'ri tushunish va uning asoslarini o'rganish imkonini yaratadi. Quyidagi bosqichlarda bu amaliyotning muhim qismlari ko'rsatilgan:

a) Xabar tahlili. Talabalar o'z fikr va natijalarini shakllantirish uchun media xabarlarini tahlil qilishga o'rgatiladi. Ular xabarlarini tushunish, ana tili va ko'rinadigan ma'lumotlarni aniqlash, keng tarqalgan masalalarni tahlil qilishga ilhomlantiriladi.

b) Mediamahsulotlarini tahlil qilish. Talabalar o'z ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhtoj manbalar orqali media mahsulotlarini, masalan, video, audiodan iborat dasturlarni, jurnallarni, bloglarni, kutubxonalaridagi kitoblarni tahlil qilishni o'rganishadi. Bu, har bir turlarni tushunish, ularni muvofiqligi va ilova qilishlari, mavzusi va yo'nalishlarini tushunish orqali chet el va o'z davlatidagi media mahsulotlarini solishtirish va natijalarga olib kelish imkonini beradi.

2. **Ijodkorlik.** Bu metod qo'llanilganda bo'lajak shifokorlar texnikaviy va rivojlanayotgan mediaturlar bilan ishlashda muhim ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Talabalar media o'qish va tahlil qilish jarayonida texnikaviy turlar bilan (internet, televizor, radio, yangiliklar portallari, ijtimoiy tarmoqlar) ishlashni o'rganishadi.

Ular yangiliklar, maqolalar, vaideo dasturlar va boshqa mediaturlar orqali ma'lumot topish va tahlil qilish jarayonida rivojlantiriladigan muhitni tushunishadi.

3. **Mediamatnlarini tanqidiy tahlil qilish.** Bunda talabalar o'z fikrini shakllantirish uchun mediamatnlarini o'zlashtirib, ulardagi tahlilni tanqidiy ravishda bajaradilar. Ushbu jarayon talabalarni axborotni faqat iste'mol qilishdan tashqari, uning mazmunini chuqur tahlil qilishga, matndagi xatoliklar, bias (o'zgartirilgan yoki tarfkash nuqtai nazar), manipulyatsiya yoki boshqa ijtimoiy yo'nalishlarni aniqlashga o'rgatadi.

4. **"Media portfeli tuzish"** metodi. Bu metod mediadars jarayonida qo'llanilganda talabalar o'zining media portfelini tuzib, ularda o'z yaratqan ya'ni tayyorlagan media ishlari, dasturlar, blog postlar yoki boshqa ijodiy mahsulotlarini joylashtirish orqali mediasavodxonliklarini namoyish etishlari mumkin.

5. **“Media portfeli tuzish”** metodi. Bu metod mediadars jarayonida qo‘llanilganda, talabalar o‘zining media portfelini tuzib, unda o‘z yaratgan yoki tayyorlagan media ishlari, dasturlar, blog postlar yoki boshqa ijodiy mahsulotlarini joylashtirish orqali mediasavodxonliklarini namoyish etishlari mumkin. Media portfeli talabalar uchun o‘zlarining yutuqlarini va o‘rganilgan ko‘nikmalarini jamlash imkonini beradi, shuningdek, bu jarayon ularning ijodiy yondashuvlarini va texnikaviy mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod talabalarga o‘zlarining o‘quv jarayonidagi yutuqlarini qayd etish va ularga tahliliy fikr bildirish orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada kuchaytirishga imkon yaratadi.

5. Media muhokamalari va muloqot usuli. Ushbu usulda talabalar o‘z fikrlarini, tahlillarini va media materiallarini sinfdoshlar bilan baham ko‘rish orqali mediasavodlik ko‘nikmalarini oshiradilar. Media muhokamalari interaktiv muhit yaratadi, bu esa ularni tanqidiy fikrlashga, fikrlarini aniq ifodalashga va boshqalarning nuqtai nazarini tinglashga undaydi. Muloqot va bahslar orqali talabalar media mahsulotlarini chuqurroq tahlil qilishni o‘rganib, o‘z qarashlarini asosli va ravon tarzda ifodalashga qodir bo‘ladilar. Shu bilan birga, ushbu metod kommunikatsiya ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi, chunki talabalar fikrlarini ochiq va samarali yetkazishni amalda o‘rganadilar.

6.O‘qituvchilar yordamida monitorlik va retseptsiya metodi. O‘qituvchilarning tashqi yordami va retseptsiyasi bilan, talabalar o‘z mediasavodxonlik kompetensiyalarini nazorat qilish, ularga qo‘llanma berish va rivojlanishlarini ta‘minlash mumkin.

7. Loyihalash Metodi. Loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar, talabalarga o‘zlarini ifodalash va ijodiyliklarini rivojlantirish uchun samarali vositalar yaratadi. Bu jarayon, shuningdek, o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash va mediya sohasidagi yutuqlarni baholash uchun ajoyib imkoniyatlar taqdim etadi. Quyidagi misollar amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar turlarini ko‘rsatadi, ular talabalarga mediya sohasida ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam berish uchun mo‘ljallangan:

Bu metod yordamida talabalar o'z mediya mahsulotlarini yaratishda va ularni boshqarishda amaliy tajriba orttirib, mediasavodxonlik kompetensiyalarini kuchaytiradilar.

-blog yaratish mashg'uloti: talabalar o'z vloglarini yaratish, video materiallar tayyorlash va ularga to'plam yaratish orqali o'zlarini media platformalari orqali namoyish etish uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazishadi.

-podcast tayyorlash mashg'uloti: talabalar o'z podcastlarini yaratish, maqolalar tayyorlash va qo'shimcha ma'lumotlar bilan tajriba almashish uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etishadi.

-multimedialar tuzatish loyihasi: talabalar o'z multimedia mahsulotlarini tayyorlash, ularni tuzatish va ularga muhtoj ma'lumotlar qo'shish orqali o'zlarini ijodiy ravishda ifodalash uchun loyihalar o'tkazishadi. Bu mashg'ulotlar va loyihalar talabalarga mediya bilimlarini va mediasavodxonlik sohasida amaliy ko'nikmalarni o'rganish, o'z fikrini ifodalash va mediasavodxonliklarini rivojlantirishga erishish imkonini beradi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari talabalarni bu turdagi amaliy mashg'ulotlarga qatnashish uchun ilhomlantiradi va yordam beradi, chunki bunday mashg'ulotlar talabalarni ijodiy fikrlashga va mustaqil ravishda o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga o'rgatadi.

Bu metodlar tushunchalar, ko'nikmalar, ijodiylik va kommunikatsiya ko'nikmalarini o'rganish, bu sohada amaliy tajribaga ega bo'lish va vaqtincha vazifalarni bajarish orqali talabalarning mediasavodxonliklarini rivojlantirishda samarali usullardir. Talabalar, bu jarayonlarda o'zlarining media mahsulotlarini yaratish, tahlil qilish va baholashda amaliy tajriba orttiradilar, shu bilan birga ular mediya sohasida ko'nikmalarni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak shifokorlarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishda mediyaning etik asoslariga katta e'tibor qaratish zarur. Mediyaning etik asoslari samarali va huquqiy ravishda xizmat ko'rsatish, yuqori sifatli ma'lumotlarni olish va tarqatish, hamda o'z muhitida samarali muammolarni tuzatish prinsiplariga asoslanadi. Bu etik asoslar talabalarga media materiallarini, maqolalar, videolar va boshqa mediya mahsulotlarini yaratishda aniq qoidalarga amal qilishni o'rgatadi.

1.To'g'ri va aniq ma'lumotlarni saralab olish. Bo'lajak shifokorlar uchun faoliyat davomida ma'lumotlar to'g'ri va aniq bo'lishi muhimdir. Ko'rib chiqilgan ma'lumotlar to'g'ri va ob'ektiv bo'lishi, va ularga yuqori sifatli etik tahlil qilinishi kerak.

2.Tanqidiy tahlil qilish. Mediyaning vazifasi talabalar uchun jamiyatdagi muammolar va vaziyatlar haqida tanqidiy ravishda ishlab chiqarishdir. Talabalar qabul qilayotgan medimatnlarga tanqidiy tahlil va adolatli fikr bildirish muhimdir.

3.Integritet va ishtirokchilik. Bo'lajak shifokorlar integritetni saqlab qolish, samarali ish va ob'ektiv ravishda ishlay olganligi uchun xavfsizlik va ishtirokchilikni saqlashlari muhimdir.

4. O'zgaruvchanlik va demokratik o'yin. Talabalar tibbiyotga doir bilimlar egallashida, fikrlar va ma'lumotlarning o'zaro almashtirishida, talabalarning o'z fikrini ifodalash va boshqa o'quvchilar bilan munosabatda bo'lishda o'zgaruvchan bo'lishi muhimdir.

5.O'zgalarga zarar etkazmaslik. Talabalar foydalanayotgan mediyamahsulotlari boshqalarga zarar etkazmaydigan, ularga yo'qimsiz, ong bo'lmasdan, odob-ahloqqa muvofiq turdagi ma'lumotlar tashkil etishga intiladigan etik asoslar bo'yicha amal qilishi kerak.

6.Maxfiylik va huquqiy tartibot. Maxfiylik va huquqiy tartibot, talabalarning ma'lumotlari uchun to'g'ri tijorat qilish va uni maxfiy saqlash uchun kerak bo'lgan etik asoslaridan biridir.

7.Kompromat habarlar. Bo'lajak shifokorlarning mediasavodhonligini rivojlantirishda talabalar boshqa talabalarning shaxsiy ma'naviyatlariga, shaxsiy hayotiga tahdid qilish, kompromat yaratish va o'zgaga tegishli maxfiyliklarni saqlashda o'zining etik prinsiplariga amal qilishi kerak.

8. Huquqiy maslahatlashish. Bo'lajak shifokorlar mediada tarqalayotgan habarlar shubhali bo'lsa huquqiy maslahatlashish va talablarga amal qilishda etik asoslar bo'yicha maslahatlar olishga majbur.

Mediyaning etik asoslari talabalar uchun aniq qoidalarni tuzatib borishni ta'minlaydi va jamiyatning maqsadlarini, qadriyatlarini muhofaza qiladi. Etik

asoslarning saqlanmaganligi media orqali olib borilayotgan fikr-mulohazalarda zararlar keltirishi mumkinligini oshiradi.

Mediadarslarning o'quv-bilish jarayoni:

1. Mediata'lim tarixi va tuzilish nazariyasi:

- Mediata'limning tarixini o'rganish va uning tuzilish nazariyasini tushunish.

2. Mediamatnlarni tahlil qilish:

- Media materiallarni ongli qabul qilish, tilini bilish, «o'qita olish».
- Tanqidiy, mantiqiy, ijodiy, obrazli va muammoli fikr yuritishni rivojlantirish.
- Kompyuter tomografiyasi orqali xotirani mustahkamlash.

3. Media materiallarni amaliy qo'llash:

- Talabalar materiallarni kreativ fikrlash orqali ishlatadi.
- Yangi tushunchalarni o'zlashtiradi: “snimka”, “tomografiya”, “konflikt”, “diagnostika”, “simptom”, “sindrom”, “multimedia”.
- Tibbiyotga oid axborotni olish, tushunish va inson psixikasiga ta'sirini bilish.
- Axborotni integratsiya qilib, shaxsiy fikr bildirish.
- Axborot bilan ishlash kompetentligini shakllantirish.
- Kreativ fikrlashni rivojlantirish va yangi tushunchalarni amalda qo'llash.
- Axborotdan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish.
- **Badiiy imitatsiyali:** kichik ssenariylar, minissenariylar, mediamatnlar yaratish va interfaol namoyish qilish.
- **Teatrlashgan vaziyat:** mediamatn asosida epizodlarni inscenirovka qilish.
- **Tasviriy-imitatsiya:** afishalar, fotoko'rgazmalar, tibbiy rasmlar namoyishi.

Natija: Talabalar emotsional qabul qilish orqali tibbiy madaniyatni tushunadi, umumintellektual rivojlanadi va bilim oladi.

1. Komp'yuterlar: universal qo'llaniladi.

2. **Dasturiy vositalar:** an'anaviy texnologiyalarni to'ldiradi, sxema, rasmlar, jadvallar, videofragmentlar, animatsiyalar bilan ta'minlaydi.
- Ta'lim mazmuni, metodlar, o'qituvchi va talabalar faoliyati uyg'unlashgan bo'ladi.
- Ta'lim **individuallashtirilgan va faollashtirilgan** shaklda tashkil etiladi.
- Talabalar mustaqil ijod qilish imkoniga ega bo'ladi.

Ma'ruza mashg'ulotlarida – 40-50 daqiqa;

Amaliy mashg'ulotlarda – 50-60 daqiqa;

Laboratoriya mashg'ulotlarida – 30-40 daqiqa;

Mustaqil ta'limda 60-65 daqiqagacha ishlash mumkin.

Kompyuterlashgan auditoriyada mediadarslarni tashkil etish o'quv faoliyatini samarali tashkil etish:

Auditoriyadagi qo'shimcha o'quv stollaridan foydalanish sanitar me'yorlarga rioya qilish va talabalar faoliyatini moslash uchun maqsadga muvofiq. Faqat ko'rgazmali tasvirlardan foydalanish cheklov bo'lib, ularni kompyuter orqali ekranga chiqarish talab qilinadi. Talabalar bilan ishlash shakllari:

1. **Individual ishlash:** topshiriq va vazifalarni amaliy mashg'ulotlarda bajarish.
 2. **Kichik guruhlar:** laboratoriya ishlarida tajriba bajarish.
 3. **Medialar bilan ishlash:** kompyuterli va kompyutersiz faoliyatni almashib turishi.
 4. **Faollashtirish:** o'quv materialini takrorlash yoki birinchi marta o'zlashtirish.
 5. **Bilim va ko'nikmalarni shakllantirish:** o'quv axborotlarini tushunib, mustahkamlash.
 6. **Amaliy qo'llash:** o'quv materialini nazorat qilish va amalda qo'llash.
- Yuqori darajadagi kasbiy mahorat.
 - Zamonaviy metodik tayyorgarlik.

- Talabalar bilan muloqot va psixologik-pedagogik bilimlar (kommunikativlik kompetensiyasi).
- Yuksak ma'naviy-ma'rifiy madaniyat (umummadaniy kompetensiya).
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish, internetdan foydalanish (axborot bilan ishlash kompetensiyasi).
- Innovatsiya, pedagogik texnologiya va interfaol usullarni o'zlashtirish.
- Matematik savodxonlik va fan-texnika yangiliklaridan xabardorlik.

Mediadarslarni tashkil etishda tibbiyot sohasida to'la qonli foydalanish uchun quyidagi shart-sharoitlarni ta'minlash zarur:

1. **Mediasavodxonlikning kompleks yondashuvi:** Mediasavodxonlik bir butun jarayon sifatida qabul qilinishi va o'z ichiga bilim va ko'nikmalar majmui (kompetensiyalar)ni olishi lozim. Bu, nafaqat media mahsulotlarni tushunish va tahlil qilishni, balki ularni yaratish, ishlab chiqish va samarali ravishda taqdim etishni ham o'z ichiga oladi.

2. **Kasbiy savodxonlikni shakllantirish:** Mediadars talabalarni media va axborot kanallari bilan o'zaro aloqada kasbiy savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirishi kerak. Bu shifokorlarni professional axborot manbalarini tahlil qilish, tibbiy yangiliklarni va axborotni kritik yondashuv bilan ishlashga o'rgatadi.

3. **Axborotni qidirish, saralash, baholash va uzatish ko'nikmalari:** Bo'lajak shifokorlar axborotni qidirish, saralash, baholash va uzatish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim. Bu ko'nikmalar talabalarga tibbiyot sohasida yangiliklarni samarali va tez olish, ular bilan ishlashda aniq va xolis qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

4. **Shaxsiy yondashuv va hamkorlik pedagogikasi:** Mediadarslarda o'qituvchilar tomonidan talabalar va ularning shaxsini tushunish, hamkorlik pedagogikasining hayotiy zarurati sifatida qabul qilinishi lozim. Bu o'qitish jarayonida talabalarning ehtiyojlarini inobatga olish va ularning ijtimoiy, psixologik holatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarni tayyorlash jarayonida «Media ta'lim» o'quv kursini joriy etish zamon talabidir. Ushbu kurs nafaqat talabalarning intellektual salohiyatini oshiradi, balki darslarni tez, tushunarli va yodda qoladigan tarzda o'tishga imkon yaratadi. Mediatexnologiyalar va interfaol metodlarning rivojlanishi esa talabalarning mediatexnik ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, tibbiyot sohasida sifatli va samarali ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi.

2.4. § Pedagogik tajriba-sinov maqsad va vazifalari

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy xususiyatlari mohiyatini tahlil qilish uchun talabalarning dars jarayonlarida mediadan foydalanish va ularning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish asosiy vazifa sifatida belgilandi va tadqiqot doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi 4 ta, ya'ni aniqlovchi, ta'kidlovchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi bosqichlarda olib borildi.

Tajriba-sinovning birinchi aniqlovchi bosqichida (2020 yil) tadqiqotning maqsadi, vazifalari va ob'ekti aniqlandi, bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy majmualar o'rganilib, mediasavodxonlikning mazmuniga qo'yilgan talablar aniqlandi.

Tajriba-sinov ishining ob'ekti sifatida Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlandi va 2020-2021, 2021-2022, 2022-2023 o'quv yillarida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib bordik.

Tajriba-sinov maydonchalarini belgilashda quyidagilar asosiy mezon etib belgilandi:

tajriba-sinov maydonchalarining turli hududlarda joylashganligi;
tajriba va nazorat guruhlaridagi tinglovchilarning soni bir-biriga yaqinligi;
tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalar umumiy faoliyatining bir-biriga mosligi.

Tajriba-sinovning dastlabki bosqichida bo'lajak shifokorlarning dars jarayonlarida mediadan foydalanish jarayoni va ilg'or pedagogik texnologiyalardan qanday darajada foydalanilayotgani o'rganildi. Quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Bo'lajak shifokorlarning "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" fanining o'quv reja va dasturlari, bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasining rivojlantirishning mazmuni va sifatiga qo'yilgan davlat talablari bilan tanishildi va tahlil qilindi;

Bo'lajak shifokorlarning dars jarayonida ilg'or pedagogik va AKT vositalaridan foydalanish holatlari o'rganildi va tahlil qilindi;

Bo'lajak shifokorlarning kompyuter va ommaviy axborot vositalaridan foydalana olish darajasi hamda mediadan foydalanishga tayyorgarliklari o'rganildi va tahlil qilindi;

Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro va respublikamiz dars mashg'ulotlarida tajribalari nazariy va amaliy jihatlardan tahlil qilindi.

Tajriba-sinovning ushbu bosqichini amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

tadqiqot muammosi bo'yicha mavjud tajribalar va xalqaro o'quv adabiyotlarni tahlil qilish;

dars jarayonini kuzatish;

suhbat va so'rovnomalar o'tkazish;

ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish.

Tajribalar o'tkazish jarayonida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning bir necha usullaridan foydalandik. Bu media vositalaridan o'quv jarayonida foydalanishning asosiy maqsadi talabalarning

bilimlarini mustahkamlashga, yangi mavzularni chuqur tushuntirishga, ularni mustaqil izlanishga qaratildi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, media vositalari yordamida dars tashkil etish bo'lajak shifokorlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, bu usul talabalarda ommaviy axborot vositalarida bemalol ishlay olish malakalarini shakllantiradi hamda olingan axborotlarni tahlil qilish va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak shifokorlarning medi vositalaridan dars jarayonida foydalanish sohasida ijobiy tajribalar bilan bir qatorda ba'zi bir kamchiliklarni sanab chiqish mumkin. Ular qatoriga:

- Media vositalaridan foydalanib dars o'tishga doir metodik adabiyotlar chop qilinmagan;

- professor-o'qituvchilarining orasida media vositalaridan foydalanish bo'yicha tayyogarlik darajalari etarli bo'lmaganlari ham mavjud;

- professor-o'qituvchilar dars jarayonida media vositalaridan kam foydalanishadi.

Tajriba ishlari davomida "Tibbiyotda axborot texnologiyalari" ta'limida media vositalaridan foydalanish samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim. Ular quyidagi vazifalarni o'z ichiga olishi kerak:

- professor-o'qituvchilarni ommaviy axborot vositalaridan amaliy foydalanish bo'yicha qayta tayyorlash;

- o'qituvchi va talabalarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

- media vositalar yordamida talabalarning faolligi va mustaqilligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ijodkorligi hamda tashabbuskorligini rivojlantirish.

Media vositalaridan foydalanishni samaradorlik darajasini aniqlash va baholashda quyidagi umumiy pedagogik talab va mezonlar inobatga olindi:

1. ommaviy axborot vositalaridagi axborot materialining hajmi va mazmuni.
2. Ommaviy axborot vositalaridagi axborot materiali bayonining ilmiyligi: kurs bo'yicha asosiy tushuncha, qonun va nazariyalarning ilmiy jihatdan to'g'ri ifodalanishi;

3. Ommaviy axborot vositalarida axborot materiali bayonining tushunarlilik darajasi:

✓ bayon etishning talabalarning o'quv bilish imkoniyatlariga va yosh xususiyatlariga mos kelishi;

✓ axborotga kiritilgan o'quv materialining tushunarlilik darajasi.

4. Axborot o'quv materialini bayon etish usuli:

zamonaviy axborot texnologiyalari asosida interfaol usullardan foydalanish darajasi;

• o'qitish samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi boshqa metodik usullardan foydalanish darajasi;

5. Texnologik jarayonlarning aks ettirilishi: o'quv materiali bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayonlar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida kiritilganlik darajasi;

6. O'quv materialini asosiy va qo'shimcha qismlarga ajratilishi:

-o'quv materialini asosiy va qo'shimcha qismlarga bo'lish;

-talabalar tomonidan qo'shimcha o'zlashtirish uchun mo'ljallangan mavzulardan foydalanganlik darajasi.

7. Tanlangan masala va amaliy topshiriqlarning mazmuni: talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishda asosiy tushunchalar, qonuniyatlar va nazariyalarni shakllantirishning murakkablik darajasi.

8. Ommaviy axborot vositalarida uzatilayotgan axborot materiallarning sifati: axborotning jozibadorligi, ishonchliligi, asoslanganligi, axborot kim tomonidan berilayotganligi, axborot manbai va axborotni o'z o'rnida ishlatilish darajasi.

9. Ommaviy axborot vositalarida uzatilayotgan axborotlarning tili: ravonligi, lo'ndaligi, aniqligi, qisqaligi va ta'sirchanligi.

Bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning tajriba maydoni sifatida belgilangan Buxoro davlat tibbiyot instituda, Andijon davlat tibbiyot instituti va Samarqand davlat tibbiyot universitetida tajriba sinov o'tkazishda ularni tekshirish bo'yicha yuqorida qayd etilgan usullardan foydalanildi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda matematik-statistika usuli qo'llanildi. Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat tibbiyot instituti Buxoro davlat tibbiyot instituti, va Samarqand davlat tibbiyot instituti barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida «Tibbiyotda axborot texnologiyalari» fanini o'qitishda media vositalarning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida olib borildi. Tajriba olib borish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, medialardan nafaqat Tibbiyotda axborot texnologiyalari fani, balki barcha fanlarni chuqur o'zlashtirish, mavzularga oid masalalarni osonlikcha hal etish an'anaviy va masofali ta'lim jarayonida keng imkoniyatlar yaratadi.

Nazorat shakllari muayyan mutaxassislikning xususiyatlariga ko'ra va o'quv jarayonining ko'lamiga muvofiq kafedralar tomonidan tanlab olinadi. Xususan, kollokvium yoki og'zaki so'rov, laboratoriya ishi, dasturiy mahsulot, sinov shakllari tavsiya etiladi. Tajriba sinov ishlarida ushbu nazorat shakllarida tashkil etilgan nazorat ishlari tanlab olingan Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning mezonlari va baholash darajalari asosida tajriba boshidagi dastlabki va tajriba oxiridagi yakuniy natijalar olindi.

Tajriba boshidagi nazorat Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlanganligi qay darajada ekanligi, ularning mediasavodxonlik orqali fanni o'zlashtirish darajalari an'anaviy darslardan o'rganish darajalariga qiyoslash orqali aniqlandi.

Tajriba boshidagi nazoratdagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlanganligining natijalariga ko'ra tajriba sinov ishlarida ishtirok etgan OTMlarining umumiy

ko'rsatkichlari qiyoslandi. Ushbu qiyosiy taxlil natijalari qo'yidagi diagrammada aks ettirildi

Tajriba boshidagi nazoratdagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlanganligining umumiy natijalariga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarining Yuqori darajadagi o'zlashtirishlari 8,8% va 9,8%ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlari 18,6% va 18,8%ni, past darajadagi o'zlashtirishlari 56,2% va 52,9%ni, juda past darajadagi o'zlashtirishlari 16,4% va 18,5%ni tashkil etib, past va juda past darajadagi o'zlashtiruvchilar ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi .

Medialar yordamida o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirish, talabalarni o'z ustida mustaqil ishlashga yo'naltirish va ijodiy izlanish olib borishga undashi uning ilmiyligi va foydalanish usuliga ko'p jihatdan bog'liq. To'g'ri foydalanilgan mediamatn talaba bilimni oshishiga va bo'lajak kasbiy faoliyatlarida malakali mutaxassis bo'lib etishishlariga yordam beradi. Shu maqsadda tashkil etilgan tajriba sinov ishlarida tadqiqotdagi Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlanish mezonlari (Motivatsion-qadriyatli, Kognitiv va Konativ (hatti-harakat, xulq-atvor) va instrumyental-faoliyatli) ishlab chiqilgan bo'lib, ularning baholanish daraja (Yuqori, o'rta va past)lari orqali nazorat ishlari baholandi.

Tajriba oxirida nazoratdagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlanganligining umumiy natijalariga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarining Motivatsion-qadriyatli mezon bo'yicha Yuqori darajadagi o'zlashtirishlari 24,1% va 12,0%ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlari 54,4% va 27,5%ni, past darajadagi o'zlashtirishlari 21,5% va 60,5%ni tashkil etib, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori darajadagi o'sish 12,1%ni, o'rta darajadagi o'sish 26,9%ni tashkil etgan bo'lsa, past daraja o'zlashtiruvchilar 39,0%ga kamayganligi aniqlandi. Kognitiv va Konativ (hatti-harakat, xulq-atvor) mezon bo'yicha Yuqori darajadagi o'zlashtirishlari 23,0% va 11,2%ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlari 55,5% va 29,7%ni, past darajadagi o'zlashtirishlari 21,5% va 59,1%ni tashkil etib, bu

mezon bo'yicha tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori darajadagi o'sish 11,8%ni, o'rta darajadagi o'sish 25,8%ni tashkil etgan bo'lsa, past daraja o'zlashtiruvchilar 37,6%ga kamayganligi aniqlandi. Instrumyental-faoliyatli mezon bo'yicha Yuqori darajadagi o'zlashtirishlari 21,9% va 10,1%ni, o'rta darajadagi o'zlashtirishlari 54,7% va 31,5%ni, past darajadagi o'zlashtirishlari 23,4% va 58,3%ni tashkil etib, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori darajadagi o'sish 11,8%ni, o'rta darajadagi o'sish 23,2%ni tashkil etgan bo'lsa, past daraja o'zlashtiruvchilar 34,9%ga kamayganligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlaridan olingan sonli ma'lumotlarning natijalari tahlil qilinib, umumlashtirildi va uning ishonchliligini tekshirish maqsadida matematik-statistik tahlil qilindi. Ushbu hisoblashlarni dissertatsiyaning keyingi, 3.2- paragrafda ko'rib chiqamiz. Tajriba-sinovning umumlashtiruvchi bosqichida nazorat va tajriba-sinov guruhlarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilindi. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda, bo'lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini aniqlash yuzasidan tajribaning boshlanishi va yakunidagi natijalarni aniqlash bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tegishli mezonlar bo'yicha matematik statistika metodi yordamida tahlil etildi.

Mundarija

Kirish	3
I BOB. BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	5
1.1-§.Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik zarurati	5
1.2. § Talabalarda mediasavodxonlikni kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari	20
1.3. § Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlanganlik darajalari, mezonlari va ko‘rsatkichlari	30
II.BOB. BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING MEDIASAVODXONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	47
2.1. § Talabalarning mediasavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	47
2.2. § Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish.....	59
2.3. § Bo‘lajak shifokorlarning mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	76
2.4. § Pedagogik tajriba-sinov maqsad va vazifalari.....	91
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	Ошибка! Закладка не определена

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Toshkent, 2009. – 146 b.
2. Abduraximova, L.A. Реабилитация в поликлиническом звене здравоохранения: использование комплекс методов в лечении больных деформирующем остеоартрозом Формы и методы социальной работы в ..., 2015
3. Alfred P. Student evaluation of teaching in the virtual and traditional classrooms: A comparative analysis // Internet and Higher Education. – 2006. – 9. – P. 23-35.
4. Allambergenova M.X. Informatikadan interaktiv o'quv majmuolar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. – 117 b.
5. Aripov M., Tillaev A.I. Masofali o'qitish texnologiyalari asosida ta'limni tashkil etish // Axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'quv jarayonida: muammolar, echimlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-metodik konferensiya materiallari. – Samarqand, 2007. – B. 93.
6. Asthana, S. Study of structural, magnetic and electrical properties on Ho-substituted BiFeO₃- Solid state communications, 2012
7. Babadjonov S.S., Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent: 2018.
8. Banda, F. Defying monolingual education: Alternative bilingual discourse practices in selected coloured schools in Cape Town Journal of multilingual and multicultural development, 2010
9. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007. – B. 30-32.

10. Biju Bajracharya, Chelladurai, Computer Graphics Applications in the Education Process// The CTE Journal ISSN 2327-0160 (2020 Online) Volume 6. Number 2. – P. 1-10.
11. Cynthia Vinney. „Very well mind“. What Is Media Literacy? 2022
12. Deanna Kuhn Imitation Theory and Research from a Cognitive Perspective // Source: Human Development, 1973, Vol. 16, No. 3 (1973). – Pp. 157-180. <https://www.jstor.org/stable/26764195>
13. Delor, J. Usefulness of ultrasound for the diagnosis of pyogenic flexor tenosynovitis: A prospective single-center study of 57 cases PubMed Disclaimer 2018 SFCM. Published by Elsevier Masson SAS
14. Dezuanni, M. Media and information literacy: policy and strategy guidelines Unesco 2014
15. Dodge B. Some Thoughts About Web Quests. 1995-1997. http://webquest.sdsu.edu/about_webquests.html
16. Dr.Ajit Mondal Simulated Teaching – Modification for Teacher Behaviour // Simulated Teaching Teacher Education, Sem-4 (Old) AM, 2020. – P. 1-6.
17. Eshbek, T. Multimedia Opportunities and Journalistic Skill in Covering Economic Topics <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/index>
18. Fayziev M.A. Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini kompyuter imitatsion modellari asosida shakllantirish metodikasi // Ped. fan. bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi. – S., 2008.
19. Fayzieva, M. Fusion Methodologies of the Assessment of the Effectiveness of Digital Technologies in Commercial Banks management, 2023
20. Ferry, J. Les Guides du musée de Saint-Dié. — Imprimerie municipale, 1981. — 52 p.
21. Finan, B. Emerging hormonal-based combination pharmacotherapies for the treatment of metabolic diseases. Nature Reviews. Endocrinology, 15(2), 90-104. <https://doi.org/10.1038/s41574-018-0118-x> 2019
22. Gadaev, A.G. The role of transforming growth factor- β 1 in the development of processes of fibrosis in the heart and kidney in patients with

diabetes with chronic heart failure Art of medicine international medical scientific journal 2023

23. Gendina, N. (2017). Analysis of adaptation of Media and Information Literacy Curriculum for Teachers (prepared by UNESCO) in Russia and Uzbekistan. Mediaobrazovanie-Media Education, (3), 27—44;

24. Gloria Harrison | harrison@scienceforming.com.

25. Goroxovskiy, A. Медиа ва ахборот саводхонлиги бўйича муаммоли, тарбияси оғир ёшлар билан ишлаш учун ўқув қўлланма. Бишкек. 2021 йил

26. Grizzle, A. The Challenge of Media and Information Literacy for Public Service Media United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 2021

27. Hamburger, E. Media and information literacy: reinforcing human rights, countering radicalization and extremism (The MILID yearbook, 2016)

28. Ибрайимов, А. Репрезентация искусственного интеллекта (ИИ) в кино и медиа Серия Журналистики 2023

29. Ingvaldsen, S. Visual outcomes and their association with grey and white matter microstructure in adults born preterm with very low birth weight Scientific Reports 2024

30. Inoyatov, U. Some aspects of professional competence <https://erus.uz/index.php/er/article/download/1984/2500/2401> 2019

31. Jalolova P.M. Oliy ta'limda "atom fizikasiga" oid laboratoriya mashg'ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 152 b.

32. Jo'raev R.X., Taylaqov N.I., Rasulova G.A. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun elektron o'quv qo'llanmalari yaratishga oid ilmiy-metodik talablar // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2005. – № 2. – B.14-27.

33. Jumanova, S. O'qish savodxonligi darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 806-814 2023

34. Kadirova M.R. The content of pedagogical disciplines aimed at continuous didactical training of university students *Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi* 2 (4), 68-73 2021
35. Karuna, I.A. Combining ability studies in breadwheat (*Triticum aestivum* L. Em Thell) under salt stress environments *Indian Journal of Genetics and Plant Breeding* 57 (02), 127-132 1997
36. Kellner, Share, Douglas, Jeff (2007). "Tanqidiy mediasavodxonligi imkoniyat emas" (59-69 betlar)
37. Kerr, P. Factors affecting outcomes in patients reaching end-stage kidney disease worldwide: differences in access to renal replacement therapy, modality use, and haemodialysis practices *The Lancet* 388 (10041), 294-306 2016
38. Kolesnichenko, V.L. Theoretical study of nanoscale probes of scanning probe microscopes *Vestnik SPBU* 4 (4), 120-125 2010
39. Leaning, M. (2017). *Integrating Media and Information Literacy*. Media and Information Literacy, Chandos Publishing, 144 p.;
40. Leng J. Scientific Examples of Virtual Reality and Visualization Applications / J.Leng // UKHEC – UKHigh Performance Computing – 2001. – March. – P. 1-9.
41. Lewy A. *Planning the school curriculum*. – Paris, 1977.
42. Lutfillayev M.X. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. – 37 b.
43. Lutfullayev M.X., Abdullahovna Sh.A., Shodmonqulov M.T. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni yaratish va joriy etish konsepsiyasi // *Zamonaviy ta'limda raqamli tizimlarni qo'llash: Filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari, mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya materiallari to'plami*. – Toshkent, 2020. – 21-24 betlar.

44. Mamarajabov M.E., Tursunov S.Q., Nabiulina L.M. Kompyuter grafikasidan va veb-dizayn: darslik // O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: Chulpon nomidagi NMIU, 2013. – 376 b.
45. Mamarajabov M.M. Kasb-hunar kollejlariida informatika fanining “Amaliy dasturiy ta'minot” bo‘limi mazmuni va o‘qitish metodikasi (Excel va Power Point dasturlari misolida): Ped. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. – Toshkent: TDPU, 2004. – 20 b.
46. Mamatova Ya., Sulaymanova S., O'zbekiston mediate`lim taraqqiyoti yo`lida. O`quv qo`llanma. Tashkent: Extremum-press, 2015.94 b.
47. Mamatqulov, B. Information and communication technologies in physics lessons Физико-технологического образование 2021
48. Maxmudov A.X. Bo`lajak magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta`minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.:2017.
49. Meltzoff A.N., & Williamson R.A. Imitation and modeling // *Reference Module in Neuroscience Biobehavioral Psychology*. (2017). – P. 1-10. doi:10.1016/B978-0-12-809324-5.05837-2
50. Mirsanov U.M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikaning amaliy dasturlar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish metodikasi (5–6-sinflar misolida) // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 190 b.
51. Mirsolieva, M. “Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.– T: 2016.
52. Monaha T. Virtual Reality for Collaborative E-learning / T. Monaha, G.McArdle, M.Bertolotto // *Computers and Education*. T.Monahan et al. / *Computers & Education* 50 (2008) – P. 1339-1353. Available online at www.sciencedirect.com
53. Moore, P. Human herpesviruses: biology, therapy, and immunoprophylaxis Cambridge University Press 2007

54. Muslimov N., Sayfurov D., Usmonboeva M., To'rayev A. Veb texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish // O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 2015. – 128 b.
55. Muslimov N.A., Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fan. dok...dis. Avtoreferat.T, 2007. - 47 b.
56. N.Qosimova Chet tilini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'rni International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 670-673 2022
57. Namazov, B. Biotechnical neural network system for predicting cardiovascular health state using processing of bio-signals International Journal of Medical Engineering and Informatics 16 (4), 324-349 2024
58. Nazirov Sh.A., Nuraliyev F.M., To'rayev B.Z. Kompyuter grafikasidan va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015. – 256 b.
59. Nikadambaeva H.B. “O'zbekiston tabiiy geografiyasi” fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta'lim misolida) // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. – 223 b.
60. Novikova, A.A. Assessment of bottom-up sectoral and regional mitigation potentials Energy Policy 38 (6), 3044-3057 2010
61. Nurmatov, A. Media Coverage of Problems and Changes in Uzbek Literature During " Reconstruction" Miasto Przyszłości 36, 250-253 2023
62. Oberg, D. Using automation tools to streamline field-to-laboratory documentation Journal of Vertebrate Paleontology, Program and Abstracts 83, 355 2024
63. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Ped. fanlari doktor ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: UMMXHTTKMO'QTI. 2005. – 44 b.

64. Olimov Q.T., Mirzaahmedov B.M. Kasb-hunar ta'limida maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2004. – №5. – B. 22-26
65. Omonov, R. Aҳоли саломатлиги, демографик сиёсат ва демографик жараёнлар Сурхондарё: Илм ва тафаккур, 110-115 2021
66. Onumah, CH. A framework for inclusive graduate medical education recruitment strategies: meeting the ACGME standard for a diverse and inclusive workforce Academic Medicine 95 (5), 710-716 2020
67. Parshakova, A.V. Distributional reinforcement learning for energy-based sequential models NeurIPS 2019 Optimization Foundations of Reinforcement Learning Workshop 2019
68. Qudratxo'ja, SH. Университет журналистики и массовых коммуникаций". Газета.uz. 2018-05-29. Архивировано 1 февраля 2022.
69. Qurbonov, SH. Kichiil hududlar sanoat salohiyatini oshirishning bazi bir masalalari Ilmiy axborotnoma № (95) 1 2016
70. R.Hobbs. (2006) "Multimedia savodhonligining bir necha ko'rinishi": Savodxonlik va texnologiyalar bo'yicha qo'llanma II jild. Associates (15-28 betlar)
71. Raven, J. Using digital storytelling to build a sense of national identity amongst Emirati students Education, Business and Society: Contemporary Middle Eastern Issues 3 2010
72. Rustamova, N.R. Development Of Technology Based On Vitagenic Experience Using Media Resources In Higher Educational Institutions Students Teaching International Journal of Scientific & Technology Research 9 (4) 2020
73. Sarimova, D. Пути формирования жизненных навыков в деятельности учителей химии. Zamonaviy ta'lim 2023
74. Sharofuddinov, SH. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish Iqtisodiyot va Ta'lim 1-son 2023
75. Shodmonov, A. Ancient Social Development of Early Civilizations of Central Asia Central asian journal of social sciences and history 4 (3), 69-73 2023

76. Shoymardonov T.T., Xamidov V.S., Fayzieva M. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash // O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 136 b.
77. Silverblatt, A. Media literacy in US institutions of higher education Webster university media literacy program survey 2002
78. Singh, J. Global injury morbidity and mortality from 1990 to 2017: results from the Global Burden of Disease Study 2017 Injury Prevention 26 (Suppl 2), i96-i114 2020
79. Stevenson, N. Between individual agency and structure in HIV prevention: understanding the middle ground of social practice American journal of public health 103 (8), 1367-1375 2013
80. Sulaymanova, S. Процесс формирования инновационной культуры будущего учителя Innovative research 2 (17), 100-109 2022
81. Taylaqov N. I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogic asoslari.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. 160 b.
82. Taylaqov N.I., Xayitov F.N., Tangirov X.E. “Bir noma'lumli birinchi darajali tenglamalar” bobini o'qitishda elektron o'quv majmuasidan foydalanish // Fizika, matematika va informatika. – Toshkent, 2010. – № 6. – B. 59-64.
83. Toktogulova, E.
84. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari (pedagogika oliy ta'lim muassasalari “Veb-dizayn” fani misolida) Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011. – 23 b.
85. Wilson, C. A mathematical analysis for indentation tests of articular cartilage Journal of biomechanics 5 (5), 541-551 1972
86. Xamroeva F.A. Oliy ta'lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni o'qitish metodikasini mediateknologiyalar asosida takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 43 b.

87. Хаумс, D. Коммуникативная компетенция как базисная категория современной теории и практики обучения иностранному языку / Молодой ученый. — 2011. — № 3 (26). — Т. 2. — С. 118-121. — URL: <https://moluch.ru/archive/26/2790/> (дата обращения: 05.12.2024).
88. Xaytullayeva N.S. Ta'limda axborot texnologiyalari moduli bo'yicha O'UM.TDPu, Toshkent, 2021. – 176 bet.
89. Хомский, N. The Cognitive Science Millennium Project Архивировано из оригинала 2013
90. Xutmaxer, V. Mutations: The Law of Recurrent Variation Floriculture, Ornamental and Plant Biotechnology: Advances and Topical Issues Vol. I, 2006
91. Yo'ldoshev J.G., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 104 b.
92. Yuldashev U. Y, Mamarajabov M. E, Tursunov S. k. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma.-T.:Voriz, 2013. 21. [https://www.researchgate.net/publication/314724552\[62-C\]](https://www.researchgate.net/publication/314724552[62-C])
93. Zakirova F.M. Teoretik va amaliy asoslar metodik tayyorgarlik kelajakdagi informatika o'qituvchilarini pedagogika oliy ta'lim muassasalarida // Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008. – 42 b.
94. Абсалямова И.Р. Формирование осинов профессиональной компетентности дизайнера в техническом колледже [Текст]: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / И.Р. Абсалямова. – М.: Изд-во Рос. гос. социал. ун-та, 2007. – 24 с.
95. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя. Дис... д-ра пед. наук. -М., 1998. -356 с.
96. Амир Темур тузуклари. –Т., 1996. 31-бет.
97. Амосов Н.М. Моделирование информации и программ в сложных системах // Вопросы философии, 1963. – №12.
98. Андреева М.В. Технологии веб-квест в формировании коммуникативной и социокультурной компетенции // Информационно-коммуникационные технологии в

обучении иностранным языкам. Тезисы докладов II Международной научно-практической конференции. – М., 2004.

99. Арефьева, О.В. Профессиональная подготовка студентов-дизайнеров в процессе обучения компьютерной графике [Текст]: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / О.В.Арефьева. – Магнитогорск, 2007. – 21 с.

100. Байдрахманова Г.А. Обучение компьютерной графике будущих учителей информатики в условиях фундаментализации образования: дис. ... канд. пед. наук. Республика Казахстан Алматы, 2019